

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

**JIZZAX VILOYAT XALQ TA'LIMI XODIMLARINI QAYTA
TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH
HUDUDIY MARKAZI**

**TILLARNI O'QITISH METODIKASI VA IJTIMOIY-
IQTISODIY FANLAR KAFEDRASI**

Sh.Haydarov, B.Supiyeva

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

(Sodda gap sintaksi bo'limini internet texnologiyalari asosida o'rgatish
bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanma)

To'ldirilgan qayta nashr

Toshkent – 2022

ANNOTATSIYA

Ushbu o‘uv qo‘llanmada o‘quvchilarni ona tili ta’limiga yo‘naltirishni takomillashtirishning pedagogik asoslari, o‘quvchilarni ona tili ta’limiga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish, uni rivojlantirish borasidagi qulayliklarni yaratishga asosiy e’tibor qaratilgan. Mazkur qo‘llanma xalq ta’limi tizimi ona tili va adabiyot, o‘zbek tili fanlari o‘qituvchilari hamda ona tili ta’limiga qiziquvchilar uchun mo‘ljallangan bo‘lib, Hozirgi o‘zbek adabiy tili kursining sodda gap sintaksis bo‘limi haqida zamонавиy yondashuvlar, metodikalar va innovatsiyalar bo‘yicha keng ma’lumot beradi.

O‘uv qo‘llanma xalq ta’limi tizimi ona tili va adabiyot fani Milliy o‘quv dasturi asosida yaratilgan bo‘lib, “Hozirgi o‘zbek tili” kursining “sintaksis” bo‘limi mavzularini o‘z ichiga olgan. Ishda har bir mavzu uchun adabiyotlar ko‘rsatkichi, matn, nazorat savollari, tayanch tushunchalar izchil tarzda berilgan. Oxirida adabiyotlar va qo‘srimcha adabiyotlar ro‘yxati ilova qilingan.

Haydarov Sh., B.Supiyeva. Hozirgi o‘zbek adabiy tili (Sodda gap sintaksisi bo‘limidan o‘quv qo‘llanma). Jizzax – 2022. 90 b.

Taqrizchilar: G‘.Eshmonov – Filologiya fanlari nomzodii, dotsent.
P.Xolmatov – Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent.
Sh.Siddiqova – Filologiya fanlari doktori (PhD),dotsent.

Muharrirlar: M.Tilakova,
R.Nabiiev

Ushbu o‘quv qo‘llanma Jizzax viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi “Tillarni o‘qitish metodikasi va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar” kafedrasi kengashining 2022-yil 31-maydagi № 5-sonli yig‘ilishida ko‘rib chiqilgan va hududiy markaz Ilmiy-metodik kengashiga tavsiya etilgan.

Hududiy markaz Ilmiy-metodik Kengashining 2022-yil 29-iyundagi 4-sonli yig‘ilishida muhokamadan o‘tkazilib nashrga tavsiya etildi.

SO‘Z BOSHI

Muhtaram Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz”, deb nomlangan asarida farzandlarimiz uchun zamonaviy ish joylari yaratish, ularning hayotda munosib o‘rin egallashini ta’minlashga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga ko‘tarishni davrning o‘zi taqozo etmoqda. “Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og‘ishmasdan, qat’iyat bilan davom ettiramiz. Nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz”, deb ta’kidlaganlari bejiz emas. [1]

Mustabid tuzum davrida tilimizni yo‘qotishga ko‘p urinishlar bo‘lgan edi. Lekin xalqimiz o‘z ona tilini – milliy g‘ururini saqlab qoldi. Millatparvar ziyorilar, tilimiz fidoyilarining jonkuyarligi natijasida 1989- yil 21-oktabr kuni qabul qilingan qonunga asosan, o‘zbek tili mamlakatimizda davlat tili maqomiga ega bo‘ldi.

Yangi muhtasham “Kongress-xoll” saroyida 21-oktabr kuni o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirot etib: “Dunyodagi qadimiylar boy tillardan biri bo‘lgan o‘zbek tili xalqimiz uchun milliy o‘zligimiz va mustaqil davlatchilik timsoli, beba ho ma’naviy boylik, buyuk qadriyatdir. Kimda-kim o‘zbek tilining bor latofatini, jozibasi va ta’sir kuchini, cheksiz imkoniyatlarini his qilmoqchi bo‘lsa, munis onalarimizning allalarini, ming yillik dostonlarimizni, o‘lmas maqomlarimizni eshitsin, baxshi va hofizlarimizning sehrli qo‘shiqlariga quloq tutsin”, - dedi.

O‘zbek tilini o‘rgatish, uning jozibasi bilan tanishtirish jarayonida o‘quvchilar qalbida milliy g‘urur, vatanparvarlik, mehr-muruvvat, mas’uliyat, tashabbuskorlik, ishbilarmonlik kabi hislatlar shakllanadi. Ular o‘zlari tug‘ilib ulg‘aygan yurtga, buyuk ajdodlarimiz merosi va xalqimizning bugungi bunyodkorlik ishlariga yuksak ehtirom tuyg‘ularini his etadilar.

Qolaversa, Vatanimiz mustaqilligining ma’naviy asoslarini mustahkamlash, milliy qadriyatlarimiz, an’ana va urf-odatlarimizni asrab-avaylash, xalqimiz, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongiga ona yurtga muhabbat, istiqlolga sadoqat tuyg‘ularini chuqur singdirishda ham ona tilimizning o‘rni beqiyosdir. O‘quv qo‘llanmaning dolzarbliji ham aynan shunda.

Sintaksis bo‘limi yo‘nalishning asosiy fanlardan biri hisoblansa-da, bu soha bo‘yicha mavjud bo‘lgan darslik va o‘quv uslubiy qo‘llanmalarning aksaryati eskirdi, ularning ta’milanishi ham talab darajasida emas. Shuningdek, mavjud adabiyotlarning barchasi kirill alifbosida yaratilgan. Shu sababli ushbu muammolarni qisman bo‘lsa-da, hal qilish maqsadida lotin alifbosi asosidagi yangi o‘zbek yozuvini imlo qoidalariga moslashtirilgan holda mazkur o‘quv qo‘llanma yaratildi.

Ushbu o‘quv qo‘llanma xalq ta’limi tizimiga mo‘ljallangan Milliy o‘quv dasturi asosida tuzildi. O‘quv qo‘llanmada tilshunoslikdagi so‘nggi o‘zgarishlar, yutuqlar aks ettirildi. Chunki hozirgi kunda lingvistik atamalarni qo‘llashda har xilliklar kuzatilmogda. Shu sababli lingvistik atamalarning bir xillagini ta’minalash maqsadida o‘quv qo‘llanma tayyorlandi.

Mazkur o‘quv qo‘llanmada ma’lum bir izchillikni saqlash maqsadida barcha mavzular quyidagi bir xil tizimdagи qismlarga ajratildi: mavzu, reja, mavzu yuzasidan tafsiya qilinayotgan adabiyotlar, matn, nazorat savollari, tayanch tushunchalar, tahlil namunalari. Bunda o‘quvchi mavzuning rejasi, matn bilan tanishib, mavzu yuzasidan ma’lum bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgach, nazorat savollariga javob berish, tayanch tushunchalar mohiyatini chuqur anglab yetish maqsadida mavzu uchun ko‘rsatilgan adabiyotlar bilan tanishadi, qisqacha konspektlashtiradi, nazorat savollariga javob yozadi.

Fanda belgilangan vazifalarini bajarishda o‘qituvchilarining IT texnologiyalaridan foydalanish metodikasi bo‘yicha bilimi bo‘lmasa ko‘zlangan marraga yeta olmaydi. Chunki, axborot va internet texnologiyalari hozirgi vaqtda ta’lim jarayonining zaruriy sharti hisoblanadi. Bugungi kun o‘qituvchisi zamon yangiliklarini tez ilg‘ab olishi va uni ta’lim jarayoniga olib kirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak. Shuninmg uchun qo‘llanmada mavzuni o‘tish metodikasidan namunalar berilib, darsni zamon talablari asosida o‘tish uchun IT va ATdan foydalanish zarurati xususida ham qisqacha ma’lumotlar berildi.

Mazkur o‘quv qo‘llanma filioliyiya yo‘nalishi bilan qiziquvchilar, pedagogika institutlarining o‘zbek tili va adabiyoti bo‘yicha bakalavriat, magistratura yo‘nalishlari talabalari hamda ona tili va adabiyot hamda o‘zbek tili fanlaridan dars beruvchi pedagoglar, shuningdek, umumta’lim maktablarining ona tili faniga qiziquvchi o‘quvchilari uchun keng foydalanishlarida zaruriy manba sifatida asqotadi.

Sintaksisning predmeti

REJA

1. Sintaksis haqida tushuncha.
2. Asosiy sintaktik birliklar.
3. Sintaktik aloqa va uning turlari: teng, tobe aloqa.
4. Sintaktik aloqa ifodalash usullari.
5. Sintaksisning tilshunoslikning boshqa sohalari bilan aloqasi.

MATN

Sintaksis haqida umumiy tushuncha

Sintaksis so‘zi yunoncha - *syntaxis* so‘zidan olingan bo‘lib, tuzish, biriktirish, tuzilma, tarkib, birikma degan ma’nolarni anglatadi. Tilshunoslikning sintaksis bo‘limi so‘zlarning o‘zaro grammatik munosabatga kirishish yo‘llarini, so‘z birikmalari va ularning tiplari, shakllari, gap va gapning turlari, gap qurilish qoidalari va gaplarning o‘zaro munosabatlarini tekshiradi.

Shu sababli sintaksisning tekshirish ob’ekti so‘z yoki so‘zlar yig‘indisi bo‘lmay, balki sintaktik qurilmalar, ya’ni sintaktik konstruksiyalar hisoblanadi. Bunday sintaktik konstruksiyalar tuzilishi jihatidan uch turga bo‘linadi:

1. Bir so‘zli konstruksiya (qurilma).
2. Ikki so‘zli konstruksiya (qurilma).
3. Ko‘p so‘zli konstruksiya (qurilma).

Bir so‘zli konstruksiya (bitta mustaqil ma’noli so‘z bilan ifodalanadi)ga so‘z *gap, nominativ, vokativ, atov gaplar va ishlamayman, ketaman, kelasan, borasan, o‘qidim, ko‘rdim* tipidagi bir sostavli gaplar kiradi. Demak, bu tipdagi konstruksiyalar bir mustaqil so‘zdan tashkil topgan bo‘lsa ham, mazmun jihatidan predikativlik (*ega va kesim munosabati*)ni tashkil qilganligi, gap bo‘lganligi sababli sintaksisga tegishli hisoblanadi.

Ikki so‘zli konstruksiya (ikki mustaqil ma’noli so‘z bilan ifodalanadi)ga sodda so‘z birikmalari (*mening qishlog‘im, kitobni o‘qimoq, mакtabга бормоq, mashinada ketmoq, uydan kelmoq*) yoki sodda yig‘iq gaplar (*Men keldim, Salim o‘qiydi kabilar*) kiradi. Ushbu ikki so‘zli konstruksiyalarning yana shunday ko‘rinishi ham borki, bunda ikki mustaqil ma’noli so‘zlardan tashqari yordamchi so‘zlar ham ishtirok etib kelishi mumkin (*olma va anor, telefon orqli gaplashmoq, ukasi uchun olmoq...*), lekin bu kabi sintaktik qurilmalarda ishtirok etgan yordamchi so‘zlar ikki mustaqil ma’noli so‘zning aloqalanishi uchun tarkib (sostav) vazifasini o‘taydi xolos.

Ko‘p so‘zli konstruksiyalar (ikkidan ortiq mustaqil ma’noli so‘zning birikishidan tashkil topadi)ga murakkab so‘z birikmali (*paxta gulli chinni, zumrad ko‘zli uzuk...*) va sodda yoyiq gaplardan iborat bo‘ladi. Masalan, *Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o‘ynashadi* (Oybek).

Asosiy sintaktik birliklar

Tilshunoslikning asosiy qismlaridan biri sanalgan sintaksis bo‘limi fikrni nutqda ifodalashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqib sintaksisning asosiy tarkibini sintaktik birliklar tashkil etishi shubhasiz. Fikrni ifodalashda zarur sanalgan so‘z (ushbu o‘rinda o‘zida predikativlikni aks ettiradigan, ya’ni gapga teng mazmunni o‘zida mujassamlashtiradigan so‘z gaplar nazarda tutilgan), so‘z birikmasi (erkin birikmalar) va gap asosiy sintaktik birliklar sabaladi.

Sintaktik aloqalar

Sintaktik birliklar so‘zlarning o‘zaro ma’lum qonun-qoidalar asosida sintaktik aloqaga kirishishidan hosil bo‘ladi. Sinaksiy qaysidir ma’noda mustaqil so‘zlarning sintezi, ya’ni bir so‘zning ikkinchi bir so‘z bilan aloqaga kirishuvi, bog‘lanishi, ulanishi yordamida yuzaga keladi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. So‘zlarni biriktiruvchi, aloqaga kirishtiruvchi sintaktik vositalar sifatida affikslar (*qo‘shimchalar*), yordamchi so‘zlar, intonatsiya va so‘z tartibi ishtirok etadi. So‘zlarning o‘zaro sintaktik munosabatlaridan teng va tobe aloqalar shakllanadi.

Shunga ko‘ra sintaktik aloqalar dastlab ikki turga bo‘linadi: teng va tobe aloqa.

Teng aloqa

Birikma tarkibidagi bir gap bo‘lagi (so‘z turkumi)ga oid so‘zlar o‘zaro teng munosabatda aloqaga kirishadi. Bunday birikmalar asosan gap tarkibida uchraydi va so‘zlar bir xil gap bo‘lagi vazifasida bo‘lib, bir xil so‘roqqa javob bo‘ladi. Ular o‘zaro sanash intonatsiyasi yoki teng bog‘lovchilar orqali birikadi. Gapda ular uyushiq bo‘lak vazifasini bajarib, o‘rinlari almashtirilganda ham grammatik holat va mazmun o‘zgarmaydi. Masalan, *Nodira, Aziza va Shaxnozalar bugun darsga juda yaxshi tayyorlanib kelishgan*, yoki *Shaxnoza, Aziza va Nodiralar...* Yuqoridagi har ikkala holatda ham *Nodira, Shaxnoza, Aziza* so‘zleri o‘zaro teng munosabatda aloqalangan hamda ular bir so‘z turkumi (ot)ga xos va bir xil so‘roqqa (kim?) javob bo‘lib, gapda ega bo‘lib kelmoqda.

Demak, ikki va undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlarning o‘zaro grammatik-semantik jihatdan teng munosabatda aloqalanishidan tashkil topgan birikmalar teng bog‘lanishli aloqa deyiladi.

Tobe aloqa

O‘zbek tilida so‘zlarning tobe aloqasi borasidagi turli xil bahsli va ko‘plab tortishuvlarga sabab bo‘ladigan qarashlar mavjud. Chunki tobe aloqa faqat so‘z

birikmalari (erkin aloqa)ni yuzaga keltirishi haqida ko‘plab ma’lumotlar darslik va o‘quv uslubiy qo‘llanmalarda keltirib o‘tiladi. Aslida mazmun jihatidan olib qaralganda ham so‘zlarning tobe munosabatda aloqasi avvalo ikki guruhga bo‘linadi:

1. Predikativ aloqa. Bu ega va kesim, ya’ni bosh bo‘laklar aloqasidan iborat bo‘lib, gapga tengdir: **Havo issiq. Karim keldi. Dars boshlandi** kabi. Ega va kesim aloqasi tobe aloqaning bir turi sanalsada, bunda mutlaq hokim va mutlaq tobe degan tushunchalar mavjud emas. Chunki ega kesimni izohlashi barobarida kesim egaga qarab yo‘naladi va bir paytning o‘zida har ikkala bo‘lak bir birini izohlab, to‘ldirib turadi. Shu sababli ega va kesim (predikativlik) aloqasi so‘z birikmasini emas balki, tugal mazmunga ega bo‘lgan gapni yuzaga keltiradi. Masalan, **Suv tiniq, Axmad keldi, Ko‘cha katta** kabi

2. Nopredikativ aloqa. Ikkinci darajali bo‘laklarning hokim bo‘lak bilan aloqasidan iborat bo‘lib ular so‘z birikmasi (erkin birikma)ni hosil qiladi: *mening vatanim, ukasiga olmoq, xatni o‘qimoq, matabdan kelmoq, bozorga bormoq, tiniq suv, katta ko‘cha, baland bino, issiq havo* va hokazo.

Demak, predikativ aloqa gapni, nopredikativ (ergash bog‘lanishli) aloqa esa so‘z birikmalarini shakllantiradi.

Biz bu o‘rinda predikativ aloqalar gap-sintaksisida o‘rganilishini inobatga olib asosan, nopredikativ aloqa va uning xususiyatlari yuzasidan to‘xtalamiz.

Tobe aloqaning nopredikativ birikmalarida so‘zlarning biri hokim ikkinchisi tobe munosabatda birikadi. Shu sababli ularning biri (tobe) ikkinchisini (hokim) munosabatda bo‘lib, aniqlashga, to‘ldirishga xizmat qiladi va hokim, tobe so‘zlar gapning turli xil bo‘lagi vazifalarida bo‘lib kelishi mumkin. Masalan, *mening(tobe) kitobim(hokim), kitobni(tobe) sevmoq(hokim), qishloqda(tobe) yashamoq(hokim), matabda(tobe) o‘qimoq(hokim), qizil(tobe) olma(hokim), baland(tobe) bino(hokim)* va boshqalar.

Ergash bog‘lanishdagi so‘zlarning hokim va tobelligini belgilashda ularga qo‘shilib kelgan qo‘shimchalarni hisobga olmoq lozim. Ya’ni qo‘shimcha olgan so‘zlar tobeklikni ko‘rsatadi va tobe so‘z hisoblanadi.

Ba’zi ergash birikmalarda hokim-tobelikni ko‘rsatuvchi formal ko‘rsatgichlar bo‘lmay, ular o‘zaro ma’no yaqinligi tufayli birikadi. Bunday holda ularning hokim-tobeligini mazmunidan (semantikasidan) bilish mumkin. Masalan, *katta bino* (belgi binoga tegishli-*tobe-hokim*), *tez gapirmoq* (tezlik gapirmoqqa tegishli-*tobe-hokim*) va boshqalar.

Shuningdek, tobe-hokimlikni aniqlashda so‘zlarning joylashish o‘rni ham katta rol o‘ynaydi. O‘zbek tilida asosan tobe so‘z hokim so‘zdan oldin keladi. Ba’zan, she’riyatda uslub talabi, qofiya mosligi va boshqa sabablarga ko‘ra ularning o‘rni almashishi mumkin. Masalan, *Gulla, yashna, Vatanim(hokim) mening(tobe)!*

Tobe (nopredikativ) aloqaning ko‘rinishlari

Tobe (nopredikativ) aloqali birikmalardagi komponentlar o‘zaro turli vositalar (grammatik shakl, yordamchi so‘z, tartib, intonatsiya) orqali sintaktik munosabatga kirishadi. Shunga ko‘ra tobe sintaktik aloqalar xarakteriga ko‘ra uch xil usul bilan aloqalanadi, ya’ni uc xil shakl (forma)da bo‘ladi:

1. Boshqaruv;
2. Moslashuv;
3. Bitishuv.

1. Boshqaruv. Hokim so‘zning talabiga ko‘ra tobe so‘z ma’lum bir grammatik shakl (forma)ni olib, unga ergashib kelsa boshqaruv deyiladi. Shunga ko‘ra hokim so‘z tobe komponentni qanday formada kelishini belgilab beradi. Masalan, *kitobni o‘qimoq, o‘tda toblanmoq, qishloqdan kelmoq, ukasi uchun olmoq, ukamga olmoq* birikmalarida o‘qimoq, toblanmoq, kelmoq, olmoq so‘zlari (hokim)ning talabiga ko‘ra *kitob, o‘t, qishloq, ukam* so‘zlari tegishli kelishik qo‘sishimchalari va ko‘makchilar orqali ifodalangan. Shu sababli ham boshqaruv qaysi grammatik formani olib kelganiga qarab **kelishikli va ko‘makchili** konstruksiya (qurilma)larga bo‘linadi.

Boshqaruvda hokim-tobe so‘zlar o‘rtasidagi grammatik aloqa quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

a) Tobe so‘zga kelishik affikslarini qo‘sishish orqali - sintetik usul (bosh va qaratqich kelishigi affikslari bundan mustasno). Masalan, *xatni o‘qimoq, matabga bormoq, kitobdan o‘qimoq* kabilar.

b) Tobe so‘zdan keyin yordamchi so‘z keltirish orqali – analitik usul. Masalan, *ukasi uchun olmoq, akasi bilan kelmoq, telefon orqali so‘zlashmoq* kabilar.

c) Tobe so‘zdan keyin kelishik affiksi va yordamchi so‘zlarni keltirish orqali - sintetik-analitik (kombinatsion) usul. Masalan, *uyga tomon yurmoq, yozga dovur kelmoq, anchadan beri kutmoq, anchadan buyon kutmoq* va boshqalar.

Lekin boshqaruvli aloqa usulida kombinatsion usulda uchraydigan birliklar keng qo‘llanilmaydi.

2. Moslashuv. Tobe so‘zning o‘z shakli (formasi)ni hokim so‘zning shakli (formasi)ga moslashishi, muvofiqlashtirish moslashuv deyiladi. Bunda qaratqich (tobe) va qaralmish (hokim) munosabati katta rol o‘ynaydi. Ushbu aloqalanish usulida tobe-hokim so‘zlarning shaxsda moslashuvi mutlaq bo‘lib, sonda moslashuvi qat’iy emas. Masalan, *mening kitobim* (birlik-birlik), *studentlarning kitoblari* (ko‘plik-ko‘plik) *studentlarning kitobi* (ko‘plik-birlik) kabi ham ifodalanishi mumkin.

Moslashuvli birikmalarda tobe komponent qaratqich kelishigi affiksini (**-ning**) hokim komponent esa egalik affikslari (**-im, -ing, -i, -si, -imiz, -ingiz, -lar(i)**)ni olib keladi. Bunday birikmalardan biror harakat, holat, predmet va belgining kimga yoki nimaga qarashli ekanligi anglashiladi. Masalan, *mening kitobim, sening kitobing, uning kitobi, bizning kitobimiz, sizning kitobingiz, ularning kitoblari* kabi.

Ba'zi o'rirlarda tobe komponent qaratqich kelishigi affiksini olmasdan, ya'ni belgisiz formada ham qo'llanishi mumkin. Bunda harakat, belgi yoki predmetning umumiylar qarashliligi, umumiylar xosligini ifodalaydi. Masalan, *talabalar uyi*, *yoshlar ijodi*, *bolalar bog'chasi*, *zavod qurilishi*, *qo'shiq kuyylanishi*, *xujalik yeri* kabi.

3. Bitishuv. So'zlarning ushbu birikuv usulida hokim va tobe elementlar so'z tartibi va intonatsiya orqali aloqalanib, hech qanday grammatik formalar (na affikslar, na yordamchi so'zlar) ga zarurat ham tug'ilmaydi. Masalan, *sim karovat*, *tez gapirmoq*, *harakat qilmoq*, *o'qigan bola*, *tiniq suv*, *aqli bola* kabi. Ushbu usuldagi aloqalanishda sifat va ba'zan sifatdosh bilan ifodalangan tobe so'zlarning o'rni ot bilan ifodalangan hokim so'z bilan almashtirib qo'llanilsa, predikativ aloqa (ega va kesim)ni yuzaga keltirib, gapga aylanish holati kuzatiladi. Masalan, *suv tiniq*, *bola aqli*, *bola o'qigan* kabi.

So'zlarning o'zaro sintaktik aloqaga kirishish yo'llari

Gap tarkibidagi bo'laklar va so'z birikmalari bir-birlari bilan ma'lum grammatik vositalar orqali sintaktik aloqaga kirishadi. So'zlar orasidagi bunday sintaktik munosabat affikslar, yordamchi so'zlar, so'z tartibi, intonatsiya orqali amalga oshadi.

Affikslar orqali aloqalanish. O'zbek tilida so'zlarni o'zaro bog'lashda, ya'ni sintaktik munosabatning reallashuvida so'zlarni sintaktik shaklini hosil qiluvchi affikslar: turlovchi (kelishik, egalik) va tuslovchi (shaxs va son) asosan katta rol o'ynaydi. Masalan, *Mening Vatanim* birikmasida ikki xil affiks (egalik va kelishik) *Vatanimni sevaman* birikmasida esa so'zlarning sintaktik shaklini hosil qiluvchi affikslarning har uchala turi (kelishik, egalik va shaxs-son) ishlataligani. Affikslar orqali sintaktik munosabat ifodalash eng aktiv vositalardan biri hisoblanadi.

Yordamchi so'zlar orqali ifodalananish. Yordamchi so'zlar (ko'makchi, bog'lovchi va bog'lamalar) gapda mustaqil so'zlar bilan birga qo'llanib, ularni sintaktik aloqaga kirishishiga yordam beradi.

Ko'makchilar: ot va otlashgan so'zlar bilan birikib, uning fe'lga bo'lgan munosabatini bildiradi. Masalan, *xalq uchun xizmat qilmoq*, *vatan uchun yashamoq*, *mashina bilan bormoq*, *sen tufayli erishmoq*, *zavq bilan ishlarimoq* kabi.

Bog'lovchilar: istalgan mustaqil so'zlarni o'zaro tenglanish munosabati bilan aloqalantiradi. Masalan, *yigit va qiz*, *oq bilan qora*, *men hamda sen*, kabilar.

Bog'lamalar: kesim bilan birga qo'llanilib, uni ega bilan tutashtiradi va shaxs-son, zamon ma'nolarini ifodalaydi. Demak, ular predikativ qo'shilmalar tarkibi bo'lib, gap hosil qiladi. Masalan, *Biz borgan edik*, *hech kim yo'q*. *Men o'qishim kerak*. *Fikrim shundan iborat*.

So'z tartibi orqali ifodalananishi. O'zbek tilida so'z tartibini o'zgartirish orqali ham sintaktik munosabat ifodalananadi. Bunday holatda so'zlar orasida maxsus

grammatik ko'rsatgichlar bo'lmasligi kerak. Shunday o'rnlarda birikmalar tarkibidagi komponentlarning o'mini almashtirish mazmun va grammatik holatga ta'sir qiladi hamda yangi mazmun anglatuvchi konstruksiya vujudga keladi. Demak bu holat ko'pincha bitishuvli birikmalarda sodir bo'ladi. Masalan, *A'lochi Dilbar* (birikma), *Dilbar-a'lochi* (gap); *yaxshi bola* (birikma), *Bola - yaxshi* (gap). Bu holat ba'zi morfologik vositalarsiz tuzilgan gaplarda ham uchraydi. Masalan,

Chiroli qiz kuylaydi - Yangi maktab qurildi.

Qiz chiroli kuylaydi - Maktab yangi qurildi.

Bu gaplarda *chiroli* va *yangi* so'zлari yuqoridagi ikki gapda aniqlovchi, pastdagi ikki gapda esa hol vazifasida kelmoqda.

Intonatsiya orqali ifodalanishi. O'zbek tilida intonatsiya ham sintaktik munosabatlarni ifodalashda katta rol o'ynaydi. Kishi ovozida sodir bo'ladigan pasayish, ko'tarilish, uzilish, to'xtash, so'nish va shuningdek pauza, ritmika, urg'u, melodika kabi holatlar ham nutqning mazmuniga ta'sir ko'rsatadi. Masalan,

Siz //axmoq odam emassiz (aqlisiz)

Siz axmoq, // odam emassiz (axmoqsiz)

Katta // mevali daraxt (katta daraxt)

Katta mevali // daraxt (mevasi katta)

Sevmasam, // sizni er yutsin (sizni yutsin)

Sevmasam sizni, // er yutsin (meni yutsin) kabi

Bu holat nafaqat o'zbek tilida balki rus tilida ham mavjud.

Стрилять, // нельзя оставить.

Стрилять нельзя // оставить.

Tilshunoslikning sintaksis qismi uning boshqa sohalari -fonetika, leksikologiya va morfologiya bilan teng huquqli bo'lib, ular bilan yaqin aloqadadir.

Ayniqsa, sintaksis morfologiya bilan aloqadordir. Bu holatni biz turli turkumga oid so'zlar gap bo'lagi vazifasida kelishi, turlovchi, tuslovchi qo'shimchalarning sintaktik munosabat ifodalashdagi xizmatlarida ko'rishimiz mumkin. Sintaksisning fonetika bilan aloqasi intonatsiya va urg'uda ko'rindi. Chunki bu ikki termin sintaktik kategoriya sifatida ham o'rganiladi.

Sintaksis leksikologiya bilan ham uzviy bog'liqdir. Bu narsa ma'lum bir so'z nutq tarkibida, ya'ni kontekstda eng nozik ottenkalarigacha namoyon bo'ladi. Masalan, *ter* so'zi gapda turli funksiyada keladi. *Paxta tersang*, *toza ter* (harakat ma'nosida). *Ter to'kib ishlar* (holat ma'nosida).

O'z-o'zidan ko'rindiki, tilshunoslikning bu sohalari bir-birisiz yashay olmaydi. Tilning sistemaliligi ham ana shundadir.

Shuningdek, so‘z tartibi va punktuatsiya hodisalari ham sintaksisiga tegishli bo‘lib, uning tekshirish ob’ektlaridan biri hisoblanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sintaksis nimani o‘rgatadi?
2. Sintaktik birliklarning turlarini aytинг?
3. Sintaktik aloqa (munosabat) deganda nimani tushunasiz?
4. Teng va tobe sintaktik aloqalarni izohlang.
5. O‘zbek tilida sintaktik aloqa qanday yo‘llar orqali ifodalanadi?
6. Sintaksis tilshunoslikning qaysi bo‘limlari bilan yaqin aloqada?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Sintaksis-qurish, tuzish ma’nolarini anglatadi.
2. Sintaktik aloqa-so‘zlarning ma’lum grammatik-logik vositalar orqali bog‘lanishi.
3. Teng aloqa-so‘zlarning o‘zaro tenglik munosabatida bog‘lanishi.
4. Tobe aloqa - so‘zlarning o‘zaro tobelanish munosabatida bog‘lanishi.

So‘z birikmasi haqida ma’lumot.

REJA

1. So‘z birikmasi haqida tushuncha: predikativ va noprédikativ birikmalar.
2. So‘z birikmasi va sintagma.
3. So‘z birikmasi va so‘z.
4. So‘z birikmasi va qo‘shma so‘z.
5. So‘z birikmasi va gap.
6. So‘z birikmalarining tasnifi.

MATN

So‘z birikmasi

So‘zlarning ma’lum grammatik va mantiqiy qoidalar asosida birikishidan vujudga keladigan sintaktik birliklar so‘z birikmalari hisoblanadi. So‘z birikmasi hosil bo‘lish uchun ham ma’no, ham grammatik jihatdan uyg‘unlik bo‘lishi lozim.

Shunday ekan so‘z birikmasi hosil qilish uchun kamida ikkita mustaqil ma’noli so‘z o‘zaro ma’lum qoidalar orqali birikkan bo‘lishi kerak.

Demak, ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir murakkab tushunchani anglatadigan nominativ (atash) xarakterdagи ochiq konstruksiya (qurilma)lar so‘z birikmasi deyiladi.

Nominativ xarakterda bo‘lish so‘z birikmalarini gapdan farqlaydi. Chunki gaplar ham mustaqil so‘zlarning o‘zaro munosabatidan tashkil topadi. Lekin gaplar

predikativ xarakterdagi ochiq konstruksiyalardan iborat bo‘lib, kommunikativ funksiyani ifodalaydi. Kommunikativ funksiya (fikr, hukm, predikatsiya, shaxs, zamon kategoriyalari) nisbiy tugallangan fikr anglatib, tugallangan intonatsiyaga ega bo‘ladi va kishilar o‘rtasida o‘zaro aloqa munosabatlarini shakllantiradi. Shunday ekan, so‘z birikmasi va gapni, ularning ichki aloqalarini bir-biridan farqlash lozim.

Gaplar so‘z birikmalaridan tashkil topadi. Shunday ekan, gap uchun asosiy material baza so‘z birikmalari hisoblanadi. Lekin gapni so‘z birikmalari yig‘indisidan iborat deb hisoblamaslik lozim. Shu sababli gap va so‘z birikmalari alohida (so‘z birikmalari gapdan tashqarida) o‘rganiladi. So‘z birikmalari va gapning farqi so‘z-gap, nominativ, vokativ, infinitiv gap turlarida yaqqol seziladi. Chunki bu tipdagи gaplar so‘z birikmalariga ajralmaydi. Ular yakka so‘z shaklida namoyon bo‘ladi.

So‘z birikmasi bilan so‘zning o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari mavjud. Ular quyidagilar:

- so‘z ham, so‘z birikmasi ham gap ichida yashaydi;
- so‘zda (grammatik kategorialar va tugal intonatsiyaga ega bo‘lma ganda) ham, so‘z birikmasida ham predikativlik xususiyati mavjud emas;
- so‘z birikmalari ham so‘zlar kabi egalik va kelishik qo‘shimchalarini qabul qilish xususiyatini saqlaydi. Masalan, *kitobim*, *kitobing*, *kitobi*; *mening kitobim*, *sening kitobing*, *uning kitobi* kabi;
- so‘z birikmalari ham gap tarkibida so‘z kabi undalma, ajratilgan bo‘lak, kirish bo‘lak vazifasida kela oladi.

Bu kabi holatlar o‘xshash tomonlari sanalsa, so‘z birikmasi va so‘zlar o‘zaro farqlanish xususiyatiga ham ega:

- so‘zlar doimo bitta tushuncha bilan bog‘langan holda tilda doim tayyor holatda bo‘ladi. So‘z birikmasi bunday xususiyatga ega emas ular hamisha ma’lum bir tushuncha bilan bog‘liq bo‘lmaydi va tilda tayyor holda uchramaydi. Balki so‘z birikmasi nutq jarayonida tashkil topadi;
- so‘zlar ma’lum tizimdagи mustaqil va nisbiy mustahkam tovushlar yig‘indisidan, ayrim hollarda yakka bir tovushdan tashkil topadi. So‘z birikmalari esa birdan ortiq mustaqil so‘zlarning birikuvidan tashkil topadi;
- so‘z birikmalarida so‘zlardagi kabi semantik butunlik yo‘q. So‘zlar ikki xil ma’no ifodalaydi: leksik ma’no va grammatik ma’no. So‘z birikmalari esa faqat bir ma’no - leksik ma’no ifodalaydi, grammatik ma’no ifodalamaydi;
- so‘z morfologik elementlardan (o‘zak va affikslar) tashkil topsa, so‘z birikmalari morfologik elementlardan emas, balki sintaktik elementlardan tashkil topadi;
- so‘z abstract (mavhum) ma’noli bo‘lib, birikmaga kirishgach, uning ma’nosini konkret (aniq) tomon siljiydi;

- so‘z tarixiy kategoriya bo‘lib, til birligi hisoblanadi, so‘z birikmasi nutq jarayonida tashkil topib, nutq birligi hisoblanadi.

So‘z birikmalarini va qo‘shma so‘zlar ham o‘zaro farqlanadi. Qo‘shma so‘zlar tilda sodda so‘zlar kabi vazifalarni bajaradi. Asli qo‘shma so‘zlarning o‘zi tarixiy nuqtai nazardan so‘z birikmalaridan yoki so‘z birikmalarini modeli asosida paydo bo‘lgan. Masalan, *oqsoqol, qo‘lqop, belbog, gazquvur* kabi.

So‘z birikmalarini va qo‘shma so‘zlar quyidagi belgilariga ko‘ra farqlanadi:

- so‘z birikmalarini qismlari o‘rtasida barcha shakliy chegara saqlanadi, qo‘shma so‘zlarda bu chegara yo‘qolib ketgan;

- qo‘shma so‘zlar bir butunicha leksik ma’no ifodalasa, so‘z birikmalarini bir butun ma’no ifodallasalar ham, lekin uning qismlari o‘zlarining leksik ma’nolarini saqlab qoladi;

- so‘z birikmalarini ham, qo‘shma so‘z ham tilda nominativ xarakterda bo‘ladi, lekin qo‘shma so‘z bir sodda tushunchani reallashtirsa, so‘z birikmasi tarkibiga kiruvchi har bir so‘z bir tushunchani, ya’ni bo‘lingan tushunchalarni ifodalaydi;

- qo‘shma so‘zlar butunligicha bir mantiqiy urg‘uga ega bo‘lsa, so‘z birikmasi komponentlarining har biri alohida urg‘uga ega;

- qo‘shma so‘z qismlarining o‘rni qat’iy bo‘lib ularning o‘rnini almashtirish, boshqa so‘z qo‘shish mumkin emas, ammo so‘z birikmalarini erkin sintaktik qo‘shilmalar bo‘lib, ularning o‘rnini hohlagancha o‘zgartirish, ular orasiga boshqa so‘zlarni qo‘shish mumkin;

- qo‘shma so‘zlar bir tushunchani ifodalovchi leksik birligi bo‘lganligi uchun gapda bitta bo‘lak vazifasida kelsa, so‘z birikmalarining har bir qismi gapda turli bo‘lak vazifasida keladi;

- qo‘shma so‘zlar so‘z kabi leksik va grammatik ma’noga ega, so‘z birikmalarini esa faqat leksik ma’noga ega;

- qo‘shma so‘zlarning qismlari o‘rtasida grammatik munosabat yo‘q, ular o‘z leksik-semantik xususiyatlarini yo‘qotib, bir bosh urg‘u olib, gapda bir sintaktik vazifani bajaradi. So‘z birikmasi qismlari o‘rtasida esa grammatik munosabat mavjud, ular leksik-semantik mustaqilligini saqlab, o‘z urg‘usiga ega bo‘ladi va gapda boshqa boshqa bo‘lak vazifasida keladi.

Shuningdek, so‘z birikmasi va frazeologizmlar o‘rtasida ham farq bor. Chunki so‘zlarning har qanday noplrikativ qo‘shilmasi so‘z birikmasini hosil qilmaydi. So‘zlarning bog‘lanishi erkin bo‘lishi, barqaror bo‘lishi, ya’ni nutqda tayyor holda bo‘lishi ham mumkin. Shunga ko‘ra so‘zlarning bog‘lanishi ham erkin va turg‘un bo‘ladi.

Erkin bog‘lanish so‘z birikmasini, turg‘un bog‘lanish esa frazeologizmlarni hosil qiladi. Frazeologizmlar tilda tayyor holda mavjud bo‘lib yaxlit holda qo‘llaniladi va u til birligi sifatida faoliyat ko‘rsatadi, so‘z birikmasi esa nutq

jarayonida hosil bo‘lganligi sababli nutq birligi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda turg‘un birikmalar frazeologiyaning, erkin birikmalar-so‘z birikmalari esa sintaksisning tekshirish ob’ekti hisoblanadi.

Bulardan tashqari so‘z birikmalari va sintagmalar o‘rtasida ham ma’lum o‘zgaliklar mavjud.

Gapda struktura va mazmun jihatidan bir butun bo‘lgan qismlar talaffuzda qisqa pauza bilan ajralib turadi. Shunday pauza orqali ajralib turadigan qismlar sintagma deyiladi.

Bu nutqiy parcha intonatsion jihatdan yaxlit ikki va undan ortiq so‘zdan, grammatik-semantik shakllangan bir so‘zdan iborat bo‘ladi.

Sodda yoyiq gaplarda sintagma gapning bir qismini tashkil qiladi. Bir so‘zdan tashkil topgan gaplar esa sintagmaga teng keladi. Masalan,

Tashqaridan uzoqda shaldirab oqayotgan soyning ovozi bemalol kelib turibdi.

-*Kasbingiz?*

-*Dehqonchilik* (S.Ahmad)

Birinchi gapda uchta sintagma bo‘lib, uning bittasi, bir so‘zdan ikkitasi esa so‘z birikmasidan tashkil topgan. Keyingi ikki gap bir so‘zdan tashkil topgan bo‘lib, ular sintagmaga teng.

So‘z birikmasi va sintagma quyidagicha farqlanadi:

- sintagma nutq jarayoni bilan bog‘lig‘ bo‘ladi, so‘z birikmasida bunday xususiyat mavjud emas;

- sintagma bir so‘zdan yoki ko‘makchili birikmalardan tashkil topishi mumkin, so‘z birikmasi esa, albatta, ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zdan iborat bo‘ladi;

- sintagmani tashkil qilgan qismlar yonma-yon turishi shart, so‘z birikmasida esa doim bu qat’iy emas;

- so‘z birikmasida doimiy ish ko‘rvuchi grammatik qolip mavjud, sintagmada bunday qolip bo‘lmaydi;

- sintagma nutq intonatsion mazmunining bo‘linishi jihatidan undan farq qiladi.

So‘z birikmalar o‘z navbatida gaplardan ham farqlanadi. Chunki har qanday so‘z birikmasi (erkin birikma) ham gap ichida yashaydi. Shu jihatdan so‘z birikmasi va gap quyidagicha farqlanadi:

- so‘z birikmalari nutq birligi sanalsada, tugal mazmun kasb etmaydi, gaplar esa nisbiy jihatdan bo‘lsa ham tugal mazmunni ifodalash uchun xizmat qiladi;

- so‘z birikmalari kamida ikki mustaqil ma’noli so‘zlardan tashkil topsa, gaplar uchun bu hol doimiy emas, chunki gaplar nominativ, vokativ va so‘z gaplardan ham tashkil topishi mumkin;

- so‘z birikmalari ikkinchi darajali bo‘lak va bosh bo‘lak aloqasi asosiga qurilsa, gap doim predikativlik (bosh bo‘laklar-ega va kesim) aloqasi asosiga quriladi;

- so‘z birikmasi uchun asosiy material baza so‘z sanalsa, gap uchun asosiy material baza so‘z va so‘z birikmalari sanaladi;

- so‘z birikmalaridagi aloqada mutlaq hokim va mutlaq tobe munosabati mavjud bo‘lsa, gaplar (predikativ aloqa)da mutlaq hokim va mutlaq tobe munosabati mavjud sanalmaydi, chunki ularning biri ikkinchisini izohlab to‘ldirib turadi.

So‘z birikmalarining bitishuvli aloqa usulida so‘zlarning o‘rni almashdirib qo‘llansa, ega kesimlik munosabani, ya’ni gap yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *go‘zal tabiat, tiniq suv*-so‘z birikmasi; *Tabiat go‘zal, Suv tiniq-* gap kabi.

So‘z birikmalarini ifodalashda doim hokim so‘zning ifodalanishiga jiddiy e’tibor qaratish lozim, chunki hokim so‘zni (hokim so‘z fe’l va uning vazifadosh shakllari bilan ifodalanganda) doim grammatik jihatdan yakunlangan shakl bilan emas, balki fe’lning lug‘aviy shakli bilan hosil qilish va ajratish lozim, aks holda gap yuzaga kelishi mumkin. Masalan, *kitobni o‘qimoq-* so‘z birikmasi, *kitobni o‘qidi-* gap kabi

So‘z birikmalarining klassifikatsiyasi.

So‘z birikmalari adabiyotlarda turli terminlar orqali klassifikatsiya (tasnif) qilinganiga qaramay, ularning asosiy mohiyati ochib berilgan.

So‘z birikmalari, avvalo, uning tarkibidagi komponentlarning bog‘lanish darajasiga ko‘ra ikkiga bo‘linadi:

1. Turg‘un (iboralar) birikmalar.
2. Erkin birikmalar.

1. Ma’lumki tilimizda bo‘laklarga ajralmaydigan, bir butun holda qo‘llanadigan, ya’ni bir qolipga tushib qolgan so‘z birikmali ham mavjud. Bu tipdagи birikmalar yoki iboralar tilda tayyor holda bo‘lib, gap tarkibida ham xuddi shu holatda, ya’ni hech qanday o‘zgarishsiz qo‘llanadi. Turg‘un iboralar nutqda so‘z kabi tanlab ishlatiladi. Bunday birliklar gapda bir xil so‘roqqa javob bo‘lib, bir xil vazifani bajaradi. Masalan, *Terimchilar xo‘roz qichqirmsadan ishga tushishdi*. Turg‘un birikmalar til materiali (leksikaga oid) hisoblansa, erkin birikmalar nutq materialidir.

2. Erkin birikmalar esa ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlarning nutq jarayonida o‘zaro qo‘shilishidan hosil bo‘ladi. Nutqdan tashqarida ular birikma holida emas, balki alohida so‘z sifatida uchraydi va alohida ma’noni ifodalaydi. Masalan, *qora qog‘oz, bo‘yi uzun, suvdan kechmoq, qiziqarli kitob* va boshqalar.

Misollardan ko‘rinib turibdiki, erkin birikma tarkibidagi so‘zlar birikma tarkibida ham, birikmadan tashqarida ham mustaqil leksik ma’noni anglata oladi. Shuningdek, erkin birikma tarkibidagi hokim va tobe komponentlar ma’lum bir so‘zi o‘rnida boshqa so‘z erkin qo‘llana oladi: *chiroyli bino, chiroyli odam, chiroyli qiz, chiroyli gulzor* va hokozo; *katta auditoriya, chiroyli auditoriya, bezatilgan auditoriya, ixtisoslashtirilgan auditoriya* va hokozo.

So‘z birikmaları sintaktik mazmuniga va tobe so‘zning ifodalanishiga ko‘ra atributivli (aniqlovchili), ob’ektli (to‘ldiruvchili), relyativ (holli) birikmalarga bo‘linadi. Chunki so‘zlar o‘zaro sintaktik munosabatga kirishganda, ular formal bog‘lanib qolmay, biror voqelik va tushunchalar ifodalagan bo‘ladi. Masalan, *chiroyli maktab*, *bizning maktab* (aniqlovchi-aniqlanmish munosabati) kabi. Shunga ko‘ra ular yuqoridagi turlarga bo‘linadi. Bulardan predikativ birikma (qo‘shilma) ega va kesim munosabatini hosil qilib ular so‘z birikmasi emas balki gap hosil qiladi. Shu sababli bunday birikmalar gap sintaksisining tekshirish ob’ektidir. Masalan, *Studentlar bugun imtihon topshirishdi*. Bu gapda bitta predikativ birikma (*studentlar topshirishdi*-ega va kesim) ikkita so‘z birikmasi (*bugun topshirishdi*-relyativ, *imtihon topshirishdi*-ob’ektli), bor.

So‘z birikmaları o‘z navbatida bosh (hokim) so‘zning ifodalanish nuqtai nazaridan ham ikki turli bo‘lishadi: hokim so‘z ot va otlashgan so‘zlar bilan ifodalanib kelsa, otli birikma deyiladi. Masalan, *qizil olma*, *mevalarning yaxshisi*, *o‘quvchilarning ikkalasi*, *kitoblarning hammasi*, *odamlarning ko‘pi* kabi; agar hokim so‘z fe’l va uning vazifa shakllari bian ifodalansa, bunday so‘z birikmasi fe’lli so‘z birikmaları nomi bilan ataladi. Masalan, *mehnatda chiniqqan*, *tez yugurib*, *berilib o‘qimoq* kabilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. So‘z birikmasi deganda nimani tushunasiz?
2. So‘z birikmasi bilan, so‘z, sintagma, qo‘shma so‘zlarning o‘xshash va farqli tomonlarini izohlang
3. So‘z birikmasi va gapning farqlari nimada?
4. So‘z birikmasining qanday turlari mavjud?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. So‘z birikmasi-ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir murakkab tushuncha anglatadigan nominativ xarakterdagi ochiq qurilmalar.
2. Sintagma-nutq tarkibidagi intonatsiya bilan ajratiladigan parcha.
3. Erkin birikma-ikki yoki undan ortiq mustaqil ma’noli so‘zlarning nutq jarayonida o‘zaro qo‘shilishidan tashkil topadigan sintaktik birlik.

Gap sintaksisining tekshirish predmeti

REJA

1. Gap. Hukm. Til va tafakkur.

2. Gap haqida umumiy tushuncha.
3. Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari: sodda, murakkab, qo‘shma, period, matn sintaksisi, o‘zga gap sintaksisi.
4. Gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari: darak, so‘roq, buyruq gaplar.
5. Gaplarning emotsionalikka ko‘ra bo‘linishi: emotsional gaplar (undov), noemotsional gaplar.
6. Gapning voqealikka munosabati jihatidan bo‘linishi: tasdiq (bo‘lishli) inkor (bo‘lishsiz) gaplar.
7. Gaplarning ifoda asosiga (bosh bo‘laklar ishtirokiga) ko‘ra bo‘linishi: bir sostavli (bir bosh bo‘lakli), ikki sostavli (ikki bosh bo‘lakli) gaplar.
8. Gapning kommunikativ vaziyat jihatidan (gap turkibidagi bo‘laklarning qo‘llanish darajasiga ko‘ra) turlari: to‘liq va to‘liqsiz gaplar.
9. Gapning bo‘laklari (muchallari) ishtirokiga ko‘ra turlari: sodda yig‘iq va sodda yoyiq gaplar.
10. Gapning bo‘laklari (muchallari) xarakteri (bo‘laklarning bog‘lanish darajasiga ko‘ra) jihatidan bo‘linishlari: bo‘laklarga ajraladigan va bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar.

MATN

Gap. Hukm. Til va tafakkur

So‘z va so‘z birikmalari grammatik qonun va qoidalar asosida gapga birlashadi. Grammatika gap tuzish uchun ma’lum qoidalar beradi. Jamiyat a’zolarining aloqa vositasi bo‘lgan til gap orqali ro‘yobga chiqadi. Gap umumlashgan fikrni ifodalaydi. Demak, tilda fikr ifodalash, bayon qilish, anglash va boshqalar gap orqali amalga oshiriladi. Shunday ekan, til bilan tafakkur bir-biri bilan uzviy bog‘liqidir.

Bizga ma’lumki, tafakkur yuksak darajada rivojlangan materiya, ya’ni inson miyasining mahsulidir. Chunki inson turli sezgi organlari orqali moddiy borliqni anglaydi va uni umumlashtirib beradi. Moddiy borliqdagi barcha narsalar tafakkurda hukm, xulosa tushunchalar orqali umumlashtiriladi. Tafakkurning bu barcha formalari til orqali ro‘yobga chiqadi. Til fikrning bevosita voqe bo‘lishidir. Amaliy voqeiy ongdir. Til esa tafakkur formalarini gap orqali ifodalaydi. Demak, gap fikrni til materiallari orqali reallashtiradi.

Xulosa qilib aytganda, tafakkur voqealikni o‘zida aks ettiradi, til esa tafakkurni ifodalash formasidir. Til bilan tafakkurning uzviy bog‘liqligi tafakkurning til orqali namoyon bo‘lishi, til bazasida vujudga kelishi, uning tilsiz yashamasligidadir. Tilsiz-tafakkur bo‘lmaganidek, tafakkursiz tilning ham bo‘lishi mumkin emas.


Til va tafakkurni qo‘shib yuborish ham mumkin emas. Chunki ularning o‘ziga xos alohida xususiyatlari va farqlari ham borki, ular quyidagicha:

1. Fikrlash barcha millat va xalq uchun bir xil, ammo fikr ifodalash yo'llari esa turli tilda turlichadir. Har bir tilning o'z grammatik qonuniyatlari mavjud.
2. Bir fikrning o'zi til taraqqiyotining turli davrlarida, hatto bir davr ichida ham turli struktura va formalarda (sodda va qo'shma) ifodalanishi mumkin.
3. Tafakkur tushuncha, hukm va xulosalar bilan ish ko'radi. Tilning materiali esa so'z, so'z birikmalari va gapdir.
4. Tafakkurdagi abstraksiyalash bilan tildagi abstraksiyalash o'rtasida hamma vaqt moslik bo'lavermaydi. Masalan, *bola va bolalar* so'zlaridagi birlik va ko'plik tushunchalarini bir-biriga qarama-qarshi qo'yish til va tafakkurda mos keladi. Ammo ruscha *stul va ruchka* so'zlarini mujskoy va jenskoy rodlariga ajratish logik jihatdan fizologik - jins (rod) tushunchasi bilan hech qanday aloqasi yo'q. (*Ruchkaning erkagi va urg'ochisi bo'lmagani kabi*).


Gap va uning xarakterli belgilari

Gap haqida xilma-xil ta'riflar mavjud. Gap asosan sintaksisning tekshirish ob'ektidir. Gaplarni o'rganish va o'rgatish ikki yo'nalishda olib boriladi: a) sodda gap sintaksisi; b) qo'shma gap sintaksisi.

O'zbek tilshunosligida 50 yillardan boshlab sodda gap sintaksisi ikki qismga ajralib o'rganilmoqda, ya'ni



Yuqorida aytganimizdek, gapning ta'riflari juda ko'p. Turli davrlarda, hozir ham tilshunoslar unga turlicha yondoshmoqdalar:



So'z birikmalari hech qachon fikr anglatmaydi, bundan ko'rindiki, gap bo'la olmaydi. Agar so'z birikmalari alohida ohang bilan talaffuz etilsa, ma'lum bir fikr anglatishga xizmat qilishi mumkin.

Masalan, Samalyot-haybatli.

Hamma-saylovga.
Texnika-ishlab chiqarishga.

gap }

Yuqoridagi birliklar ma'lum intonatsiya va grammatik qurilish natijasida so'z birikmasidan gapga aylandi. Endi u nominativ vazifadan kommunikativ vazifani bajarishga o'tdi.




"Fikrni bayon qilish, fikrni anglash (yoki tushunish) ijtimoiy aloqa, fikrlashuv" (kommunikatsiya)

Demak shu formulaga javob bo'luvchi sintaktik birliklar gap hisoblanib, ular turli ko'rinishda: a) so'z formasida; b) so'z birikmasi formasida; c) gap formasida (ko'p so'zli birikma) bo'lishi mumkin.

So'z formasida - Ishladim. Keldingmi?

So'z birikmasi formasida - Biz talabamiz.




So'zlovchi gapni ifoda qildi. Tinglovchi ham yuqoridagi uch so'zli fikr anglatuvchi konstruksiyani anglatdi. Bu kommunikatsiyadir, ya'ni fikr almashishdir.

Ongdag'i gap strukturasi gapda ham o'z ifodasini topadi. Ongdag'i barcha fikrlarni gapda ifodalash mumkin emas, albatta.

Yuqoridagi gapda ikkita mazmun mavjud:

a) ob'ektiv-fazo o'zlashgani haqida fikr.

b) sub'ektiv - xabar, darak.



Sub'ektiv mazmun (stilistik ko'rinalari bilan) ifodalash usullari hali to'liq o'rganilmagan. Bunda asosan vazifa shaklidan kelib chiqish kerak.

Tilshunoslikda fikr gap orqali ifodalanadi. Gap ma'lum fikrni ifodalab, nutqning bir qismini tashkil qiladi.

Fikr tilshunoslikda turli konstruksiyalar orqali ifodalanadi, ya'ni: a)sodda yoki qo'shma gaplar orqali; b)darak, so'roq, undov va buyruq gaplar orqali; c)bir yoki ikki sostavli, to'liq va to'liqsiz gaplar orqali ifodalanishi mumkin. Bu holat esa fikrning

xarakteriga, uning ifoda maqsadiga bog‘liqdir. Lekin gaplar qanday formada bo‘lmisin unda so‘zlovchining biror maqsadi ifodalangan bo‘ladi.

Gapning asosiy belgilari-unda nisbiy fikr tugalligi va predikativlikning mavjud bo‘lishi, grammatic jihatdan ma’lum, qonun va qoidalar asosida shakllanishi, o‘ziga xos intonatsiyaga ega bo‘lishi hamda ma’lum bir nuqtadan ikkinchi bir nuqtagacha bo‘lishi (qo‘shma gaplar bundan mustasno) shart. Shu sababli grammatic jihatidan shakllangan, intonatsiya va mazmun jihatidan nisbiy tugallikka ega bo‘lgan so‘zlar bog‘lanmasi yoki yakka so‘z gap hisoblanadi.


Har bir gapda ma’lum fikr, maqsad ifodalangan bo‘lishi lozim, aks holda uning so‘z birikmasi yoki so‘zdan farqi bo‘lmaydi. Bundan ko‘rinadiki, ma’lum fikr ifodalangan bitta so‘z ham gap bo‘la oladi.

Gapning yana bir asosiy belgilaridan biri predikativlidir. So‘zlovchining moddiy borliqqa, aytilayotgan fikrga bo‘lgan turli munosabati predikativlik hisoblanadi. Predikativlik modallik, zamon, shaxs-son kategoriyalarini o‘z ichiga oladi. Modallik-gap mazmuning borliqqa munosabati (tasdiq, inkor, gumon, shubha, mumkinlik, rozilik yoki norozilik, reallik yoki noreallik kabilar) mayl, zamon, shaxs kategoriyalari orqali ro‘yobga chiqadi. Modallik turli grammatic kategoriyalar (mayl, inkor bog‘lamalar) yoki maxsus so‘zlar (modal so‘zlar yoki holat kategoriyasi) va maxsus intonatsiya orqali ifodalananadi.

Gapning yana bir asosiy belgilaridan biri unda maxsus intonatsiyaning bo‘lishidir. Har qanday gap nisbiy tugallangan intonatsiyaga ega bo‘ladi, ya’ni gapning boshlanishi va tugallanishi uning intonatsiyasidan sezilib turadi. Bu intonatsiya gapni boshqa gaplardan ajratib turadi. Bu yozuvda tinish belgilari orqali ajralib turadi.

Demak, yuqoridagi belgilar mujassamlashsagina gap hosil bo‘lishi mumkin.

Gapning grammatic belgilari quyidagi jadvalda yaqqol aks ettirilgan.



1. Fikriy tugallik (nisbiylik xarakteridagi) Qiyoslang:

a) *Majlis boshlandi.*

b) *Hamma yig‘ildi va majlis boshlandi.*

c) *Hamma yig‘ildi, boshliq keldi va majlis boshlandi.* 2.

Fikr reallik xarakteriga ega bo‘lishi kerak. Ya’ni so‘zlovchi o‘zi ko‘rgan va eshitgan real voqeа-hodisalar haqida fikr yuritadi. Shu sababli ham "Til - reallashgan ongdir. Ongning borliqdagi in’ikosidir". Har bir gapda real fikriy mazmun va his-hayajon mujassamlashgan bo‘ladi.

3. Har bir gapda hukm ifodalangan bo‘lishi lozim:

tasdiq
inkor

- 4. Har bir gapda grammatik, intonatsion va semantik butunlik bo‘lishi kerak. Bundan forma va mazmun birligi (bog‘liqligi) kelib chiqadi.
- 5. Har bir gapda biror maqsad ifodalangan bo‘lishi shart. Aks holda gapni ifodalashning hech qanday keragi bo‘lmaydi. Shu jihatdan ular: *darak, so‘roq va buyruq* gaplarga bo‘linadi.
- 6. Gaplarda muhim belgilardan biri predikativlikdir (tor ma’noda kesimlilik). a) predikatsiya - tor ma’noda kesimlilik. b) keng funksional ma’noda esa - fikrning ob’ektiv borliqqa munosabatlari. (bu grammatik vositalar va modal so‘zlar orqali ifodalanadi)

Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari

Har qanday gap o‘z tuzilishiga ko‘ra, ma’lum bir strukturani hosil qiladi. Masalan, ikki sostavli gaplar asosini bosh bo‘laklar tashkil qiladi. Ega gapda u to‘g‘rida gap borgan, bosh kelishik formasidagi bo‘lakdir. Kesim esa, ega haqidagi hukm, tasdiq va inkordir. Kesim shaklan turlicha bo‘ladi. Kesim funksiyasida so‘z birikmali yoki hatto ayrim frazeologik birikmalar va gaplar ham kelishi mumkin. Masalan, *Shiori-qayda zolim bo‘lsa ur!*

Bir sostavli gaplarda bosh bo‘laklarning o‘ziga xos tomonlari bor. Bu xil gaplarda shaklan ega yoki kesim (ikkisidan biri) mavjud bo‘lsada, ular mazmunan faqat ega kesimnigina ifodalaydi. Masalan, nominativ gaplarda kesimni, shaxssiz gaplarda esa egani topib olish zarurati tug‘iladi. Vaholanki, bu tipdagи gaplarda ega va kesim tushunchasi bir bo‘lakli ifodalanadi, shuning uchun to‘liqsiz gaplarda bo‘lganidek biror ega yoki kesimning yashirilgani sezilmaydi.

Ikkinci darajali bo‘laklar esa fikrni to‘la va mukammal ifodalash uchun xizmat qiladi. Ular faqat bosh bo‘laklarga bog‘lanib, ularni izohlab, to‘ldirib qolmay, bir-birlariga bog‘lanishi, bir-birining ma’nosini aniqlashi, to‘ldirishi mumkin. Birikmali ega va birikmali kesimlarda ikkinchi darajali bo‘lak gapning asosiy strukturasiga kiradi, atarsiz fikr to‘la ifodalanmaydi, gap tuzilmaydi.

O‘zbek tilida gaplar strukturasi, ya’ni tuzilishiga ko‘ra quyidagicha bo‘ladi: sodda gap, murakkab gaplar va qo‘shma gap, murakkab qo‘shma gaplar, matn sintaksi, o‘zga gaplar.

Sodda gap ma’lum fikr, maqsadni ifodalovchi, grammatik va intonatsion tomonidan shakllangan sintaktik birlikdir. Sodda gap tuzilishiga ko‘ra yig‘iq va yoyiq bo‘lishi mumkin, ya’ni bosh bo‘laklardangina tashkil topsa – sodda yig‘iq, bosh bo‘laklar bilan birga ikkinchi darajali bo‘laklar ham ishtirok etsa, sodda yoyiq gap deyiladi. Masalan, *Axmad keldi* (soda yig‘iq gap); *Axmad bugun mashinada keldi* (soda yoyiq gap) kabi.

Qo'shma gaplar turli grammatik, leksik, intonatsion vositalar bilan ikki gap (soda gap)ning birikuvidan tuzilgan gap, (struktura) konstruksiyalardir. Masalan, *Bahor keldi va gullar ochildi* kabi. Qo'shma gaplar bog'lanish vositalari va mazmun ottenkalariga ko'ra uch turga bo'linadi: bog'langan qo'shma gaplar, ergashgan qo'shma gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplar.

Murakkab gap - tarkibida asosiy gap bo'laklaridan tashqari ajratilgan bo'laklari, undalmalari yoki kirish bo'lak va kiritmalari bo'lgan gap konstruksiyalaridir. Bu xil konstruksiyalar sodda gap konstruksiyalaridan mazmun va strukturasiga ko'ra farqlanadi. Ba'zi adabiyotlarda bunday gaplar murakkab sodda gaplar ham deb yuritiladi. (Qarang: Boltaboeva X. O'zbek tilida murakkablashgan sodda gaplar, Toshkent, "Fan", 1969 yil) Murakkab gaplarda murakkab mazmun ham ifodalanadi. Masalan, *Yig'im terimni olganimizdan keyin, bahorgacha ikki yuz yigirma gektar yangi yer ochishimiz kerak*. Bu gapda, birinchidan, yig'im-terimning olinishi, ikkinchidan, yangi yer ochilishi zarurligi ifodalangan. Bundan tashqari bu gapning sifatdoshli, ravishdoshli konstruksiyasi o'z intonatsiyasi va strukturasiga ko'ra, sodda gapning oddiy gap bo'laklaridan farqlanib turadi va ergash gaplarga yaqinlashadi. Shuningdek, ravishdosh, shart fe'li, harakat nomi boshqargan konstruksiyalar ishtirok etgan gaplarda ham yuqoridagi xususiyatlar bor. Undalmali, kirish bo'lak va birikmali gaplar ham murakkab fikrni ifodalashi va strukturalari bilan sodda gaplardan farqlanishi mumkin. Masalan, *Salimni chorrahada, katta svetafor tagida, uchratib qoldim* kabi. Shu sababli ham bunday gaplarni murakkab gaplar sifatida alohida o'rganish mumkin.

Murakkab qo'shma gaplar bog'lanish vositalari, turlariga ko'ra ham, yaxlit butun fikrni anglatishiga qarab ham qo'shma gaplardan farqlanadi. Shuningdek, uning tarkibida ikkidan ortiq sodda gaplar yoki komponentlar mavjud bo'ladi. Masalan, *Kimning bilagida kuchi bo'lsa, kim ishning havasini olsa, o'sha ilg'or bo'ladi* kabi. Bunday qo'shma gaplar komponentlari ergashish, bog'lanish, aralash tipda birikishi mumkin. Shunga ko'ra murakkab qo'shma gaplar bir necha ko'rinishlarga ega bo'ladi.

O'zga gaplar ham o'zining strukturasiga ko'ra yuqoridagi gap turlaridan farqlanadi. Shu sababli o'zga gaplar ham keyingi vaqtida murakkab gapning alohida bir turi sifatida o'rganilmoqda. Bu tip gaplarda ham sodda gap, ham qo'shma gap, ham murakkab qo'shma gap xususiyatlarini uchratish mumkin. O'zga gaplar strukturasi va mazmuniga ko'ra uch turga bo'lib o'rganiladi: ko'chirma gap, o'ziniki bo'lman ko'chirma gap, o'zlashtirma gaplar.

Gapning strukturasi (tuzilishi)ga ko'ra turlari deganda biz yuqoridagilarni tushunishimiz mumkin.

Gapning ifoda mazmuniga ko'ra turlari

Yuqorida aytib o‘tganimizdek har bir gapda, albatta, qandaydir maqsad, niyat, his-xayajon ifodalanishi lozim. Ya’ni so‘zlovchi biror narsa haqida xabar qiladi, uni tasdiqlaydi yoki inkor etadi, yoki o‘ziga noma’lum bo‘lgan hodisa, narsa, voqealar haqida ma’lumot olishni istaydi, yoki gapda o‘zining turli ichki his-tuyg‘ularini (shodlik, iltimos, buyruq, achinish, g‘azablanish, afsuslanish kabi) ifodalashi mumkin. Masalan, *Hozirgi zamon fanining yutuqlari hammani qoyil qoldirmoqda. Bugun navbatchi kim? Ertangi uyga vazifani bajarib qo‘y.*

Yuqorida keltirilgan gaplarning har biri alohida ohang bilan talaffuz etilib, ular o‘ziga xos mazmunga ham egadirlar. Ana shunday xususiyatlariga ko‘ra gaplar quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) darak gaplar; 2) so‘roq gaplar; 3) buyruq gaplar;

Gapning bu turlari strukturasiga ko‘ra yig‘iq, yoyiq yoki sodda va qo‘shma shakkllarda bo‘lishi mumkin.

Darak gaplar

Borliq hodisalar haqida tasdiq yoki inkor yo‘li bilan xabar beruvchi gaplar darak gaplar deyiladi. Masalan, *U qishloq o‘rtasidagi keng maydonda H.Olimjon haykalini yaqqol ko‘rdi. Sayramovning ko‘zlari gulzordan uzilmas edi.*

Darak gaplar gumon, istak ma’nolarini ham ifodalashi mumkin. Masalan, *Bugun ekskursiyaga chiqsak. Otasi erta-indin kelib qolar.*

Darak gaplar alohida intonatsiya bilan aytilib, gapning birinchi qismida ohang ko‘tariladi, ikkinchi qismida esa pasayadi. Bunday gaplar kesimi quyidagi so‘z turkumlari orqali ifodalanadi.

1. Aniqlik fe’li bilan: *Kuz havosi iliq keldi. Kechki gullar ochilib turibdi. Ko‘kda tanho oy kezmoqda.*

2. Otlar bilan: *Inson qo‘li gul. Sen dongdor shiorsan, so‘zing-xalq so‘zi.*

3. Sifat bilan: *Yer, dengizda qudratimiz juda zo‘r. Hayot xuddi jondek shirin, kelajak undan aziz.*

4. Son bilan: *Hammamizning osmon, yer-suvimiz bir, yorug‘ vijdonimiz, his-tuyg‘ularimiz bir.*

5. Olmosh bilan: *Dunyoda eng yaxshi odamlar ana o‘salar. Yuragim-sen, Gulnor!*

6. Ravish bilan. *Bog‘im boru, gulzorimda gulim ko‘p, har yoqda gul, shoxlarida bulbulim ko‘p. Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin.*

7. Harakat nomi bilan: *Maqsadim-o‘qimoq. Insonga hurmat-bu o‘zini tanimoq.*

8. Bor, yo‘q tasdiq va inkor so‘zlari bilan: *Xalqimizning chuqur idroki bor, g‘ururi, an’anasi bor. O‘lanlarda, laparlarda jaranglagan go‘zal tili bor. Bu - Sharqning yulduzi O‘zbekistonadir, o‘rta asrlarning Osiyosi yo‘q.*

9. Tinch ohang bilan aytilib, darak-xabar ma'nosini ifodalagan nominativ va to'liqsiz gaplar ham darak gap sanaladi. Masalan, *Kuz...Achchiq shamol. Oyoqlarda bejirim etik.* (O). 1986 yil, yanvar.

Darak gaplar nutqda gapning boshqa turlariga qaraganda ko'p qo'llanadi. Hatto butun-butun abzas, tekstlar faqat darak gaplardan iborat bo'lishi mumkin.

Darak gaplar nutqda turli xil mazmun ifodalaydi va har bir mazmun turiga qarab o'ziga xos intonatsiyaga ega bo'ladi.

1. Darak-xabar mazmuni: *Odam ko'p. Qaerdadir chaqaloq ingramoqda.*

Bunday gaplarda intonatsiya sust bo'lib oxiriga tomon yanada pasayib boradi.

2. Orzu-umid: *Qora kunlar ham o'tar, yorug'likka ham chiqarmiz.*

3. Ishonch, ta'kid, g'urur: *Nomingga munosib, xuddi quyoshdek yashaysan, tong mamlakati!*

4. Maslahat, tashviq: *Menga qolsa, maslahat shu: mana bahor, siz qirga chiqing, ko'kragingizga toza shamol tegadi.*

5. Sevinch: *U keldi, ota!*

6. Taajjub: *Tavba, bunday ustamonni ko'rghan emasman.*

7. Guman: *Savranov kelib, uyiga kirdi shekilli.*

8. Achinish: *Juda ozib ketding, bolam! G'am ustiga g'am ko'rdim, peshonam qursin, boyvachcha aka* (O).

9. Tashvish: *Axir bunday bo'laversa, biror falokatga yo'liqish hech gap emas.*

10. G'azab, norozilik, gina: *Ularning bari yolg'onchi, bari yurtimizni zaharlaydi, bari iflos! Orasi yaqin bo'lishiga qaramay, bu g'arib opangizdan xabar olmaysiz* (O).

Darak gaplar odatda, xabar ma'nosini ifodalaganda, o'rtacha, tinch ohang bilan talaffuz etiladi. O'z mazmunidan tashqari, sevinch, tashvish, g'azab, kinoya kabi turli emotsiyal mazmunni ifodalaganda, ularning intonatsiyasi ham shunga moslashadi. Agar jumladagi biror bo'lakka logik urg'u tushsa, shu bo'lakda ohang ko'tariladi. Bu holat gapning hamma mazmun turlari uchun umumiyydir.

So'roq gap

So'zlovchining o'ziga ma'lum bo'limgan biror voqeani o'zgadan bilib olish istagini, zaruriyatini ifodalovchi gaplar so'roq gaplar hisoblanadi. So'roq gaplardagi mazmun darak gaplarga qarama-qarshidir, ya'ni darak gaplarda ma'lum voqeahodisalar haqida xabar bildirilsa, so'roq gaplarda uning aksi, no'ma'lum narsa, voqeahodisaning noma'lumligi, shu noma'lum narsa haqida ma'lumot olish istagi ifodalangan bo'ladi. So'roq gaplar alohida intonatsiyaga ega bo'ladi.

So'roq gaplar ko'proq dialogik xarakterdagi nutqqa xos bo'lib, unda so'zlovchi tinglovchidan ma'lum bir voqeahodisa haqida javob berishni, ma'lum faktlarni inkor yoki tasdiq qilishni so'raydi, talab qiladi. Masalan,

– *Ne bo‘ldi? So‘zla inim? -dedi qalandar, yuragi mudhish bir tuyg‘udan muzlab.*

– *Ustod... ustodni zindonga soldilar.*

– *Qachon?*

– *Kecha xuftonda. ("Ulug‘bek xazinasi" Odil Yoqubov).*

So‘roq gaplar maxsus so‘zlar (kim, nima, qachon, qanday, qaerda kabi so‘roq so‘zlar) va so‘roq yuklamalari (-mi, -chi, -a, (-ya)) orqali tuziladi.

So‘roq gaplarda yuqoridagi so‘roq ifodalovchi vositalardan tashqari nahot, nahotki, axir, rostdan, ehtimol so‘zlar ham ishtirok etib, ular so‘roq bilan birga turli modallik (shubha, ishonch, taajjub, gumon, ta’kid va boshqalar) ottenkalarini ifodalaydi.

So‘roq gaplar tuzilishi, ifodalanish vositalari jihatidan ikki turga bo‘linadi: yuklamalar vositada va so‘roq so‘zlar vositasida tarkib topgan so‘roq gaplar.

1. Yuklamalar yordamida tashkil topgan so‘roq gaplardagi fikr so‘zlovchi uchun mutloqo no‘malum bo‘lmaydi. Bunda so‘zlovchi ikkinchi bir shaxsdan o‘z fikrini tasdiq yoki inkor qilinishini bilib olishni maqsad qilib qo‘yadi. Shu sababli ham bunday so‘roq gaplarga ko‘pincha ha, yo‘q, so‘zlar yoki shu so‘roq gapdagagi so‘roq anglatuvchi so‘zni takrorlash bilan javob qaytariladi. Masalan,

– *Hu...ana u, atroflari paxtazor oq uylarni ko‘rayapsizmi?*

– *Ha, ko‘rdim.*

– *Juda yaxshi, xat-savodingiz bormi?*

– *Yo‘q.*

2. So‘roq so‘zlar yordamida tashkil topgan so‘roq gaplar so‘roq so‘zlarning xarakteriga qarab turli ma’nolarni ifodalaydi.

a) shaxs va narsalar haqida fikr yuritsa, kim, nima olmoshlari qo‘llanadi. Ular turli kelishik affikslarini olishi mumkin: -*G‘azaldan bu kabi zavq olmagan kim? -Hu ana u qorayib ko‘rinayotgan narsa nima?*

b) Predmetlarning belgi-xususiyatlarini aniqlash lozim bo‘lsa, gap tarkibida qanday, qaysi, qancha, necha olmoshlari ishtirok etadi: -*Shu choqqacha qaysi burchakda mog‘or bosib yotgan edingiz? -Qanday maslahat berasiz? -G‘ulom aka, o‘scha vaqtarda qancha hosil olar edingiz?*

c) So‘roq gaplar harakat-holatning bajarilishi yoki predmetning mavjudlik o‘rni, payti, holati, sababi, maqsadini aniqlashga qaratilgan bo‘ladi. Bunday gaplarda qaerda, qachon, qanday, qanday qilib, nechuk, nima uchun, nima sababdan, nima maqsadda kabi olmoshlar ishtirok etadi.

Masalan, -*Qaerda eding shuncha kunlardan beri?*

– *Qachondan beri? -dedi Bo‘riboy aka.*

– *Hoy, yigitlar, bugun nima uchun bunchalik sust ko‘rinasiz?*

– *Nima maqsadda yuribsan bu yoqlarda?*

3. So‘roq gaplarda o‘ziga xos (so‘roq) intonatsiya bo‘ladi, ya’ni u darak va buyruq gaplar intonatsiyasidan farq qiladi. So‘roq gaplardagi intonatsiya aniqlanishi lozim bo‘lgan bo‘lakda yuqori ko‘tariladi.

So‘roq gaplar ba’zi o‘rinlarda so‘roq hosil qiluvchi vositalarsiz ham tuzilishi mumkin. Bunday so‘roq gaplar so‘roq intonatsiya va suhbatdoshning so‘zini takrorlash orqali hosil qilinadi.

- *Soat ikki yarim bo ‘ldi. -Ikki yarim?*
- *Olimjonni siz qachondan beri bilasiz?*
- *Olimjonni?-so ‘radi Oyqiz.*
- *Ota juda hayol surib qoldingiz?*
- *Keling, o ‘g‘lim. Bemahalga qolibsiz?*

} **takrorlash**
} **So‘roq intonatsiyasi**

So‘roq intonatsiyasi orqali darak va buyruq gaplarni ham so‘roq gaplarga aylantirish mumkin.

Masalan, *Bugun imtixon bo ‘ladi*. –darak gap.

Bugun imtixon bo ‘ladi? – so‘roq gap.

So‘roq gaplar so‘roqning xarakteriga (mazmuniga) ko‘ra ikki turga bo‘linadi: sof so‘roq gaplar va ritorik so‘roq gaplar.

1. Sof so‘roq gaplar tinglovchidan ma’lum va konkret javobni talab qiladi.

Masalan, *Sen o ‘zbek adabiyoti bo ‘yicha qanday kitoblarni o ‘qiding?*

Nechun tim qoradir arman ko ‘zlari?

Xassos tabiatning sehrimikin-bu?

Yo go ‘zal bo ‘lsinlar arman qizlari

Degan onalarning mehrimikan bu?

Ba’zan bunday gaplarda so‘roq takrorlanib kelishi ham mumkin. Bu hol savolga so‘zlovchi tinglovchidan tezda javob ololmaganidan sodir bo‘ladi. Masalan, *Nega darsga kechikib kelding? Nega?*

2. Ritorik so‘roq gaplarda tinglovchidan aniq, konkret javob talab qilinmaydi. Chunki bunday so‘roq gaplarning mazmunidan tasdiq mazmuni (yashirin tasdiq) anglashilib turadi. Demak, ritorik so‘roq gaplarda so‘roq bilan birga uning javobi ham ifodalangan bo‘ladi. Bunday gaplar kuchli emotsionallik xususiyatiga ega bo‘lib, nutqda stilistik funksiyani bajaradi. Masalan, 1) *Vatanimizning bir qismi bo ‘lgan Mirzacho ‘l nega cho ‘lligicha qolsin?* 2) *Odamning hayoti tug ‘ilishidan boshlanishini kim bilmaydi?* (hamma biladi). 3) *Yo ‘q? Qanday chidayman bunday tuhmatga!?* (Chiday olmayman) *Bolani kim sevmaydi?* (hamma sevadi).

Yashirin inkor mazmuniga ega bo‘lgan so‘roq-inkor gaplar ham ritorik so‘roq gaplarning bir ko‘rinishidir. Masalan, *Bolani sevmaydigan odam bormi?* (Yo‘q)

Ritorik so‘roq gaplar ikki xil ko‘rinishga ega bo‘ladi:

a) yashirin javob, uning mazmuni shu gapning o‘zidan bilinib turadi: *Bolani kim sevmaydi?* (hamma sevadi).

b) Ba'zan tasdiqning o'zi so'roqning ichida eslatiladi, ya'ni gapning konkret mazmuni ketidan yana bir gap keltirish orqali: *Men senga nima degan edim? "Darsga kechikma degan edim-ku!?"*

Ritorik so'roq gaplarning ayrim turlari aytmaysizmi, bo'ladi so'zları orqali tuziladi: *Ertasiga ot og'rib qolsa bo'ladimi?* (Bo'ladi. Og'rib qoldi kabi).

Ritorik so'roq gaplar turli xil emotsional ottenkalarni ifodalashi mumkin, ya'ni: taajjub, tashvish, g'amxo'rlik, g'azab, gumon, kinoya, ta'kid, norozilik, achinish, sevinish, tanbeh, kesatish kabi.

- a) taajjub: *Iye, men kimni ko'rayapman! (?)*
- b) tashvish, g'amxo'rlik: *Nima bo'ldi senga, Lobar? Navniholim, yolg'izim, ikkov qanday holda qolamiz unda?*
- c) g'azab: *Uyatni bilasizmi? Oramizda ilmga qarshi odamlar bor degani kimning tili boradi?*
- d) gumon: *Yuqoridagilar bunga qanday munosabatda bo'lar ekan?*
- e) kuchli hayajon: *Tokaygacha ezilamiz, ota?! Qani bu erda insof, qaniadolat degan narsa??*

So'roq gaplarning mazmun jihatdan bazan yana shunday turi ham uchraydiki bular so'roq-buyruq gaplar nomi bilan ham ishlatalishi mumkin. Gapning bunday ko'rinishlarida esa so'roq yo'li bilan buyurish ottenkasi ham ifodalanadi. Masalan, *Darsga tezroq kirmaysanmi?* (Tezroq kir!) kabi.

Buyruq gaplar

Buyruq gaplar so'zlovchining xohishi, iltimosi, maslahati va buyrug'i kabi turli niyatlarini ifodalab keladi. Shunga ko'ra xohish, istak, iltimos, taklif, xitob, ogohlantirish va buyruq ma'nolarini ifodalaydigan gaplar buyruq gaplar deyiladi.

Buyruq gaplarda so'zlovchi suhbatdoshini biror ish-harakatni bajarishga yoki undan voz kechishga undaydi. Shunga ko'ra buyruq gaplar so'zlovchiga yoki ikkinchi bir shaxsga qaratilgan bo'ladi. Masalan, *Jangga kirdingmi-qo'rquvni unut! O'limni emas, o'ldirishni o'yla.*

Buyruq gap (asosan uning kesimi) tuzilishi jihatidan turlicha bo'lib, turlicha vositalar orqali hosil qilinadi va buni quyida ko'rib o'tamiz.

1. Kesimning buyruq-istak mayli shaklida kelishi bilan:

I shaxs: *Ey, xaloyiq, butun kuchimizni bir kuch qilib to'playlik.*

II shaxs: *Oldinga qarama hech, yovni burda-burda qil. Onangni qo'lingda tutsang, singlingni boshingda tut!*

III shaxs: *Podshoning taxti kuysin!*

2. Kesimning shart mayli shaklida kelishi bilan: *Qani endi, ular ham birga, yonma-yon yurib kelishsa! Qani endi, ular ham shu yerda birga bo'lishsa!*

Eslatma: Ba’zi o‘rinlarda shart mayli affiksi o‘rniga o‘rin kelishigi qo‘sishchasiini olgan sifatdoshning *emoq* fe’li bilan birikuvi, ya’ni -*ganda edi* formasida qo‘llanadi: *Tezroq tong ota qolganda edi. U tezroq kela qolganda edi* kabi.

Ba’zi buyruq gaplarning buyruq yoki shart mayli formasida bo‘lgan kesimlariga -*chi* yuklamasi qo‘silib, ish-harakatning tezroq bajarilishiga da’vat (*tezroq borsang-chi*), buyruqning yumshatilishi (*sen bir oz kutib tur-chi*), do‘q-po‘pisa ma’nolarini (*Mening aytganimni qilmay ko‘r-chi*) anglatadi.

3. Kerak, darkor, mumkin so‘zlarining harakat nomi bilan birikib kelishi bilan: *Bu masalani ilmiy kengashga qo‘yish kerak: Endi bu ahvolda yashash mumkin emas! Uni kollektivdan haydash kerak. (darkor, lozim)!*

4. Ayrim to‘liqsiz gaplar ham buyruq mazmunini anglatadi: *Nemis bosqinchilariga o‘lim!* (kesimsiz to‘liqsiz gap) *O‘lim yovga!* kabi. *Qani, hoy yigitlar! Ishga! Ishga, yigitlar!* (egasiz va kesimsiz).

Buyruq gaplarda quyidagi mazmun ottenkalari ifodalanadi: Buyruq, maslahat (*kerak, lozim darkor*), iltimos (-sa orqali), orzu-istak (*koshki* va - sa orqali), hayratlanish, g‘amxo‘rlik, tashviq (*ishlarda*), gumon, tashvish, hayajon, g‘azab, do‘q va boshqalar.

Gaplarning emotsionallikka ko‘ra turlari

Gaplar emotsionallik munosabatiga ko‘ra (hissiy-ta’siri nuqtai nazaridan) ikki xildir: emotsional (hissiy-ta’siri mavjud) gaplar va emotsional bo‘lmagan (hissiy-ta’siri mavjud bo‘lmagan) gaplar. Darak, so‘roq, buyruq gaplar (kuchli intonatsiya, his-hayjon bilan ifodalanmaganida) emotsional bo‘lmagan gaplardir. Emotsional gaplar undov gap ham deb yuritiladi.

Kuchli intonatsiya va his-hayajon bilan aytilgan har qanday gap (darak, so‘roq, buyruq) undov gap hisoblanadi. Undov gaplar so‘zlovchining ichki kechinmalarini, his-hayajonini umuman uning turli ruhiy holatlarini o‘zida ifoda etishi mumkin. Bunday gaplar kuchli emotsionallikka ega bo‘ladi. Shunday ekan kuchli his-hayajon bilan aytilda, har qanday gap turi ham undov gapga aylanishi mumkin.

Masalan, Vatan-onha so‘zi naqadar laziz!

Sensan har narsadan mo ‘tabar, aziz!

Siddiqjonning bu vajohati Zunnunxo‘janing o‘yini puchga chiqardi ...shuning uchun Sidiqjondan baland kelishga tirishib, jahl bilan-yana nima kerak?!-dedi

— *Yana nima bor?!*

— *Kirmaysiz, kolxozga!*

— *Kiraman!*

— *Kirmaysiz!*

— *Kiraman!*

— *Axmoq!*

– Axmoq bo ‘lmanimda, shu ahvolga tusharmidim?!

Mana shu dialogning o‘zidayoq undov gapning bir necha turi o‘z ifodasini topgan.

Undov gaplar qanday mazmun ifodalashiga qarab quyidagilarga bo‘linadi:

- a) darak-undov gap;
- b) so‘roq-undov gap;
- c) buyruq-undov gap.

Yuqoridagilardan ham ko‘rinib turibdiki, undov gaplar asosiy gap turlarini maxsus undov intonatsiyasi bilan aytilishi natijasida hosil qilinar ekan. Undov intonatsiyasi turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, u so‘zlovchining turli his-tuyg‘u va kechinmalariga bog‘liqdir.

Undov gaplarning tuzilishida intonatsiya asosiy rolni o‘ynaydi. Shu bilan birga, ayrim leksik va grammatik elementlar ham undov gaplarni hosil qilishda vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Undov gaplarda so‘zlovchining turli his-tuyg‘ulari aks etganligi sababli ularning mazmun ottenkalari ham turli tumandir. Undov gaplar:

- Taajjub: *Ajab zamona ekan! Tavba!*
- Xayratlanish: *Ana qahramon! Men unga qoyilman!*
- Zavqlanish, shodlik, mammunlik: *Ura! Ozodlik!*
- Orzu-umid: *Men ham qalbimning shu ’iasi bilan sahnani yoritsam!*
- Achinish: *Bu urush odamlarning boshiga ne-ne kunlarni solmadi! Ey, attang!*
- Kinoya: *Yangi kasb qulluq bo ‘lsin, boyvachcha!*
- G‘azab, norozilik, nafrat: *Voy la ’nati! Bu qanday bedodlik, bu qanday zulm!*

Ablahlar!

- Qo‘rg‘ish: *Voydod! O’ldim! Onajon!*

Gaplarning voqelikka munosabatiga ko‘ra bo‘linishi

Voqelikka munosabati jihatidan gaplar ikki turga bo‘linadi: tasdiq (bo‘lishli) gaplar, inkor (bo‘lishsiz) gaplar. Tasdiq gaplar borliq hodisalari orasidagi munosabatning mavjudligini ifodalasa, inkor gaplar esa bunday munosabatlarning mavjudligini inkor qiladi. Masalan, *Dars boshlandi (tasdiq) -Dars boshlanmadni (inkor)*.

Tasdiq va inkor kategoriyalari orasida bog‘lanish bor, ya’ni har qanday tasdiqdan inkor, har qanday inkordan tasdiq kelib chiqadi. Masalan, *Sobir-a’lochi* (demak, qoloq emas, ikkichi emas). *Sobir-ikkichi* (demak, a’lochi emas) kabi.

Inkor gaplar tasdiq gaplar asosida maxsus inkor ko‘rsatgichlari yordamida hosil bo‘ladi, tasdiq gaplarning maxsus ko‘rsatgichlari yo‘q.

O‘zbek tilida inkor gaplar quyidagi maxsus ko‘rsatgichlar asosida shakllanadi:

1. Kesim tarkibida kelgan *-ma* formasi va yo‘q so‘zi orqali: *Sobir kelmadi. U bugun uyga kelgani yo‘q.*

2. Maxsus inkor ifoda qiluvchi so‘zlar orqali. Odatda so‘zlarning o‘zlarigina inkor ifoda etmaydi, balki kesimlar ham inkor shaklida bo‘ladi: *Tashqarida hech kim ko‘rinmas edi.*

3. Takrorlanib kelgan *na* yordamchisi ham inkorni ifodalaydi: *Sobir na o‘qidi, na ishladi.*

Ba’zan ikki inkorning qo‘llanishi gapda tasdiqni ifodalaydi. Masalan, *Behzodning Toshkent shahriga borish fikri yo‘q emas.*

Undov va ritorik so‘roq gaplarning ayrim turida kesimlar inkor shaklida bo‘lsa ham, gapda tasdiq anglashilishi mumkin. Masalan, *Mayin shaboda kimga yoqmaydi!* (hammaga yoqadi).

Gaplarning ifoda asosiga ko‘ra bo‘linishi

Gaplar ifoda asosiga ko‘ra bir bosh bo‘lakdan (ega yoki kesimning ikkisidan biri) va ikki bosh bo‘lakdan (ham ega, ham kesimdan) tashkil topishi mumkin. Shunga asosan gaplar bir sostavli (bosh bo‘lakning biri ishtirok etsa) va ikki sostavli (bosh bo‘laklarning har ikkisi ishtirok etsa) bo‘ladi. Bir sostavli gaplarning struktura asosi yo egadan, yo kesimdan tashkil topadi. Masalan, *Yana hujum boshladilar. Olim bo‘lsang, olam seniki. Chekilmasin. Bu olmani yesa bo‘ladi. Bahor kabi.*

Ikki sostavli gaplarda esa gapning struktura asosini ega va kesim tashkil etadi. Masalan, *San’atkoring barmoqlari dutor torlari ustida sehrli harakat qilar edi.* (Oybek).

Gaplarning tarkibidagi bo‘laklarning qo‘llanish darajasiga ko‘ra turlari

Gaplar kommunikativ vaziyat, ya’ni ma’lum fikrni ifoda qilish uchun zarur kommunikativ vaziyatga ko‘ra to‘liq va to‘liqsiz gaplarga bo‘linadi.

To‘liq gaplarda fikrni ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan gap bo‘laklarning barchasi mavjud bo‘ladi. Masalan, *U ertaga butun mamlakatdan kelgan odamlar bilan ro‘para bo‘ladi.*

To‘liqsiz gaplarda esa ma’lum bir fikrni ifoda qilish uchun zarur bo‘lgan gap bo‘laklarining ba’zi qismi tushirilgan yoki yashiringan bo‘ladi, lekin fikr to‘liq ifodalanadi. To‘liqsiz gaplar asosan dialogik nutq tarkibiga xosdir. Masalan, *Vazifani bajarmagani uchun kim tanbeh oldi? - Salim. -Ayta olmayman, qo‘rqaman. -Kimdan?*

Yana shuni ham yodda tutish lozimki, to‘liqsiz gaplar asosan to‘liq gaplardan keyin keladi. Aks holda ular so‘z gap shakliga ega bo‘lib, to‘liq va to‘liqsizlik munosabatida emas, balki belgili va belgisizlik xususiyatiga xos sanaladi. To‘liqsiz gap va so‘z gaplarning asosiy farqlovchi xususiyati shundaki, to‘liqsiz gaplar biror gap bo‘lagi vazifasini bajaradi, lekin so‘z gaplar gap bo‘lagi vazifasida uslubiy

qo'llanmaydi. Masalan, - Uyga vazifani bajardingmi? –Bajardim (to'liqsiz gap). - *Vazifani bajardingmi?* -Ha. (so'z gap)

Gaplarning bo'laklarning ishtirokiga ko'ra turlari

Gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ishtirokiga ko'ra sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarga bo'linadi.

Agar gaplar faqat bosh bo'laklardangina iborat bo'lsa, sodda yig'iq gaplar deyiladi. Masalan, *Semestr yakunlandi. Nazoratlar boshlandi.*

Agar gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklar ishtirokida tuzilgan bo'lsa, sodda yoyiq gaplar deyiladi. Masalan, *Fevralning o'n oltinchi kunida ikkinchi yarim yillik dars soatlari boshlanadi. O'zbekiston xalqi tinchlik uchun astoydil kurashmoqda. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat.*

Gaplarning bo'laklari xarakteri jihatidan turlari

Gaplar tarkibidagi bo'laklarning xarakteri, bog'lanish darajasiga ko'ra ikki xildir: bo'laklarga ajraladigan gaplar, bo'laklarga ajralmaydigan gaplar.

Bo'laklarga ajraladigan gaplar bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajraladi. Masalan, *U tilmochlik qilib yurgan kezlarda shaharning kazo-kazolari bilan og'izburun o'pishib qoldi* (S.Ahmad).

Bo'laklarga ajralmaydigan gaplar ega va kesim sostaviga ajralmaydi. Bunday gaplar yakka so'z yoki bo'laklarga ajralmaydigan, yoki boshqa so'zlar bilan kengayib bo'lmaydigan so'z birikmalari bilan ifodalanadi:

- Raxmat!
- Arzimaydi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Gapni ta'riflab bering?
2. Gaplar tuzilishiga ko'ra necha turga bo'linadi?
3. Ifoda maqsadiga ko'ra gaplar qanday turlarga bo'linadi?
4. Gaplarning emotsionallikka ko'ra turlarini aytинг
5. Tasdiq va inkor gaplarni izohlab bering.
6. Bir va ikki sostavli gaplarni tushintiring
7. To'liq va to'liqsiz gaplarni izohlang
8. Sodda yoyiq va sodda yig'iq gaplarga ta'rif bering
9. Bo'laklarga ajraladigan va ajralmaydigan gaplarga misol keltiring

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Gap-mazmun va intonatsiya jihatidan nisbiy tugallikka ega bo'lgan, grammatik qonun - qoidalar asosida birikkan sintaktik birliklar yoki yakka so'z.

Sodda gap-struktura asosi bitta bo'lib, ma'lum fikr anglatuvchi gap.

Bir sostavli gap-struktura asosi yo ega, yo kesimdan iborat gaplar.
Ikki sostavli gap -struktura asosi ega va kesimdan iborat gaplar.
Tasdiq gaplar-borliq hodisalari orasidagi munosabatning mavjudligini ifodalaydi.

Inkor gaplar-munosabatlar mavjudligini inkor qiluvchi gaplar.
Undov gaplar-kuchli emotsionallik ifodalangan gap turi.
To‘liq gaplar-ma’lum bir fikrni ifodalash uchun zarur bo‘lgan bo‘laklarning barchasi ifodalangan gaplar.
To‘liqsiz gaplar-ma’lum bir fikrni ifodalash uchun zarur bo‘lgan bo‘laklarning bir qismi tushirilgan yoki yashringan gaplar.
Sodda yig‘iq gaplar-faqat bosh bo‘laklardan iborat bo‘lgan gaplar.
Sodda yoyiq gaplar-bosh va ikkinchi darajali bo‘laklardan iborat gaplar.
Bo‘laklarga ajraladigan gaplar-bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarga ajraladigan gaplar.
Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar-bo‘laklarga ajralmaydigan, bir butun holda qo‘llanadigan gap turi.

Ikki sostavli gaplar.

REJA:

1. Gap bo‘laklarining mezoni.
2. Gap bo‘laklarining tasnifi.
3. Bosh bo‘laklar: ega va kesim.
4. Ikkinci darajali bo‘laklar: aniqlovchi, to‘ldiruvchi, hol.
5. Gap bo‘laklarining tartibi. Inversiya hodisasi.

MATN

Gap bo‘laklari

Bizning so‘zlashishimiz gaplar orqali amalga oshganidek gaplar ham o‘z navbatida sintaktik tomondan o‘zaro bog‘langan so‘zlardan tashkil topadi. Bunday so‘zlar gap bo‘laklari sanaladi. Shunday ekan gap bo‘laklari tushunchasi faqat birdan ortiq so‘zlardan tashkil topgan gaplargagina tadbiq qilinadi. Gap bo‘laklari grammatik-semantik jihatdan mustaqil funksiya ifodalab, muayyan so‘roqqa javob bo‘ladigan, sintaktik kategoriyadir. Yuqoridagi talablarga javob bermagan so‘zlar, gap bo‘lagi sanalmaydi. Shunday ekan gapda biror so‘roqqa javob bo‘lib, muayyan vazifani bajaradigan so‘z va so‘z birikmasi gap bo‘lagi sanaladi.

Gap bo‘laklari sintaktik kategoriya bo‘lib, gapda so‘zlarning predikativ qo‘shilishi, shuningdek, gap tarkibidagi elementlarning o‘zaro munosabati va bu munosabatlarning qay xarakterda ekanini ko‘rsatadi.

So‘z turkumlari bilan gap bo‘laklari orasida bog‘lanish va o‘zaro munosabat mavjud (ot -ega, fe’l -kesim vazifasida kelishi kabilar va boshqalar). Lekin gap tarkibida bir xil formadagi ayni bir so‘zning o‘zi boshqa so‘zlar bilan kirishgan munosabatiga ko‘ra turli gap bo‘lagi vazifasida kelishi mumkin. Masalan, **a)** *Ular Toshkentdan kelishdi*. **b)** *Toshkentdan mammunmiz*. Yoki. **a)** *Uning niyoyat chiroyli (aniqlovchi) ko‘zları iffat va hayo bilan ma’sum boqardi*. **b)** *U (Komila) sadolar ohangida nozik va chiroyli (hol) tebrandi*.

Demak, gap bo‘laklari bilan so‘z turkumlari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik bo‘lsada, ular turli kategoriyalarga tegishlidir.

Masalan,

a) So‘z turkumlari leksik-grammatik belgilar asosida aniqlanadi, gap bo‘laklari esa funksional jihatdan ajratiladi;

b) Gap bo‘laklari sintaktik kategoriya sifatida, so‘z turkumlari leksik birlik sifatida o‘rganiladi;

c) Shuningdek, so‘zlar konteksdan tashqarida ko‘p ma’noli bo‘lishi mumkin, lekin gapda, uning bo‘lagi sifatida faqat bitta sintaktik vazifani bajaradi.

Gapni bo‘laklarga ajratishda so‘zning gapdagi vazifasi, muayyan so‘roqqa javob berishi, boshqa so‘zlar bilan munosabati, grammatik formasi kabilar hisobga olinadi. Ayrim o‘rinlarda esa ohangning (logik urg‘u).ham xizmati katta

Gap bo‘laklari orasidagi sintaktik aloqa turli vositalar orqali ifodalanadi: so‘z formalari (*sendan so‘radim*), yordamchi so‘zlar (*mashina bilan terdim*) tartib va intonatsiya orqali (*yam-yashil dalalar*). *Dalalar yam-yashil*.

Gap bo‘laklari strukturasiga (tuzilishiga) ko‘ra quyidagi turlarga ajratilib o‘rganilishi mumkin: sodda bo‘lak, sostavli (tarkibli) bo‘lak, murakkab bo‘lak.

Eslatma: Ba’zi manbalarda gap bo‘laklarini struktural jihatdan ikki turga bo‘lishadi: sodda va murakkab (O‘zbek tili grammatikasi, 1986 yil, 119-bet)

Sintetik formadagi so‘z bilan ifodalanib, bir sodda tushuncha anglatadigan bo‘lak sodda bo‘lak deb ataladi. Masalan, *U meni unutmagan, va ’dalari chin, so‘zları to‘g‘ri* (A.Qodiriy) *Yo ‘lchi saharlab Xo ‘jakentga jo ‘nadi* (O). Bu gaplardagi bo‘laklarning barchasi sodda bo‘laklardir.

Analitik formadagi so‘z bilan ifodadalangan bo‘lak sostavli bo‘lak deyiladi. Sostavli bo‘laklar birdan ortiq qismlardan tashkil topib, ularning bir komponenti mustaqil bo‘ladi va sostavli bo‘lakning asosiy ma’nosini shu komponent orqali ifodalanadi. Yordamchi komponent esa alohida leksik ma’no ifodalamaydi, u mustaqil qismga ergashib kelib unga turli qo‘sishimcha ma’nolar yuklaydi, uning

ma’nosini konkretlashtiradi, grammatik jixatdan shakllantiradi va mustaqil komponentning boshqa bo‘laklar bilan sintaktik aloqasini ko‘rsatishga xizmat qiladi.

Sostavli bo‘lakning qurilish jixatidan quyidagi turlari mavjud:

1. Mustaqil so‘z + to‘liqsiz fe’l: *Kelgan yigit agronom ekan*.
2. Mustaqil so‘z + predikativ modal so‘z: *Student degan nomni oqlash uchun yaxshi o‘qish kerak*.
3. Mustaqil so‘z + ko‘makchi fe’l: *U yaqin yillarda haqiqiy olim bo‘ladi*.

Ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zlarning birikishidan hosil bo‘lib, bir butun murakkab tushunchani anglatuvchi birikmalar murakkab bo‘laklar deyiladi. Murakkab bo‘lakni murakkab so‘zlar, frazeologik birikmalar, gapda yaxlit holda qo‘llanadigan ajralmas so‘z birikmalari tashkil qiladi. Quyidagilar murakkab bo‘laklarga material bo‘ladi:

1. Davlat va hukumat nomlari: ***O‘zbekiston Respublikasi – buyuk davlat***.
2. Ilmiy-siyosiy va madaniy muassasa nomlari: ***Jizax davlat pedagogika instituti tashkil etildi***.
3. Kitob gazeta va jurnal nomlari: “**Xalq so‘zi” dan kelishibdi**.
4. Turli murakkab geografik nomlar: *Dunyo sivilizatsiya markazi - O‘rta Osiyo*.
5. Murakkab fe’llar (sotib olmoq, borib kelmoq, aytib yuborish): ***Salimjonni aytib yborish kerak***.
6. Murakkab sifatlar (yashil rang, havo rang, och rang): ***Olgan ko‘ylagim yashil rang***.
7. Murakkab son va murakkab olmoshlar (hech kim, hech nima): ***Ikki o‘n besh – bir o‘ttiz***.
8. Turg‘un frazeologik birikmalar (hafsalasi pir bo‘ldi): ***Uyga tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib qaytdi***.

Gap bo‘laklarining gap tarkibida bajaradigan vazifalari bir xil emas. Chunki ba’zi bo‘laklar gapning asosini tashkil etib, bu bo‘laklarning gapda ishtirok etishi shart, ularsiz gapni vujudga keltirish mumkin emas. Shuningdek, ba’zi bo‘laklar borki, ular gapning mazmuniga biror aniqlik kiritishi va uni biror tomondan to‘ldirishi mumkin. Bunday bo‘laklarning ishlatalmasligi gap mazmunini va tuzilishini tubdan o‘zgartirib yubora olmaydi. Gapdagi ana shu vazifalarga qarab gap bo‘laklari 2 turga bo‘linadi: Bosh bo‘lak hamda ikkinchi darajali bo‘lak.

Yuqorida aytib o‘tganimizdek bosh bo‘laklar gapning asosini, o‘zagini tashkil qiladi, boshqa bo‘laklar esa bosh bo‘laklarga birlashadi. Bosh bo‘lakli gaplar ikkinchi darajali bo‘laklarsiz ham hukm ifodalaydi- (kommunikativ funksiyani bajaradi). Shundan ham ko‘rinib turibdiki, gap uchun asosiy holat bo‘lgan predikativlik bosh bo‘laklar orqali ifodalanadi.

Predikativ aloqa (ega va kesim aloqasi) hayotiy aloqa bo‘lib, inkor va tasdiqni o‘z ichiga oladi: Bular harakat, holat, belgi kabi tushunchalarni voqelik va zamon

bilan bog‘laydi, sub’ektning voqelikka bo‘lgan munosabatini ifodalaydi. Masalan, *Bola sho‘x* gapida predmet va belgi tushunuchalari qo‘shilib, sho‘xlik belgisining bolada mavjud ekanligi hukm yo‘li bilan tasdiqlangan va voqelik hozirgi zamon bilan bog‘langan.

Ikkinci darajali bo‘laklar bosh bo‘laklarga bog‘lanib, ularning mazmunini aniqlab, to‘ldirib keladi. Ular gapda mustaqil ishlatilmaydi, ya’ni bosh bo‘laklarga bog‘langan holdagina kelishi mumkin. Shundan ko‘rinib turibdiki, gapda bosh bo‘laklarsiz ikkinchi darajali bo‘laklarning bo‘lishi mumkin emas. Shu nuqtai nazaridan ham (ularning grammatik-semantik munosabati) bosh bo‘laklar hokim, ikkinchi darajali bo‘laklar esa tobe bo‘laklar hisoblanadi. Ikkinci darajali bo‘laklar gap tarkibida bosh bo‘laklarning biriga (ega yoki kesimga) tobelanib keladi. Ikinchi darajali bo‘laklar ba’zan badiiy matnlarda yakka o‘zi qo‘llanilib gapga o‘xshash shakilga ega bo‘ladi, lekin bu hol matn lingvistikasiga xos sanaladi.

BOSH BO‘LAKLAR

Gapning bosh bo‘laklari ega va kesimdan tashkil topadi.

1. **Ega**-bu ikki sostavli gapning hokim holatidagi bo‘lagidir. Chunki ega o‘ziga tobe bo‘laklar bilan ega sostavini hosil qiladi va o‘z sostavi, kesim sostaviga nisbatan (mutlaq bo‘lmasada) hokim holatda bo‘ladi. Shunga ko‘ra gapdagi ega kesim orqali ifodalangan harakat, holat yoki kesim ifodalangan belgini tashuvchi shaxs yoki predmetni ko‘rsatib keladi. Ega asosan bosh kelishik formasida ifodalanib kim? nima? qayer? so‘roqlaridan biriga javob bo‘ladi.

Demak, gap fikr ob’ektini, nutq predmetini (gap, fikr o‘zi haqida borayotgan predmetni) bildiradi. Bunda predmet keng ma’noda tushuniladi va u narsa, shaxs, voqe-hodisa, belgi-xususiyat, harakat-holat, son-miqdor va hokozolarning nomini o‘z ichiga oladi. Xullas, ega shu gapdagi fikr qaratilgan shaxsni ko‘rsatib kelib, predikat ifodalangan holat yoki belgining egasi hisoblanadi. Masalan, *Bu jarohat* (ot) asta-sekin bo‘lsa ham bitib borayapti (S.Ahmad) *Qizil* (sifat) -ranglarning eng a’losi. *Ikki o’n besh* (son)- bir o‘ttiz. **Men** (olmosh) o‘qishim kerak.

Eslatma: Bosh kelishik formasidagi har qanday so‘z ham ega bo‘lib kelavermaydi. Bosh kelishik formasidagi so‘zlar kesim (*Bu yigit-student*) bo‘lib kelishi ham mumkin. Shuningdek, ba’zan chiqish kelishigi formasidagi so‘zlar ham ega vazifasida kelishi mumkin. Masalan, a) *Bog‘chaning hech bir qarichi bo‘sh qolmagan, unda har turli ko‘katlardan bor edi;* b) *Qulluq, ammo-lekin hozirchalik nasiyaga olamizda, puldan yo‘qroq.* c) **Tatar sovdogarlaridan ham ko‘rinadi.**

Bu Gaplarda butun bilan qism munosabatini ifodalaydigan sintaktik konstruksianing bo‘lakni bildiruvchi komponenti aytilmay qolgan. Masalan, *ko‘katlardan namunalar bor* kabi. Ammo bo‘lak tiklangach, haqiqiy bosh kelishikdagi ega kelib chiqadi.

Shunga ko‘ra bosh kelishik eganing haqiqiy grammatik formasidir. Ega har doim ham harakatning bajaruvchisini anglatavermaydi. Uning ma’nosi gapning tuzulishiga, mazmuniga qarab aniqlanadi. Kesim fe’l bilan ifodalangan gaplarda ega ko‘pincha bajaruvchi shaxsni-logik sub’ektni ko‘rsatadi. Lekin buning aksi ham uchraydi. Bu eganing aniq yoki majhul oborotda qo‘llanilishi bilan belgilanadi. Ega aniq oborotda, ya’ni aktiv konstruksiyada (gapning kesimi fe’lning aniqlik mayli formasida) -logik sub’ektni ifodalaydi.

Eslatma: Ayrim o‘rinlarda ega gap tarkibida qo‘llanilmasligi ham mumkin. Bu gapning nonormal holatda ekanligini ifodalaydi, harakatning bajaruvchisini ko‘rsatadi. Masalan, *Xatni* (Ahmad) *yozdi*.

Majhul oborotda, ya’ni passiv konstruksiyada kesim majhul nisbat formasida ega logik ob’ektni ifodalaydi.

Masalan, *Xat* (Ahmad tomonidan) *yozildi*.

Bunday gaplarda harakatning bajaruvchisi-logik sub’ekt-to‘ldiruvchi, logik ob’ekt esa grammatik ega vazifasida keladi. Bu xildagi kanstruktsiyalar ish-harakatning bajaruvchisi faqat shaxs bo‘lganidagina qo‘llanadi, ko‘rsatmaydi. Bu turli stil talabi va boshqalarga bog‘liq bo‘lib gap umumiy qonuniyatga javob berishini ko‘rsatadi. Masalan, *Yana o‘ylashib ko‘ramiz, har holda so‘zingni yerda qoldirmasman, lekin unday nojo‘ya so‘zlardan qayt.* (Oybek) *Hayolimda bo‘lding uzun tun, Seni izlab qirg‘oqqa bordim, Och to‘lqinlar pishqirgan damda, Topib ber deb oyga yolvordim.*

Shuningdek takrorlikdan qochish, oz so‘z bilan ko‘p fikr anglatish ham bu narsaga (Tilshunoslikda ekonomiya prinsipi - Ekanomiya yazika) turtki bo‘ladi

Gapda eganing qo‘llanish uslubiy qo‘llanmasligining umumiy qonuniyatları ham mavjud.

Eganing ifodalanishi

Asosan ot va otlashgan so‘zlar ega vazifasida keladi. Shuningdek, ular quyidagi so‘z turkumlari orqali ifodalanadi:

1. Ot bilan (atoqli va turdosh otlar): a) *Nabi polvon (atoqli) ko‘zlarini ochib, quloglarini dikkaytirib, boyga qulog solmoqda edi* (S.Ahmad); b) *Ammo qiz (turdosh) yalt etib so‘ngan yulduz kabi, bir onda ko‘zdan g‘oyib bo‘lgan edi* (Oybek); c) *Odamgarchilik (mavhum) kishining qalbida bo‘ladi*.

2. Olmosh bilan: a) *Biz o‘z tilimiz, o‘z vatanimizni sevamiz;* b) *Har kim ekkanini oladi.*

3. Sifat bilan: a) *Yaxshi yaxshiga yondoshtirar, yomon yo‘ldan adashtirar;* b) *Mard maydonda bilinadi;* c) *Yosh ham, keksa ham, katta ham, kichik ham qurbi yetgancha mehnat qiladi.*

4. Son bilan: a) *O'n beshga kasrsiz bo'linadi*; b) *Uchchovlari jazirama dalada yurib, cholning uchastkasini aylandilar*.

5. Sifatdosh bilan: a) *So'zni bilgan zarga bo'lmaydi muxtoj*; b) *Sevishganlar baxtiyor sirdoshlik hislari to'lib, asta suhbatlashdilar* (O); c) *Yurgan – daryo, o'tirgan -buyro*.

6. Infinitiv yoki harakat nomi bilan: a) *Bekor yurish-illatning onasi, g'urbatning makoni*; b) *Hayotning bu jo'shqin ovozini eshitmoq kishiga zavq bag'ishlaydi*; c) *Tortishuv qizib ketdi*; d) *O'qish boshqa, uqish boshqa*.

7. Taqlidiy so'zlar bilan: a) *Hayt degan tuyaga madad*; b) *G'uldur-shaldur, taroq-turuq o'zgarishsiz davom etadi*. (A.Qodiriyl)

8. Ko'makchiar bilan: a) *Uchun ko'makchidir*; b) "A" unli tovush.

9. Undovlar bilan: a) "Dod-voy", "oh-voh" borgan sari kuchaydi; b) *Yana dod eshitildi* (U); c) *Qars ikki qo'lidan chiqadi*.

10. Frazeologik birikmalar bilan: a) *Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirish yaxshi emas*; b) *Havas bo'lsa anqoning urug'i ham topiladi*.

11. Bor, yo'q so'zlari bilan: a) *Bor borini beradi, yo'q nimani beradi*; b) *Hunari bor hech kimga qaram bulmas*.

12. Sintaktik birikmalar orqali: a) *Otlarning otxonaga olib o'tilmagani Ziyodillani taajjublantirdi*; b) *Xotinsiz o'tish -xato, bolasiz o'tish-jafo*.

Eganing tuzilishiga ko'ra turlari

Ega o'z tuzilishiga ko'ra sodda ega va murakkab egalarga bo'linadi.

Sintetik formadagi so'z bilan ifodalangan va birgina sodda tushuncha anglatadigan ega sodda ega deyiladi. Sodda ega ot va otlashgan barcha so'z turkumlari bilan ifodalanadi.

Ikki yoki undan ortiq so'zlarning tobelanish munosabatidan tuzilib, bir butun holda qo'llanadigan, bir murakkab tushuncha anglatadigan bo'lak murakkab ega deyiladi. Murakkab egalar quyidagicha ko'rinishlarga ega. 1) partiya, davlat, hukumat nomlari, 2) ilmiy va siyosiy muassasa, 3) kitob, jurnal, gazeta nomlari, 4) geografik qo'shma nomlar, 5) Ism va familiya birgalikda, 6) unvon, daraja, mansab nomlari, 7) murakkab sifatlar, 8) murakkab son, 9) murakkab olmosh, 10) frazeologik birikma, 11) murakkab so'z birikma.

Kesim

Gapning asosiy markazini (yadrosini) tashkil etib, barcha gap bo‘laklarini o‘z atrofida birlashtira oladigan, egadan anglashilgan harakatni, holatni va boshqa belgilarini hukm yo‘li bilan ifodalaydigan bo‘lak kesim deyiladi. Kesim ham ikki sostavli gapning bosh bo‘laklaridan biridir. U ham gapning ikkinchi darajali bo‘laklari uchun hokim munosabatda bo‘lish xususiyatiga egadir.

Kesim ega haqidagi hukm bildiradigan bo‘lakdir. Hukm tasdiq hukm, inkor hukmga bo‘linganidek, ega haqidagi hukmni bildiradigan bo‘lak-kesim ham tasdiq kesim , inkor kesimlarga ajraladi. Masalan, *U keldi* (tasdiq); *U kelmadi* (inkor); yoki *Saida o‘zida yo‘q xursand edi* (tasdiq); *Go‘yo hali olam yorishmagan* (inkor), yoki Yulduzlarda nur yo‘q (inkor); *Bu ishing yaxshi emas* (inkor) kabilar.

Kesimning ifodalanishi

Kesim ko‘pincha fe’llar bilan ifodalanadi. Fe’llar kesim vazifasida qo‘llanuvchi tipik so‘zlardir. Ayniqsa, tuslangan fe’llar predikativ xususiyatni o‘zida yorqin aks ettiradi. Ular zamon, mayl, shaxs-son ma’nolarini bildiradi. Shuning uchun ham har bir tuslangan fe’l bir gapni hosil qilishi mumkin. Masalan, *O‘qiymen. Bordim. Yozayapti* kabi. Kesim vazifasida boshqa so‘zlar ham kela oladi, ya’ni ot, sifat, son, ravish, olmosh, tasviriy so‘zlar ham kesim vazifasida kelishi mumkin. Shuningdek, ba’zi murakkab so‘z birikmalari ham kesimni ifodalashga xizmat qiladi.

Kesimlar ifodalanish materialiga ko‘ra ikki turga bo‘linadi: ot kesim va fe’l kesim.

Ot kesim

Fe’ldan boshqa so‘zlar orqali ifodalangan kesim ot kesim deyiladi. Bunda shartli ravishda fe’ldan boshqa barcha so‘zlar bilan ifodalangan kesimlar ot kesim (keng ma’noda) deb yuritiladi. Hatto fe’lning vazifadosh shakllaridan sanalgan harakat nomi ham ot kesimni ifodalaydi.

Shunga ko‘ra ularning savollari ham o‘zgarib (kim? nima? qanday? qancha? nechta? ...) turlicha so‘roqlarga javob bo‘ladi. Masalan, *Hunar ado bo‘lmas boylik* (mavhum ot); *To‘g‘ri so‘zga tan bermagan nomard* (sifat) va boshqalar.

Ot kesim quydagi turkum so‘zlar bilan ifodalanadi:

1. Ot bilan: *Ona, o‘sha sevganim-Omon* (H.O); *Bizning ayollarga hayo-fazilat, vafo hunardir, mehnat odati.*
2. Sifat bilan: *El betinch, odamlarning yuzlari g‘amgin, suhbatlari sertashvish edi.* (P.Tursun)
3. Son bilan: *Uch marta uch-to‘qqiz; Ilmli kishilarning umri-ikkita.*
4. Olmosh bilan: *Qudratli samolyotni ijod qilgan o‘zingsan; Poytaxtning darvozaboni-biz; Bizning asosiy maqsadimiz -shu.*

5. Ravish bilan: *Ikkitagina mashinaning boshqa ishlari ko'p; Muncha achchig'ing tez.*

6. Harakat nomi va infinitiv bilan: *Yashamoq-kurashmoq; Nurnisoning es-hushi erga tegish* (O); *Hozir siz uchun eng muhimi bizni qurilish ishlari bilan tanishtirishdir.*

7. Undov va taqlidiy so'zlar: *Hamma yoq taqir-tuqur, qasir-qusur; Orqada qolganlarning holiga voy!; Yayloving qulog'i ding, cho'ponlar qulog'i ding.*

8. Modal so'zlar bilan (bor, yo'q, kerak, lozim, darkor, mumkin): *Urush kimga kerak, podsho kimga kerak; Issiq ovqating bormi?; Qoloqlarga shafqat yo'q.*

Fe'l kesim

Fe'l bilan ifodalanib, eganing harakati, holatini anglatadigan kesim fe'l kesim deyiladi. Fe'l kesimlarni mazmuniga ko'ra harakat bildiruvchi va holat bildiruvchi fe'l kesim turlariga ajratish mumkin. Masalan, *Saida rahbariyat nomiga yozayotgan maktubini bitirdi va ertalab hokimyatga olib bordi* (harakat). *U biroz achchiqlandi; Zamira o'ylanib qoldi* (holat).

Fe'l kesimlar fe'lning quyidagi formalari orqali ifodalanadi:

1. Sof fe'l bilan: *Yo'q, sizda ilgarigi Dadavoy akaning soyasi ham qolmabdi* (Uyg'un); *Saida majlisga tayyorgarlik yuzasidan bir necha kishilar bilan suhbatlashdi.* (A.Q)

2. Ravishdosh bilan: *Yo'lchi qaytib kelguncha, Gulnorni olib ketdilar; Bahor kelib, soylarda suvlar shildirab qoldi.*

3. Sifatdosh bilan: *Karim mehnatda chiniqqan; Tansiq ishlayotgan brigada planni oshirib bajargan.*

Kesimning tuzilishi jihatidan turlari

Kesim tuzilishi jihatidan uch turga bo'linadi:

1. Sodda kesim.
2. Sostavli kesim.
3. Murakkab kesim.

I. Sodda kesimlar sintetik formadagi so'z bilan ifodalanadi va eganing belgisini anglatadi. Sodda kesimlar o'z navbatida qanday so'zlar bilan ifodalinishiga ko'ra ikkiga: sodda fe'l kesim va sodda ot kesimlarga bo'linadi. Masalan, *Men bir qora kunda tug'ildim, Tug'ildimu, shu on bug'ildim* (soda fe'l kesim). *She'rning onasi - til.* (ot bilan ifodalangan soda ot kesim); Kolxozning bag'ri keng, mehnati serbaraka (sifat bilan ifodalangan soda ot kesim).

II. Sostavli (tarkibli) kesimlar so'zning analitik formasidan iborat bo'lgan, ya'ni mustaqil ma'noli so'z bilan turli grammatik ma'nolarni ifodalovchi yordamchi so'zlarning birikishidan hosil bo'lgan kesimlar hisoblanadi.

Sostavli kesimlarda yetakchi (asosiy) qism va yordamchi qimslar mavjud bo‘ladi. Bunda yetakchi komponent asosiy tushunchani ifodalaydi va eganing belgisini ko‘rsatib keladi. Lekin shunga qaramasdan bu qismning o‘zi yordamchi qismsiz fikrni to‘liq ifoda eta olmaydi. Chunki, yordamchi komponent yetakchi komponentning ma’nosini va grammatik formasini shakllantiradi hamda uni to‘ldiradi. Shuningdek, ular yetakchi qismga, uning ma’nosiga shaxs, zamon, modallik kabi grammatik ma’nolar qo‘sadi va kesimni ega bilan aloqalantiradi.

Eslatma: Sostavli kesimning asosiy qismi yordamchi elementlardan oldin keladi.

Yetakchi komponentning qaysi turkum so‘zlar bilan ifodalanishiga qarab sostavli kesimlar ham ikki turga bo‘linadi: sostavli fe’l kesim va sostavli ot kesimlarga.

Sostavli fe’l kesim yetakchi fe’l+ko‘makchi fe’l tarzidagi birikishdan hosil bo‘ladi. Bunday kesimlarda yetakchi qism quyidagilar orqali ifodalanadi:

1. Sof fe’llar bilan (bunda kesim fe’lning turli mayl formalari bilan ifodalanaveradi): *Qurban ota ikkinchi samovarga suv olib quymoqda edi; U nima o‘yladi ekan.*
2. Ravishdosh bilan: *Har bir ishni shunday qilish kerakki, atrofdagi kishilar sening samimiyl va vijdonli ekanligingni sezib tursinlar.*
3. Sifatdosh bilan: *Bu yerdagilar ham yupqani mazali pishirar ekan;*
4. Sostavli fe’l kesimlar juft fe’llar orqali ham ifodalanadi. Bunda har ikkala komponent ham (yetakchi, ko‘makchi) tuslovchi qo‘sishchalar oladi: *Tez orada butun bir shaharni egalladi-oldi; Men undan shunchaki so‘radim-qo ‘ydim.*

Eslatma: Sostavli fe’l kesimning ikkinchi qismi (yordamchi komponent) boshla, yot, tur, yur, o‘tir, bor, kel, bo‘l, chiq, o‘t, ol, ber, qol, qo‘y, ket, yubor, tashla, sol, tush, ko‘r, qara, boq, bil kabi ko‘makchi fe’llardan iborat bo‘ladi. Bular harakat jarayonining xarakteristikasini, harakatning bajaralishidagi yo‘nalish va boshqa turli modal ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sostavli ot kesim “ot (keng ma’noda, fe’ldan boshqa so‘z turkumi) +bog‘lama vazifasida kelgan yordamchi fe’l” yoki to‘liqsiz fe’l tarzidagi birikishdan hosil bo‘ladi. Bunda asosiy ma’no otdan anglashiladi, bog‘lama yoki to‘liqsiz fe’l esa qo‘sishcha ma’no bildiradi va kesimni ega bilan bog‘laydi.

Sostavli ot kesimning etakchi qismi ot, sifat, son, olmosh, ravish, harakat nomi, mimema (*Auditoriya shovur-shuvur edi*) va bor, yo‘q so‘zлари orqali ifodalanadi. Masalan, *Bu muzey ana shu g‘alabalarning jonli hikoyasi, aniq va yorqin ko‘rgazmasi* (ot) bo‘ldi; *Suhbat qiziqarli* (sifat) bo‘ldi kabi.

Sostavli ot kesimlar quyidagi shakllarda ifodalanishi mumkin.

1. Ot+to‘liqsiz fe’l: *O‘sha kuni ko‘rganimiz tulki edi.*

2. Ot+bo'lmoq, hisoblamoq, sanamoq, atamoq, tuyulmoq kabi bog'lama vazifasidagi yarim mustaqil so'zlar: *Somon birovniki bo'lsa ham, somonxona o'zimniki bo'lsin.*

3. Ot (+dan) +iborat so'zi: *Ular o'n uch kishidan iborat.*

4. Ish oti (+egalik affiksi) +kerak, zarur, lozim, mumkin, shart kabi so'zlar: *Uni barcha kutib olishi kerak; Bu kitobni albatta o'qishing lozim* (shart); *Bir narsani qadrlash uchun uni avvalo yaxshi bilish kerak.*

5. Sifatdosh (+egalik affiksi) +yo'q so'zi (ba'zan bor so'zi): *Komandir doklad qilgani yo'q.*

Sostavli ot kesimning asosiy qismi yordamchi qismdan oldin keladi. Bu hol normal tartibda mavjuddir. Lekin she'riy asarlarda poetik talablarga muvofiq shu normal tartib buzilishi, ya'ni asosiy qism keyingi o'ringa tushushi mumkin.

Masalan, *Ko'p demak bilan bo'lmaq nodon*

Ko'p yemak bilan bo'lmaq hayvon.

III. Murakkab kesimlar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik-semantik munosabatidan tashkil topib, bir butun holda kesim sifatida keladigan morfologik-sintaktik hodisalar murakkab kesim deyiladi. Murakkab kesim quyidagicha ifodalanadi.

1. Qo'shma so'z va so'z birikmali bilan: *Bu-ishlab chiqarish boshqarmasi.*

2. Frazeologik birikmalar bilan: *Mirzakarimboy ilonning yog'ini yalagan; Uning tezda hafsalasi pir bo'ldi.*

3. Son+numerativ so'zlarning qo'shilishidan: *Ozgina yer emas bu. Taxminan chorak kam bir tanob; Mana tog' desang, tog', balandligi uch mingu oltmish sakkiz metr.*

IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLAR

Gapda bosh bo'laklardan boshqa bo'laklar ham qatnashishi mumkin. Lekin ular gapni tashkil etishda, gap hosil etishda asosiy rol o'ynamaydi. Shuning uchun ular gapning ikkinchi darajali bo'laklari hisoblanadi.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari bosh bo'laklarni aniqlash, ularning ma'nosini konkretlashtirish, fikrni to'ldirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, bosh bo'laklarni izohlash uchun xizmat qiladigan bo'laklar gapning ikkinchi darajali bo'laklar deb ataladi. Ikkinchi darajali bo'laklar o'z vazifasiga ko'ra uch xil bo'ladi:

1. Aniqlovchi (izohlovchi).
2. To'ldiruvchi.
3. Hol.

Har bir leksik bo'lakning o'z leksik-semantik va grammatik xususiyatlari bor. Ikkinchi darajali bo'laklar ega va kesimni aniqlab keladi, shuningdek, bir ikkinchi

darajali bo‘lak boshqa bir ikkinchi darajadi bo‘lakni aniqlab kelishi ham mumkin. Masalan, *Yigit so‘l yoqdagi choyxonaning karovatiga o‘tirdi*.

ANIQLOVCHI

Predmetning belgisi (sifatini miqdorini, xususiyati) va qarashliligin anglatuvchi bo‘lak aniqlovchi deyiladi.

Bu o‘rinda belgi tushunchasi keng ma’noda qo‘lanib, sifat-rang-tus, xususiyat, maza, shakl, hajm, miqdor-daraja ma’nolarini ifoda qiladi: *ko‘k daftар, shirin qовун, бaland daraxt, bir qop bug‘doy* va hokazo.

Aniqlovchilar otga bog‘lanadi: *Har qanday odam halol mehnat tufayligina abadiy baxtli bo‘ladi; Duv-duv gap, kulgu hammasi uning ustida edi*.

Aniqlovchi bog‘lanib kelgan ot gapda har qanday bo‘lak vazifasida kelishi mumkin, lekin bu hol aniqlovchiga ta’sir etmaydi. Aniqlayotgan bo‘lak aniqlovchi, aniqlanadigan bo‘lak aniqlanmish hisoblanadi. Masalan, *Bu (aniqlovchi) kitobni (aniqlanmish) o‘qish kerak*.

Aniqlovchi va aniqlanmish bir-biri bilan zich bog‘lanadi hamda ikkalasi bitta, ya’ni aniqlovchili birikmani tashkil qiladi. Ular o‘zi bog‘langan so‘zga tobe hisoblanadi. Aniqlovchi har-xil ifodalanishi mumkin. Shunga ko‘ra ular 2 xil bo‘ladilar.

1. *Sifatlovchi aniqlovchilar.*

2. *Qaratqichli aniqlovchilar.*

Predmetning qandayligini, tusi, xususiyati, mazasi, shakli, xarakteri va shu kabi ma’nolarni anglatgan aniqlovchilar **sifatlovchi aniqlovchilar** deyiladi. Sifatlovchi aniqlovchili birikmalarda birinchi aniqlaydigan bo‘lak-sifatlovchi, ikkinchi aniqlanadigan bo‘lak sifatlanmish deyiladi.

Sifatlovchi aniqlovchi, sifatlanmish bilan bitishuv usuli orqali aloqaga kirishadi. Bunday aniqlovchi bog‘lanishiga ko‘ra bitishuvli aniqlovchidir. Sifatlovchi aniqlovchi quyidagicha ifodalanadi.

1. Sifat bilan: *Yaxshi qiz-yoqadagi qunduz.*

Yaxshi o‘g‘il ko‘kdagi yulduz.

2. Sifatdosh bilan: *Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt; yoki: Zavq uyg‘otar boqqan kishida, Shunga ko‘rkam bo‘lmish paxtazor.*

3. Ravish bilan: *Doktor ancha dori keltirdi.*

4. Son bilan: *Bir odam ariq qaziydi, ko‘p odam suv ichadi; Navoiy turli shoirlarning turli-tuman asarlaridan o‘n minglarcha baytni yod bilardi.*

5. Ot bilan: *Kumush qishdan, zumrad bahordan*

Qolishmaydi kuzning ziynati.

6. Olmosh bilan: *Barcha xalq tinchlikni istaydi.*

7. Taqlidiy so‘z bilan: *Garchand mashhur nomdor, tam-tam chevarlar, Rekordlar qo‘ydi chegara bilmay.*

Biror predmetning boshqa bir predmetga qarashlilagini, xosligini bildirib kelgan aniqlovchilar ***qaratqichli aniqlovchilar*** sanaladi. Masalan, *Olimlarning (qaratqich aniqlovchi) xizmati mangu qoladi; Ota-onaning farzandga mehr-muhabbati hamma narsadan qimmatliroqdir.*

Qaratqichli aniqlovchi ot yoki ot ma’nosidagi so‘z bilan ifodalanib keladi. Masalan, *Mening xalqim do ‘stlik-birodarlikning qadrini biladi.*

Qaratqichli aniqlovchi otlashgan so‘zlar bilan ham ifodalanadi. Masalan, *Yaxshining xayriga baxilning boshi og‘rir; Baxilining bog‘i ko‘karmas; Qo‘rvoqning ko‘zi katta, ahmoqning so‘zi katta .*

Qaratqichli birikmada birinchi bo‘lak qaratqich kelishigida keladi va qaratqich sanaladi. Ikkinci bo‘lak egalik affiksini olib qaralmish sanaladi. Masalan, *Mehmonlar orasida Hirotning (qaratqich) olimlari (qaralmish) ham ko‘pgina edi.* Qaratqich bilan qaralmish shaxs-sonda moslashgan bo‘ladi. Shuning uchun qaratqichli aniqlovchi bog‘lanishiga ko‘ra moslashuvli aniqlovchi deb ham yuritiladi.

Masalan, Mening ukam (I - shaxs)

Sening ukang (II – shaxs)

Uning ukasi (III - shaxs)

Yuqoridagi holatda nafaqat birlik formasida, balki qaratqich va qaralmish ko‘plik formasida ham shu shaklda shaxs va sonda moslashishi mumkin. Lekin qaratqich bilan qaralmish orasida kelishik qo‘srimchasi ham ishtirok etadi. Bundan ko‘rinadiki qaratqich bilan qaralmish o‘zaro moslashuv usuli bilan sintaktik munosabatga kirishadi. Qaratqich aniqlovchi kelishik affiksini saqlash - saqlanmasligiga qarab 2 xil bo‘ladi. Ular:

1. Belgili qaratqichli aniqlovchi.

2. Belgisiz qaratqich aniqlovchi.

1. Belgili qaratqich aniqlovchilarda qaratqich kelishik qo‘srimchasi qaratqich aniqlovchi tarkibida ifodalanadi. Masalan, *Odob kishining ziynati, ko‘rki; Shoiring yuragi o‘tdek yonmasa,*

Taftidan bahramand bo‘ladi kim ham.

Taftidan bahramand bo‘lib qolmasa,

Kitobxon der albat, barham top, barham.

2. Belgisiz qaratqichli aniqlovchilarda qaratqich kelishigining affaksi yashiringan (belgisiz, shaklan ifodalanmagan) bo‘ladi. Masalan, *Bemor ko‘nglini ko‘tarmoq, unga yarim sog‘lik baxsh etishdir; Sof yurak boshqalar baxtsizligi tufayli qurilgan baxtni qabul qila olmaydi.*

Qaratqichli aniqlovchi ham quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi.

1. Ot bilan: *Botirning mushti ham yarog*. *Qozonning qorasi yuqar, yomonning balosi yuqar.*
2. Sifat bilan: *Yomonning yaxshisi bo‘lguncha, yaxshining yomoni bo‘l.*
3. Son bilan: *O‘nning yarmi besh; Birining ko‘zi qora, ikkinchisining bo‘yi uzun.*
4. Olmosh bilan: *Hammasing niyati bir xil; Bizning institutimiz hali navqiron.*
5. Sifatdosh bilan: *O‘qiganning tili uzun.*
Ko‘rganning kuni ortiq.
6. Harakat homi bilan: *Yugurmoqning foydasi katta.*

IZOHLOVCHI

Aniqlovchilarning yana shunday turi ham mavjudki, ular predmet yoki shaxsni qayta nomlash uchun qo‘llanilganligi uchun ham bu xil ko‘rinishi izohlovchi deyiladi. Shu tufayli izohlovchi aniqlovchining bir turi hisoblanadi. Aniqlovchining boshqa turlari kabi izohlovchi ham gapning har qanday bo‘lagiga tegishli bo‘lib kelishi mumkin. Izohlovchi o‘zi aniqlab kelayotgan so‘zning - izohlanmishning xususiyati - holatini aniqlaydi. U aniqlovchiga o‘xshasa ham, uning aniqlash xususiyati aniqlovchiga nisbatan boshqacharoq bo‘ladi. Masalan, *Oshpaz kampir choy damlab keldi*.

Izohlovchi izohlanmishga bog‘lanib kelib turli tomondan xarakterlanadi va aniqlanadi.

1. Izohlovchilar birinchidan predmetning nomini bildiradi. Masalan, “*Ma‘rifat*” gazetasi; “*O‘rtoq*” fabrikasi.
2. Mashg‘ulot, kasb, mutaxassislikni bildiradi. Masalan, *Professor Karimov keldi; Temirchi Jo‘ravoy*.
3. Laqab yoki taxallusni bildirib keladi. Masalan, *Ayvon pastida Soli sovuq, Juman pismiq qo‘l qovushtirib turardi; Otaqo‘zi o‘g‘li Rahmatulla -Uyg‘un yirik so‘z ustalaridandir*.
4. Millatni, ko‘rsatib keladi. Masalan, *Sartaev Umarali, Berdi tatarning tantanasiga qo‘shilib kulardi*.
5. Qarindoshlikni ko‘rsatib keladi. Masalan, *Xolbuvi xola*.
6. Tur-jins tushunchalarini ko‘rsatib keladi. Masalan, *Ular suv bo‘yida o‘tirgan uch qiz bola bilan so‘rashishdi*.
7. O‘xhashlikni bildirib kelishi mumkin. Masalan, *Ona-vatanga mo‘l-ko‘l oq-oltin beramiz*.

Taxallus, o‘xhashlik ma’nolarini bildirgan izohlovchilar bilan izohlanmish orasiga defis-chiziqcha qo‘yiladi.

TO‘LDIRUVCHI

To‘ldiruvchi gapning biror bo‘lagi ma’nosini to‘ldirib kelib, o‘sha bo‘lakka boshqaruv yo‘li bilan bog‘lanadi. To‘ldiruvchi ish harakat ob‘yekti sanaladi. To‘ldiruvchi boshqaruvchi so‘zning talabiga ko‘ra biror kelishikda yoki ko‘makchi bilan keladi. To‘diruvchilar kimni?, nimani?, kimga?, nimaga?, kimda?, nimada?, kim bilan?, nima bilan? kim uchun?, nima uchun? kim to‘g‘risida?, nima to‘g‘risida? kabi so‘roqlarning biriga, javob bo‘lib keladi. Masalan, *Qo‘rkoq do‘sst dushman dan xavflidir, chunki dushman dan ehtiyoj bo‘lasan, ammo do‘stga ishonasan.*

To‘ldiruvchi fe‘l kesimdan tashqari fe‘l formalari bilan ifodalangan boshqa biror bo‘lakka ham bog‘lanib kelishi mumkin, ya’ni ega, aniqlovchi, tuldiruvchi, holga bog‘lanib kelishi ham mumkin. Masalan, *Turmushning o‘zi dehqonlarni birlashishga undaydi* (bu gapda to‘ldiruvchiga bog‘langan). Yoki: *Og‘ziga kelganini gapirmoq nodonlar ishi* (to‘ldiruvchi egaga bog‘lanmoqda).

1. To‘ldiruvchi odatda ot, olmosh bilan ifodalananadi. Masalan, *Maktab, o‘quvchilarni o‘qitib qolmay, ularning barcha ma’naviy va jismoniy kuchlarini o‘stiradi, ulardan g‘ayratli grajdalar yetishtiradi* (ot va olmosh bilan ifodalangan).

2. Sifat bilan ifodalananadi.

Masalan,

*Yaxshini maqtagan yarashur,
Yomonni maqtagan adashur.*

3. Son bilan ifodalananadi. Masalan, *Beshni beshga qo‘shsak o‘n bo‘ladi. Birni birov beradi, ko‘pni mehnat.*

4. Sifatdosh bilan ifodalananadi. Masalan, *Ko‘rganni eshitgan yengar. Kengashganga keng dunyo, talashganga tor dunyo.*

5. Harakat nomi bilan ifodalananadi. Masalan, *Sening kulib boqishlaringni bir zum unutmayman. O‘qishni chidaganga chiqargan.*

6. Modal so‘z bilan ifodalananadi. Masalan, *Yo‘jni kerak topdirar.*

7. Taqlidiy so‘z bilan ifodalananadi. Masalan, *Qiy-chuvni bas qil va hokazo.*

To‘ldiruvchilar ayrim hollarda birikmali tarzida ham kelishi mumkin. Masalan, *Elmurod tobora kunlarning qanday o‘tayotganini sezmay boshladi.* To‘ldiruvchi o‘zi tobe bo‘lib kelgan bo‘lagi bilan bog‘lanishiga ko‘ra 2 xil bo‘ladi.

1. Vositasiz to‘ldiruvchi.

2. Vositali to‘ldiruvchi.

Fe‘l bilan ifodalangan harakatni bevosita o‘z ustiga olgan ob‘yekt vositasiz to‘ldiruvchi sanaladi. Vositasiz to‘ldiruvchilar kimni?, nimani? qayerni? so‘rog‘iga javob bo‘lib tushum kelishigida kelgan so‘z bilan ifodalananadi. Masalan, *Odam boylikni doim topa oladi, lekin boylik odamni topa olmas.* Yuqoridagilardan ko‘rinadiki vositasiz to‘ldiruvchi o‘timli fe‘l bilan aloqaga kirishadi va o‘timli fe‘l tomonidan boshqariladi. Harakatni o‘ziga qabul qilib kelgan ob‘yekt ba’zan tushum kelishigida emas, balki chiqish kelishigidagi so‘z bilan ifodalanishi mumkin. Bu

holda harakat predmetga to‘lig‘icha o‘tmasdan, balki qisman o‘tadi. Masalan, “*Nonni yeng*”, -deb aytsak, bu holda nonning "hammasini yeng" degan ma’no kelib chiqadi. Agarda “*nondan yeng*”, desak u holda nondan bir parcha yeng degan ma’no anglashiladi.

Vositasiz to‘ldiruvchi 2 xil bo‘ladi.

A) Belgili vositasiz to‘ldiruvchi.

B) Belgisiz vositasiz to‘ldiruvchi.

Vositasiz to‘ldiruvchining bunday holatda kelishi ma’no va grammatick talabga ko‘ra bo‘ladi. Quyidagi hollarda vositasiz to‘ldiruvchi belgili bo‘lib kelishi mumkin.

1. Agar so‘zlovchi o‘ziga avvaldan ma’lum bo‘lgan predmet haqida gapisra, shu vaqtda u belgili bo‘lib keladi. Masalan, *Kitobni keltirdim*.

Predmetning biror turi umuman ifodalanganda (-ni affiksi tushiriladi: *Kitob keltirdim*).

2. To‘ldiruvchi atoqli ot yoki kelishik olmoshi bilan ifodalanganda. Masalan, *Mening harbiy kiyimim, yulduzim shapkam uni (Yodgorni) juda qiziqtirardi*.

3. Agarda to‘ldiruvchi sifat, sifatdosh va ko‘rsatish olmoshi bilan ifodalangan aniqlovchi bilan birlashtiriladi. Masalan, *Ha, ba’zan dildagi so‘zni aytolmaysan kishi*.

4. To‘ldiruvchi otlashgan so‘zlar bilan ifodalansa. Masalan, *Yaxshini ko‘rib fikr qil, yomonni ko‘rib shukr qil*.

5. To‘ldiruvchi egalik affiksini qabul qilib kelsa. Masalan, *Haydar jonajon kolxozi uchun, o‘z hunari uchun hayotini berishga tayyor*.

6. Agarda vositasiz to‘ldiruvchi logik urg‘u bilan aytilsa. Masalan, *Gulni senga olib keldim*.

To‘ldiruvchi tushum kelishigi affiksi yashirinsa, belgisiz vositasiz to‘ldiruvchi sanaladi. Masalan, *Studentlar imtihon topshirayaptilar*.

Vositali to‘ldiruvchilar harakatga boshqa biror yo‘l bilan (harakat biror vosita orqali o‘ziga qaratilgan) bog‘langan predmetni ko‘rsatadi.

Vositali to‘ldiruvchilar jo‘nalish, o‘rin-payt, chiqish kelishiklari affikslarini olib yoki ayrim ko‘makchilar bila birga ifodalaniib, kim (-ga, -da, -dan)? nima (-ga, -da, -dan)? so‘roqlariga yoki shu xil formadagi kim bilan? kim uchun? kim orqali? nima bilan? nima uchun? nima orqali? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Vositali to‘ldiruvchilar kelishik hamda ko‘makchili konstruktsiyada kelgan so‘zlar bilan ifodalananadi. Masalan, *Uyat o‘limdan qattiq; Dilbar hayoda, kamtarlikda juda tengsiz; Qudrat ishga boshi bilan sho‘ng‘ib ketdi, o‘z yangi rejalarini bilan band*.

Vositali to‘ldiruvchilar ham vositasiz to‘ldiruvchilar kabi boshqaruvli so‘z birikmasini ifodalash uchun xizmat qiladi. Masalan, *U xatni qalamda yozdi*.

To‘ldiruvchilar ko‘makchili konstruktsiya holida ham bo‘ladi.

1. **ilan** ko‘makchisi orqali ifodalangan to‘ldiruvchilar:
 - a) birgalikni anglatadi: *Karim kinoga kechagi studentka bilan ketdi.*
 - b) biror holatni nima bilan mavjudligini bildiradi: *Bochka suv bilan to ‘la va hokazo.*

2. **uchun** ko‘makchisi bilan ifodalangan to‘ldiruvchilar nomni, sub’yektini ifodalarydi: *Bu hikoyani Muxtor uchun yozdim.*

Hol

Ish-harakatning qay tarzda bajarilishini, sababi yoki maqsadini, uning bajarilishi bilan bog‘liq bo‘lgan o‘rin va paytni ifoda qiluvchi gap bo‘lagi hol deb ataladi. Hollar qanday qilib? qanday? qachon? necha? nima uchun? qayerda? qayerdan? qayerga? qancha? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘lib keladi. Hol doim fe’l kesimga tobelanish yo‘li bilan aloqalanadi.

Hol quyidagi so‘z turkumlari bilan ifodalanadi:

1. Ravish bilan ifodalanadi: *Poyezd raz’yezddan asta-sekin qimirlay boshladi. Biz tez yurdik. U sekin ishladi.*
2. Ravishdosh bilan ifodalanadi: *Xona eshigi g‘iyq etib ochilib, Yaxshibek Toyloqov keldi.*

3. Ot jo‘nalish, chiqish, o‘rin-payt kelishigida kelib yoki ko‘makchi bilan kelib, gapda hol vazifasida keladi. Masalan, *Samarqandga bordik. Toshkentdan keldi. Jizzaxda yashaymiz. Diqqat bilan tingladik.*

4. Hol taqlid so‘z bilan ham ifodalanadi: *Turg‘unoy... Mastonning yelkasiga boshini qo‘ydi va piq-piq yig‘ladi.* (A.Q)

5. Son bilan ifodalanadi. Bunda son marta, karra so‘zlarini olib keladi: *Jamila Mapassanni o‘n marta o‘qib chiqdi. Machitning qator uch hujrasidan biri maktab, ikkinchida domlamiz o‘tirar edi, uchunichisiga aka-uka Qutbiddin va Husniddinlar ko‘chib kelishdi* (A.Q)

6. Olmosh bilan ifodalanadi: *Shu-shu ko‘rinmay ketdi.*

Hollar ma’no jihatidan bir necha turli bo‘ladi. Ular ravish (tarz yoki baziyat deb ham yuritiladi) holi, o‘rin holi, payt holi, sabab holi, maqsad holi, miqdor-daraja holi, to‘siksizlik holi, shart holi.

Ravish holi ish-harakatning qay tarzda bajarilishi yoki qanday bo‘lishini anglatadi. Ravish holi qanday? qanday qilib? qanday holda? Degan so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Masalan, *Salim kulib gapirdi.*

Ravish holi quyidagi so‘z turkumlari orqali ifodalanadi.

1. Holat ravishi bilan: *Ular juda sekin yurishdi.* (O)
2. Sifat bilan: *U yashaydi besitam, beozor...* (H.O.).
3. Ravishdosh bilan: *Shu payt chorborg‘dan echki yetaklab Dildor kirib keldi* (S. Ahmad). *Sochiga bitta -ikkita oq oralagan xotin chiqib eshikni ochdi.* (A.Q.)
5. Taqlid so‘z bilan: *Gulnorning yuragi zir titrardi.*

O‘rin holi ish-harakatning bo‘lish, yo‘nalish, boshlanish o‘rnini bildirib, qayerda? qayerdan? qayerga? qayergacha? kabi so‘roqlarga javob bo‘ladi. Anglatgan ma’nosiga ko‘ra o‘rin holi uch xil:

1. Ish-harakatning bo‘lish o‘rnini bildirib, qayerda? degan so‘roqqa javob bo‘ladi va o‘rin kelishigida keladi. Masalan, *Men Jizzaxda institutda o‘qiyma*.

2. Ish-harakatning yo‘nalish o‘rnini bildirib, qayerga? degan so‘roqqa javob bo‘ladi. Bunda o‘rin holi jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan ba’zan esa ko‘makchili so‘z bilan (keladi) ifodalanadi. Masalan,

*Buyuk poytaxtga kirib boraman,
Uyg‘oq ko‘zlarimda erur sovuq tun.
Quyosh va yulduzdan yaralgan olam
Zehnim, hayolimni etmishdir maftun.* (H.O)

O‘rin holi harakatning bo‘lishidagi eng so‘nggi chegarani ifoda qilib, -gacha, -ga qadar, -ga dovur kabi formada kelishi ham mumkin: *U Jamilani vokzalgacha kuzatib qo‘ydi*.

3. Harakatning bog‘lanish o‘rnini ifoda qilib, qayerdan? degan so‘roqqa javob bo‘ladi. O‘rin holining bu turi chiqish kelishigidagi so‘z bilan ifodalanadi. Masalan, *Dadam Toshkentdan kecha tongda kelgan edi*.

Payt holi ish harakatning bajarilish paytini, uning chegarasini bildirib, qachon? qachongacha? qachondan beri kabi so‘roqlarga javob bo‘lib keladi. Payt holi asosan payt ravishi, o‘rin, chiqish, jo‘nalish kelishigidagi so‘zlar bilan hamda ko‘makchili so‘zlar orqali ifodalanadi. Masalan, *Erta-indin bu yerlar ham chamandek yashnaydi*. (Sh.R.) *Taqsir, oyda-yilda bir keladigan ro‘zani nima qilamiz tutib, quying, o‘ynasin!* ("Afandi latifalari")

Payt holi:

1. Harakatning bajarilishidagi paytni bildiradi. Masalan, *Kechqurun qo‘mita a’zolari do‘stlik klubiga yig‘ilishga keldilar*.

2. Harakatning bajarilishidagi chegarani bildiradi. Bunda payt, bildiruvchi so‘zga -gacha, -ga dovur, -ga qadar, -dan beri, -dan buyon formalari qo‘silib keladi. Masalan, *Meni ertalabdan beri kutayotgan edi*.

Sabab holi ish harakatning bajarilish sababini anglatib nimaga? nima uchun? nima sababdan? nega? degan so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Sabab holi vazifasidagi so‘z ko‘pincha uchun, sababli, tufayli kabi ko‘makchilar bilan birga keladi. Masalan, *Kichik ariqqa hali suv kelmagani uchun Gulnor chelak ko‘tarib, katta ariqqa jo‘nadi*. (O)

Sabab holi chiqish kelishigidagi so‘z bilan ham ifodalanadi: *Joni xalqumiga kelgan Sattor alamidan baqirib yig‘lab yubordi*. (A.M.)

Maqsad holi ish-harakatning bajarilishidagi maqsadni anglatib, nima uchun? nimaga? nima maqsadda? kabi so‘roqlarning biriga javob bo‘ladi. Maqsad holi

ko‘pincha uchun, maqsadida kabi ko‘makchi so‘z yordamida ifodalanadi. Masalan, *Buyuk kishilar doim insoniyat uchun qayg‘uradi*. (Sh.) *U Dilso ‘zni ko‘rish maqsadida Samarqandga tez-tez kelib turardi*.

Maqsad holi jo‘nalish kelishigidagi so‘z bilan ham ifodalanishi mumkin: *Jizzaxga o‘qishga, bilim olmoqqa kelganmiz*.

Miqdor (daraja) holi ish-harakatning bajarilishini miqdor va daraja jihatdan aniqlab, qancha? necha marta? qanchalik? qanchalab? qay darajada? kabi so‘roqlarining biriga javob bo‘ladi. Ular quyidagicha ifodalanadi. Masalan, *Gapni kam gapir, Ishni esa ko‘paytir*.

1. Miqdor (daraja) holi ko‘pincha ko‘p, oz, biroz, bir muncha kabi miqdor-daraja ravishlari bilan ifodalanadi: *Ko‘p o‘yla, oz so‘zla* (maqol)

2. Sonlar ham hol vazifasida keladi (unda asosan marta so‘zi ko‘p qo‘llanadi): *Bolalarning har bittasi o‘n martadan “dadam qayda?” deb so‘rasa, har kuni qirq marta shu savolni eshitadi* (S.Zunnunova).

3. Ot bilan ifodalanadi: *Olma-anorni yashik-yashik olib kelishadi*.

4. Olmosh bilan ifodalandi: *Bu voqeaga qancha bo‘ldi?*

To‘siksiz holi ma’lum bir harakatning bajarilishida to‘siq, zidlik bo‘lishga qaramay, shu harakatning bajarilishini anglatadigan bo‘lak to‘siksiz holi deyiladi. To‘siksizlik hollari nimaga qaramasdan? nimaga qaramay? nima demay? so‘roqlariga javob beradi va ular ikki xil ko‘rinishga ega:

1. Ichki to‘siksizlikni ko‘rsatadi, bunda kesimdan anglashilgan harakat bir shaxs, predmetga tegishli bo‘ladi. *Men xohlasam-xohlamasam, olti oyiga qatnashim shart* (S.Ayniy).

2. Tashqi to‘siksizlikni ko‘rsatuvchi biror shaxs biror predmet hususiyatining bajarilishiga to‘siq bo‘la olmasligini ko‘rsatadi: *Oysulton juda charchadi, shunga qaramay, yana shuncha yurgisi kela berdi* (B.Kerboboev)

Shart holi harakat ifodalaydigan bo‘lakka bog‘lanib shu bo‘lak orqali anglashilgan harakatning sodir bo‘lishidagi sharoitini ko‘rsatadi va o‘zi aloqalanadigan bo‘lakka -sa affaksi orqali bog‘lanadi: *Borsam, injenerni boshlab kelaman* (Oybek). Shart holi gaplarda sub’yektning bajarilishi mo‘ljallangan, biroq hali yuzaga kelmagan ikki xil harakat ideyasi bo‘ladi. Bulardan biri hol-yordamchi harakat, ikkinchisi hol bog‘langan so‘z-asosiy harakat orqali anglashiladi. Asosiy harakatning vujudga kelish-kelmasligi, harakatning bajarilish-bajarilmasligiga bog‘liq: *Sirni sizga aytganimni bilib qolishsa o‘ldirishadi* (G‘.G‘ulom). *Meni ko‘rsa tag‘inam hursand bo‘lib ketishadi* (Z.Diyor)

Gapda so‘zlar tartibi

(Gap bo‘laklarining tartibi)

Gapda so‘zlar tartibi gap bo‘laklarining nutqda o‘rinlashishini bildiradigan sintaktik hodisadir. O‘zbek tilida so‘zlar tartibi, asosan, erkin, lekin unda so‘zlarning bog‘liq tartibi ham uchraydi. O‘zbek tilida ko‘pincha gap tarkibidagi bo‘laklar o‘rni o‘zgartirilganda ham mazmun va grammatik holat keskin o‘zgarmaydi. Faqat gapdan kelib chiqadigan stilistik maqsad o‘zgarishi mumkin. Masalan, *Bolalar chaqqon yugirishdi* (chaqqon). *Chaqqon bolalar yugirishdi.* (bolalar) kabi. Yoki:

1. *Kecha akam samalyotda Moskvadan Rigaga ketdi.* (boshqa yerga emas, Rigaga)
2. *Kecha akam samalyotda Rigaga Moskvadan ketdi.* (boshqa yerdan emas, Moskvadan)
3. *Kecha akam Moskvadan Rigaga samalyotda ketdi.* (boshqa narsada emas, samalyotda)
4. *Kecha samalyotda Moskvadan Rigaga akam ketdi.* (boshqa kishi emas, akam)
5. *Akam samalyotda Moskvadan Rigaga kecha ketdi.* (boshqa kuni emas, kecha) kabilar.

Yuqoridagi misollardan ham ko‘rinib turibdiki, gap bo‘laklari maxsus grammatik vositalar-morfologik ko‘rsatgichlar bilan shakllanganda, ularning o‘rni almashtirilsa ham, gapda fikriy holat o‘zgarmaydi. Tartib o‘zgarishi stilistik rol o‘ynaydi. Lekin gap bo‘laklari morfologik ko‘rsatgichlarsiz (egalik, kelishik, kesimlik, ko‘makchi kabilarsiz) shakllanganda, bo‘laklar o‘rnini o‘zgartirish, fikriy o‘zgarishga, yangi konstruktsianing tug‘ilishiga sabab bo‘ladi. Bunda intonatsianing ham roli mavjud. Quyidagi holatlarda tartib o‘zgarishi fikr o‘zgarishiga va yangi konstruksiya paydo bo‘lishiga olib keladi. Masalan,

1. Kesim kesimlik affikslarisiz shakllansa: a) *Yetti kun-bir hafta*, yoki *Bir hafta-yetti kun.* b) *O‘zbekistonning poytaxti-Toshkent*, yoki *Toshkent - O‘zbekistonning poytaxti.*

2. Aniqlovchi va aniqlanmish shaklidagi so‘z birikmalarining tartibi o‘zgartirilsa, yangi konstruksiya (gap) hosil bo‘ladi: a) *yaxshi bola - Bola-yaxshi.* b) *Tog‘ etagi - etagi-tog‘.* c) *Mehribon ona-onamehribon.* d) *Aktiv student - Student-aktiv.*

O‘zbek tilida so‘zlar tartibi asosan erkin bo‘lsa ham, sodda gapning har bir bo‘lagining o‘z qo‘llanadigan o‘rni bor. Bu gapning strukturasi, gap bo‘lagining sintaktik ifodalanish usuli, u bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa so‘zlarning o‘rni kabi hodisalar bilan belgilanadi. Shunga ko‘ra so‘zlarning to‘g‘ri (odatdagi) tartibi va teskari tartibi (inversiya hodisasi) farq qilinadi.

To‘g‘ri tartibni normal hol, teskari tartibni (inversiyani) nonormal hol deb tushinish to‘g‘ri emas, ularning o‘z qo‘llanish o‘rni bor. To‘g‘ri tartib ilmiy asarlarda keng qo‘llanilsa, inversiya badiiy asarlar uchun xarakterlidir.

To‘g‘ri tartibda bo‘laklarning joylashishi quyidagicha:

1. Ega va kesim tartibida ega birinchi, kesim ikkinchi.

2. Qaratqichli birikmada qaratqich birinchi, qaralmish ikkinchi.

3. Sifatlovchi birikmada sifatlovchi birinchi, sifatlanmish ikkinchi.

4. Izohlovchili birikmada mustaqil izohlovchi izohlanmishdan keyin: *Biz tinchlik uchun kurashamiz*. Mustaqil bo‘laman izohlovchilar izohlanmishdan oldin ham, keyin ham kelaveradi: *temirchi Jo‘ra, General Raximov; Juman pismiq, Jo‘ra kofir*.

5. To‘ldiruvchi birikmada. To‘ldiruvchi birinchi u bog‘langan so‘z keyinda keladi: *Kolxozchilar planni bajardilar*.

6. Holli birikmada hol oldin u bog‘langan so‘z keyin keladi: *Jo‘jani kuzda sanaydilar*.

Bo‘laklarning teskari tartibida, ya’ni inversiya holatida eganing kesimdan keyin kelishi kuzatiladi va shu inversiyaga asos bo‘ladi.

Inversiya hodisasi quyidagi hollarda sodir bo‘ladi:

1. Shior tipidagi undov va buyruq gaplarda: *Yashasin bizning mash’allarimiz* (“Xalq so‘zi”)

2. So‘zlashuv nutqida kesimga ko‘proq e’tibor qaratilganda kesim egadan oldin keladi: *Hammani ovvora qildi bu shumtakalar* (“Mushtum”)

3. Ko‘chirma gapdan so‘ng qo‘llanilgan muallif gapida kesim egadan oldin keladi: *-Bu qog‘ozlar taxminlarga asoslangani uchun hujjat bo‘lolmaydi, -dedi Yagona* (I.Raxim)

4. She’riyatda vazn, qofiya va turoq kabi talablar natijasida ega va kesim inversiyaga uchraydi:

*Jahon bo‘ylab uchib yurar
Oq kabutar-kumush qush,
Tinchlik qushi, hayot qushi,
Najot qushi, erk qushi* (Uyg‘un).

5. To‘ldiruvchi va to‘ldirilmish inversiyaga uchrashi mumkin: 1) *Ket, ko‘rinma ko‘zimga*. 2) *Ularning aybi yo‘q dedim-ku... Yana nima kerak sizga?* (I.Raxim)

6. Kesim holdan oldin keladi: *Suvni tekis ichadigan yo‘sinda jo‘yak oldirasan keyin. Kino boshlandi kech soat sakkizda*.

7. Sifatlovchi sifatlanmishdan, qaratuvchi qaralmishdan oldin keladi: *Ona sevmas, farzand topilmas, farzand yo‘qdir onani sevmas.* (H.Olimjon) *Beti qursin o‘shaning.* (“Sharq yulduzi”)

NAZORAT SAVOLLARI

1. Gap bo‘laklari deganda nimani tushinasiz?

2. Gap bo‘laklari darajasiga ko‘ra necha xil?

3. Qanday bo‘laklar bosh bo‘lak hisoblanadi?
4. Ega va uning ifodalanishi haqida ma’lumot bering
5. Kesim va uning ifodalanishi haqida ma’lumot bering
6. Gapda ikkinchi darajali bo‘laklar qanday vazifa bajaradi?
7. Aniqlovchi haqida ma’lumot bering. Izohlovchi qanday bo‘lak?
8. To‘ldiruvchi haqida ma’lumot bering
9. Hol haqida ma’lumot bering
10. Gapda bo‘laklarning tartibi qanday; inversiya hodisasi nima?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Gap bo‘lagi-gapning boshqa bo‘laklari bilan o‘zaro uzviy bog‘langan, uzviy munosabatga kirishgan organik qismidir.
2. Bosh bo‘laklar-gapning struktura asosini hosil qiluvchi bo‘laklar.
3. Ikkinchi darajali bo‘laklar-bosh bo‘laklarga tobe munosabatda bog‘lanib, ularni aniqlash, to‘ldirish, izohlash uchun xizmat qiladigan bo‘laklar.
4. Inversiya-ega va kesimning o‘rni almashish hodisasi, ya’ni teskari tartibdir.

BIR SOSTAVLI GAP VA UNING TURLARI.

REJA:

1. Bir sostavli gap va uning turlari yuzasidan ma’lumot.
2. Shaxsi aniq gaplar.
3. Shaxsi noma’lum gaplar.
4. Shaxsi umumlashgan gaplar.
5. Shaxssiz gaplar.
6. Nominativ gaplar (Atov gaplar)
7. Vokativ gaplar
8. Infinitiv gaplar.
9. Bo‘laklarga ajralmaydigan (so‘z gaplar) gaplar.

MATN

Struktura asosi bir sostavdan tashkil topgan gaplar bir sostavli gaplar deyiladi. Hozirgi kunda ayrim darslik va uslubiy qo‘llanmalarda ular bir bosh bo‘lakli gaplar deb ham yuritilmoqda. “O‘zbek tili grammatikasi” darsligida esa (G‘.Abdurahmonov, Toshkent, 1996 yil) ega yoki kesimi grammatik jihatdan ifodalanmagan gaplar bir sostavli gaplar deb hisoblanadi. Ushbu ta’riflarning barchasi u yoki bu darajada bir sostavli gap xarakterini yoritib beradi. Chunki bir sostavli gap deganda ega yoki kesim sostavidan biri tushunilmaydi. Sababi, bir sostavli gaplar qismlarga, ya’ni sostavlarga bo‘lib o‘rganilmaydi. Masalan, shaxsi noma’lum, shaxsi umumlashgan,

shaxssiz gaplar shakl jihatidan kesim sostavidan iborat bo‘ladi. Bunday gaplarda grammatik ega mavjud emas. (*Darslar to ‘liq o ‘tildi*), biroq bu mazkur gapning kesim sostavi deyishga imkon bermaydi. Chunki kesim sostavi deyilsa, ega sostavini talab qiladi va uni ko‘rsatishga to‘g‘ri keladi. Holbuki, “*Darslar to ‘liq o ‘tildi*” tipidagi bir sostavli gaplarda ega yoki kesim sostavini ajratib bo‘lmaydi, bu talab ham qilinmaydi. Bir sostavli gaplarni ega yoki kesim sostaviga nisbatlab o‘rganish mumkin emasligi nominativ, infinitiv gaplarda yanada aniq seziladi.

Ba’zi ikki sostavli gaplarning ega yoki kesimi yashirinishi ham mumkin. Bu holatda gaplar ikki sostavli hisoblanaveradi, chunki yashiringan ega yoki kesimni topib, shu jumla tarkibiga kiritish mumkin.

Bir sostavli gapning esa, ega yoki kesimi yashirinmaydi va ularni topish ham jumlaga kiritish ham mumkin emas. Buning sababi shundaki, bir sostavli gaplarda ega ifodalangan bo‘lsa, kesimning mazmuni eganing mazmuni orqali bilinadi yoki kesim ifodalangan bo‘lsa, eganing mazmuni kesimning mazmunidan anglashilib turadi. Demak, bir sostavli gaplarda ega yoki kesim yashirinmaydi, balki har ikkala bo‘lak mazmuni bir bo‘lakda ifodalanadi. Shunday ekan bir sostavli gaplar bir bosh bo‘lakli bo‘ladi. Bu bo‘lak o‘zi alohida yoki o‘z sostavi bilan kengayib kela oladi. Masalan, *Tong. Chekilmasin. Ilmni mehnatsiz egallab bo‘lmaydi*.

O‘zbek tilida bir sostavli gaplar quyidagi turlarga bo‘linadi: shaxsi aniq gaplar, shaxsi noma'lum gaplar, shaxsi umumlashgan gaplar, shaxssiz gaplar, nominativ (atov) gaplar, vokativ gaplar, infinitiv, bo‘laklarga ajralmaydigan (so‘z gaplar) gaplar.

SHAXSI ANIQ GAPLAR

Bu turdagи bir sostavli gaplarning egasi bo‘lmaydi. Gapning struktura asosida bosh bo‘lagi kesimdan iborat bo‘ladi. Kesim esa fe’lning uchala shaxs shakli bilan ifodalanadi. Shuning uchun ham kesimga qarab, harakat qaysi shaxs (men-biz, sensiz, u-ular) tomonidan bajarilayotganini aniqlash mumkin bo‘ladi. Demak, bunday gaplarda harakatning bajaruvchisi aniq ham bo‘lmaydi. Harakatni bajaruvchi shaxs fe’lning shaxs shakllari bilan ifodalanadi. Bu kabi qurilmalarga kishilik olmoshlarini kiritish gap mazmunini ham, strukturasini ham, tabiatini ham o‘zgartirib yuboradi: *Mirqosim La ’lining tepasiga bordi: Ketdik* (H.G‘ulom). Bunda biz olmoshini kiritish gap mazmunini qiyoslash-zidlash (*Biz ketdik, siz qolasiz*) ma’nosini anglatib, ikki sostavli gapga aylanadi. Shaxsi aniq gaplar tarkibida ega uslubiy qo‘llanmasa ham, kesim orqali egani toppish mumkin bo‘ladi. Masalan, Ertaga universitetda uchrashamiz (Biz ertaga universitetda uchrashamiz). Yaqinda Toshkentga boraman (Men yaqinda Toshkentga boraman).

Shaxsi aniq gaplarning bosh bo‘lagi-kesimi quyidagicha ifodalanadi:

1. O‘tgan zamон shakli bilan: -*Keldingmi, qizim?* (A.Q.). -*O’shga sayohat qildilarmi, mulla aka?* (A.S.). -*Xush ko‘rdik, Oyxon.*

2. Hozirgi zamon shakli bilan: *Ishlaringiz qalay, -so 'radi Toshpo 'lat aka ko 'rishar ekan.*

-*Yomon emas.*

-*Ko 'rayapman, yomon emas* (“O‘zbekiston ovozi”)

3. Hozirgi-kelasi zamon shakllari bilan: *-Bajaraman, o 'rtoq general* (Yashin)

4. Kelasi zamon shakllari bilan: *Rahimov. Hali bu oyoq bilan Visla, Oderdan o 'tib, Berlinga kirib bormoqchi edik-ku!* (Yashin).

5. Buyruq-istik mayli shaklari bilan: *Yo 'qol, ko 'zimga ko 'rinma* (I.Rahim). *Aylanay, qizim, shirin qizim, yig 'lama!* (Yashin). *Guvoх bo 'ling, do 'stlar, shu mening o 'g 'lim bo 'ladi* (G‘.G‘ulom)

6. Shart-istik mayli shakli bilan: *Kirsak maylimi?* (S.Zunnunova). -*Hoy bolam, namuncha qovog 'ingdan qor yog 'ilib turibdi, ayta qolsangchi, kim kelyapti* (G‘.G‘ulom).

SHAXSI NOMA'LUM GAPLAR

Shaxsi noma'lum gaplarda ish-harakatni bajaruvchi shaxsni aniqlab bo'lmaydi va u noaniq bo'ladi, ya'ni bajaruvchi shaxs grammatik jihatdan shakllanmaydi. Demak, bunday gaplarda ega noma'lum bo'lib, gapning bosh bo'lagi kesimdan iborat bo'ladi. Kesim ko'pincha fe'lning III shaxs shakllari bilan ifodalanadi. Masalan, *Bitiruvchi kurs uchun davlat attestatsiyasi savollarini vazirlikdan yuborishdilar*. Bu misolda vazirlikdan yuboruvchilar (bajaruvchi-sub'ekt) borday ko'rindi, lekin *Ular vazirlikdan yborishdilar* deb ega o'rnida *ular so'zini qo'yib ko'rsak*, gapning mazmuniga mos kelmaydi. Chunki, gapning mazmunida “*Bitiruvchi kurs uchun davlat attestatsiyasi savollarini vazirlikdan yuborishdilar*” degan mazmun bor. *Bilib qo 'ying, adabingizni berib qo 'yadilar. Yana hujum boshladilar.*

Shaxsi noma'lum gaplarning bosh bo'lagi-kesimi quyidagi shakllar orqali ifodalanadi:

1. O‘tgan zamon shakli bilan: *Qush edim qanotimni qayirdilar, gul edim bulbulimdan ayirdilar* (H.H.Niyoziy).

2. Hozirgi zamon shakllari bilan: *Balki hozir Dildorni osayotgandirlar, yo bo 'lmasa uni qiynamoqdalar.*

3. Hozirgi -kelasi zamon shakllari bilan: *-Odamlarga nima yaxshilik qilding, - deb so 'raydilar.*

4. Kelasi zamon shakllari bilan: *Haq so 'zimiz uchun qasos olmoqchilar!*

5. Buyruq-istik mayli shakli bilan: *Yunusobod degan joydan kelayapman, nega qaytaman? Zulmdan to 'ydim, zambarakka solib otib yuborsinlar* (Oybek).

Shaxsi noma'lum gaplarda ish-harakatning bajaruvchisi ifodalanmay qolishi quyidagi sabablar bilan bog'liqdir:

a) bajaruvchi tinglovchiga ham, so‘zlovchiga ham noma’lum bo‘ladi: *Pulini o‘g‘irlab qo‘yishdi*.

b) bajaruvchi so‘zlovchiga ham tinglovchiga ham ma’lum bo‘ladi: *Kelishayotir, olib kelishayotir!-degan tovushlar eshitildi*.

c) bajaruvchi umumiylar sharoitdan, mazmundan aniq bo‘ladi, odatdagilari umumiylar harakat yoki holat ifodalanadi: *Ertalab turadilar, yuvinadilar, nonushta qilib, ishga jo‘naydilar. O‘zidan kattani ko‘rganda salom beradilar. Jo‘jani kuzda sanaydilar*.

d) bajaruvchi kontekstdan ma’lum bo‘lib turadi: *Yer sotganlarning kunini ko‘rdik, axiri gadoy bo‘ladi. To‘g‘ri yerni pulga sotadilar, naxd pulni jarang-jarang sanab oladilar* (Oybek).

Ba’zan shaxsi noma’lum gaplarda ish-harakatni boshqaruvchisi so‘zlovchining o‘zi bo‘ladi: *Hoy Ahmad senga gapi rayapti* (men senga gapi rayapman), *quloq solsangchi!*

Shaxsi noma’lum gaplarning katta guruhini rasmiy tilga oid jumlalar tashkil etadi: *Bizga (Buxorodan) xabar qiladilar. Bu yerda chekilmaydi*.

SHAXSI UMUMLASHGAN GAPLAR

Shaxsi umumlashgan gaplarda anglashilgan ish-harakat grammatik jihatdan ma’lum bir shaxsga tegishli bo‘lsa-da, mazmunan hammaga, umumga qaratilgan bo‘ladi. Bu turdagilari gaplarda barcha shaxslarga xos bo‘lgan hayotiy xulosalar, uzoq asrlik hayotiy tajribalar, umumiylar, umumlashgan mulohazalar ifoda qilinadi. Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo‘lagi, ya’ni kesimlari asosan fe’lning II shaxs shaklida ifodalanib, birinchi va uchunichi shaxsdagi fe’llar bilan juda kam ifodalanadi. Masalan, *Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l. Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma, nodon bilan sirdosh bo‘lma* (II shaxsda). *Fan asoslarini chuqurroq egallaylik* (I shaxsda). *Tanimasni siylamas* (III shaxs).

Shaxsi umumlashgan gaplarning eng ko‘p qo‘llanadigan shakli kesimi fe’lning ikkinchi shaxs formasi bilan ifodalangan gaplardir. Bunday gaplarning fe’l kesimi, ko‘pincha, hozirgi-zamonda bo‘ladigan ish-harakatni bildiradi. Bu holatda, odatda, ega ifodalanmaydi, chunki nutq aniq II shaxsga emas, balki hammaga, umumga qaratilgan bo‘ladi: *Izzat tilasang, ko‘p dema, sihat tilasang, ko‘p yema. O‘zingni er bilsang, o‘zgani sher bil.*

Shaxsi umumlashgan gaplarning bosh bo‘lagi-kesimi quyidagicha ifodalanadi:

1. O‘tgan zamon shakli bilan: *-Tuya ko‘rdingmi? -Yo‘q.*

2. Hozirgi-kelasi zamon shakli bilan: *Boshingga qilich kelsa ham, to‘g‘ri gapir. Bersang olasan, eksang o‘rasan.*

3. Kelasi zamon shakli bilan: *Omon bo‘lsang pisharsan, bu gapingdan tusharsan.*

4. Buyruq-istik mayli bilan: *Do 'sting uchun zahar yut.* Puch yong'oq bilan qo'yin to'lg'azma.

5. Shart-istik mayli shakli bilan: *Qalovini topsang, qor yog'ar.*

SHAXSSIZ GAPLAR

Shaxssiz gaplarda ifodalangan ish-harakat yoki holat bajaruvchining faol ishtirokisiz amalga oshadi. Ega borday tasavvur qilinmaydi v umuman harakatni bajaruvchi shaxsni topib bo'lmaydi. Masalan, *Xonada shovqin qilinmasin.* Bunday gaplarda ega grammatik jihatdan ifodalanmaydi, shaxsi noma'lum, shaxsi umumlashgan gaplardan farqlangan holda bunday gaplarning egalarini tiklab ham bo'lmaydi. Bunday gaplarning kesimlari majhul fe'llar, majhul fe'l ma'nosida qo'llanilgan aniq fe'llar vositasida va ayrim modal so'zlarning ma'lum shakllari bilan birikuvi orqali ifodalanadi. Gapning butun bo'laklari kesim atrofiga guruhlanadi. Bunday gaplarning bosh bo'lagi ko'pincha sostavli kesimdan iborat bo'ladi: *Xo 'rlik uchun yig'lash emas, uning odamzod boshiga yana qaytmasligi uchun kurashish kerak. Otlarga minilsin. Qaysi tomonga yurish kerak ekanligini qo'yilgan ko'rsatgich belgilardan bilib olish kerak.*

Shaxssiz gaplarning bosh bo'lagi quyidagi so'z turkumlari va so'z formalari bilan ifodalanadi:

1. Majhul nisbat shaklidagi fe'llar bilan. Bunda majhul fe'llar uchinchi shaxs buyruq-istik mayli shaklida bo'ladi: *Soatli jadvalga amal qilinsin. Bu yerga nos tuflanmasin! Chekilmasin!*

Majhul nisbat shaklida bo'lgan fe'llar o'timsiz bo'lsa, to'g'ri to'ldiruvchini talab etmaydi. Majhul nisbat shaklidagi o'timli fe'llar esa to'g'ri to'ldiruvchini talab etadi, bu to'ldiruvchi mazmunan tushum kelishigidida bo'lsa ham, uning qo'shimchasini qabul qilmaydi. *Dushman mo'ljalga olinsin! O'q uzilsin. Viloyat hokimlariga quyidagi majburiyatlar yuklatildi.*

Majhul nisbat shaklida bo'lgan bunday o'timli fe'lli qurilmalar tarkibida kelgan tushum kelishigidagi otlarni ega hisoblash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki bunday otlar kesimdan anglashilgan harakat yoki holatning bajaruvchisi emas. Masalan, *Ahmadjon tomonidan qaror yozildi* jumlasida ish-harakatni bajaruvchi sub'ekt-harakatning bajaruvchisi Ahmadjondir. Bunday qurilmalar tarkibidagi belgisiz kelishik shaklidagi ot (qaror so'zi) bosh kelishikda emas, balki tushum kelishigidagi kitobni o'qidi tipidagi gap tarkibidagi kitob so'ziga o'xshaydi. Demak, majhul nisbat shaklidagi o'timli fe'llarning tarkibida ega mantiq jihatdan mavjud bo'lsa-da grammatik jihatdan ifodalanmaydi. Shunday ekan, bunday qurilmalarni ham shaxssiz gap deb hisoblash lozim.

2. Majhul nisbat shaklidagi sifatdoshning egalik qo'shimchasini olishi va "yo'q" so'zi bilan birikuvi bilan: *Kadrlarni tanlash va ularni joy-joyiga qo'yishiga haligacha kirishilgani yo'q*.

3. Ayrim fe'llar aniqlik fe'li shaklida kelib, o'zining grammatic egasi bilan mazmunan birikib ketgan bo'ladi va ular bирgalikda umumiyl bir tushunchani ifodalarydi. Bu turdagidan gaplarni ham bir sostavli shaxssiz gaplar deb hisoblash to'g'ri bo'ladi. Bunday gaplar quyidagi ma'nolarni ifodalarydi:

a) tabiat hodisalari: *Tong otdi. Yorug' tushdi. Qorong'u tushdi. Kech kirdi. Sovuq tushdi. Qorong'u tushib qoldi. Kech bo'lib qoldi.* Bu xil kesimlar tarkibidagi fe'llar frazeologik bir butunlikni tashkil etadi.

b) insonning, umumiyl jonli predmetning jismoniy va ruhiy holati: *Joni chiqdi. Achchig'i keldi. Uyqusi qochdi. Borgisi keldi. Yegisi keldi. Ko'ngli ko'tarildi. Ko'ngli yo'q. Ko'z oldi qorong' ilashdi. Yuragi orqasiga urib ketdi* kabi.

Bu turdagidan gaplar har uchala zamonga oid bo'lishi mumkin: *Uning juda chekkisi keldi. Qo'shoqning joni chiqib ketdi. Jangchilarga jon kirdi.*

Bu xil shaxssiz gaplarda fe'l bilan birikuvchi so'z bosh kelishikda bo'lib, ko'pincha egalik qo'shimchasini oladi. Bunday qaralmishning qaratqichi ifodalanishi ham mumkin: *Uning joni chiqdi.*

Ba'zan esa fe'l bilan birikkan bosh kelishikdagi so'z egalik qo'shimchasini olmaydi. Bunda harakat tushum kelishigidagi ot yoki olmoshga qaratiladi: *Uni sovuq urdi. Uni xudo urdi. Ahmadga bir balo bo'ldi.* His-hayojonni ifodvlovchi quyidagi gaplar ham mazmunan shaxssiz gaplar sanaladi: *Xudo ko'rsatmasin! Xudo saqlasin!*

4. Kerak, lozim, darkor,zarur, mumkin so'zlarining harakat nomlariga qo'shilishi yordamida: *Do'stning aybini yuziga aytish kerak. Soat to'qqizga butun a'zolarni yig'ish kerak. Har qanday gapni o'ylab gapirish lozim. Qulay fursat keldi, qat'iy bir harakat bilan bu falokatlarni daf etish mumkin. Dissertatsiya bilan institut kutubxonasida tanishish mumkin. Ularni otish mumkin emas.*

5. Kesim "to'g'ri kelmoq" fe'lining tuslangan shakli bilan ifodalanadi: *Bir kilometrga piyoda yurishga to'g'ri keldi. Baribir borishga to'g'ri keldi. Hozircha yotoqxonada turishiga to'g'ri keladi.*

6.Ba'zan ravishdoshning bo'lmoq bog'lamasi bilan birikishidan ham shaxssiz gaplar hosil bo'ladi. Bunda bo'lmoq fe'li uchinchi shaxs shaklida kelib, uchala zamon shaklida bo'lishi mumkin. Masalan, *Bilimsiz saodatga erishib bo'lmaydi. Ilmi mehnatsiz egallab bo'lmaydi. Oyni etak bilan yopib bo'lmash. Kimdan bilsa bo'larkan?* Ayrim o'rnlarda bo'lmoq fe'li shart fe'li bilan bog'lanadi: *Ishlasa bo'ladi! O'qisa bo'ladi! Buni uddalasa bo'ladi!*

7. Shaxssiz gapning kesimlari fe'l bilan emas, ravish yoki otlar, hatto undov so'zlar orqali ifodalanadi: *Senga yaxshi-ya! Aytishga oson! Aytishga uyat!* Kabi.

NOMINATIV (ATOV) GAPLAR.

Ma'lum bir predmet yoki voqea-hodisaning nomini atab, uning mavjudligini tasdiqlash yo'li bilan ifoda qilgan gaplar nominativ (atov) gaplar deyiladi. Masalan, *Ko'klam. Hammayoq yam-yashil libos kiygan*. Bunday gaplarda ega va kesim munosabati aniq ko'rinsama ham, predikativlik va gaplarga xos bo'lgan nisbiy tugal intonatsiya mavjud bo'ladi. Nominativ gaplardan keyin, albatta, uning izohi, aniq mazmunini ifodalovchi ikki sostavli gaplar keltiriladi: *Tong. Quyosh yerga oltin lentalar yoydi* (O'.Hoshimov). Nominativ gaplarning bosh bo'lagi bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar, miqdor ma'nosidagi so'zlar, ba'zan esa son yoki olmoshlarning ot bilan birikuvidan, ba'zan olmoshlardan tashkil topadi. Nominativ gaplar shaklan oddiy so'z va so'z birikmalariga o'xshasa-da, ammo maxsus gap ohangining bo'lishi bilan va ma'lum bir fikrning ifodalanishi bilan ulardan farqlanadi. Ular bir so'zdan yoki so'zlarning o'zaro birikuvidan tuzilishi mumkin. Masalan, *Ko'm-ko'k dala. Sayohatchilar miriqib dam olishayapti*. (S.Ahmad). Bunda nominativ gap alohida intonatsiya bilan aytilib, predmetning hozirgi zamonda mavjudligini tasdiqlayapti.

Bahor... tipidagi nominativ gapni *Bahor bo'ldi* gapiga teng deb tushunish to'g'ri emas. Chunki *Bahor...* tipidagi gapning ohangi, urg'usi va ma'nosi bo'ldi bog'lamasi (o'tgan zamon aniq fe'li)ni talab etmaydi. Vaholanki, nominativ gaplarda nutq so'zlanib turgan paytda mavjud bo'lgan predmet yoki hodisalar nomlari qayd etiladi. Shu sababli ular o'tgan yoki kelasi zamonda tasavvur etilmaydi. Nominativ gaplarni bosh kelishikdagi ot yoki otlashgan so'zlar boshqaradi. Ammo ma'lum predmet va hodisalar ko'rsatilganda, boshqaruvchi so'z tushum kelishigi qo'shimchasini olishi ham mumkin: *Aftini! Ko'zini! Voy buni yolg'on aytishini-ey!*

Ko'pgina nominativ gaplar o'zidan keyin kelgan gap mazmunining bajarilish sababi, holati bilan bog'liq bo'lgan mavjudlikni ifoda qiladi: *Qop-qora tun. Ko'kda na oy, na yulduz bor*. (I.Rahim). *Zindon. Oyoq qo'liga kishan solingan Ravshan o'y surib o'tirardi*. (Yashin) Ayrim nominativ gaplar matn oxirida kelib, oldingi gaplarda ifoda qilingan fikrlarning yakuni, natijasini ko'rsatadi: *Oq podshoh hammasini qiradiganga o'xshaydi. Urush qursin! Ochlik! Qimmatchilik!*

Nominativ gaplarning ifodalanishi, tuzilishi, grammatik belgilari quyidagicha:

1. Atoqli otlar bilan: *Ana Yodgor. Haligina emgan ona sutining lazzatini tamshanib, mening qo'limda uxlamoqda*. (G'.G'ulom) Turli sarlavhalar, kitob, gazeta, jurnal, muassasalar, peshlavhalar mavjudlik hukmini ifodalab, nominativ gaplarni hosil qiladi.

2. Turdosh otlar bilan. *Oy. Nozik jimjitlik, Salqin shamollargina qizning sochlari bilan o'ynashadi*. (Oybek). *Chang. Kuchli issiqtan nafas bug'iladi*. (Oybek). *Qiz o'nqir-cho'nqirlarga uzoq tikildi. Ariq! Suv!* (Sh.Rashidov). *Uni qara, Asal! Oq-Qushlar!* (Ch Aytmamatov). *Katta zal. Balkon. Iyul oyi.Tun.*

3. *Ana, mana* yuklamalarining ot yoki otlashgan so‘zlar bilan birikishi natijasida. Chunki bunda hokim bo‘lak ot yoki otlashgan so‘zlar bilan ifodalaniib, o‘z aniqlovchilari bilan kengayib kelishi mumkin: *Ana sovuq, mana qor! Mana O’sarjonning dalasi...*(Oybek). *Mana Barot supurgichi. Bozordan supurgisini chaqa qilolmay orqalab qaytayotir.* Nominativ gap bosh bo‘lagi ana, mana, so‘zlari bilan kelganda, gap tasviriylikdan tashqari, ko‘rsatish vazifasiga ham ega bo‘ladi: *Mana bo‘zlik! Bunda qanchadan-qancha semiz, serhosil yerlar yastanib yotibdi.* (“O‘zbekiston ovozi”)

4. Ot undov so‘zlar bilan keladi: *Esiz bola!*(H.Hakimzoda). *Oh bolam, jon bolam, bechora bolam!* (Yashin).

5. Otning sifat bilan birikuvidan: *G‘ira-shira tong. May... Ajoyib so‘lim bir bahor! G‘uborsiz keng osmon.*

6. Otning son yoki miqdor ma’nosidagi so‘zlar bilan birikib kelishi bilan: *Yigirmatacha odam. O’n sakkiz daraxt. 2004 yil dekabr oylari. Bir necha daqiqajimlik. Plaskart vagon. Yonma-yon ikki kupe.*

Mazmunan va emmotsional jihatidan nominativ gaplar quyidagicha bo‘ladi.

1. Tasviriy nominativ gaplar: *Keng sahro. Quruq cho‘l. Suv manbalaridan darak yo‘q* (S.Ayniy). *Komiljonning hovlisi. Eskiroq uy. Yonma-yon* (Uyg‘un).

2. Payt anglatuvchi nominativ gaplar: Kuzgi oydin... Salqin; Sutdek oydin kecha. Hali tong otishidan darak yo‘q; Saraton. Jazirama issiq.

3. Ko‘rsatuv xarakteridagi nominativ gaplar: *Mana guzar, mana odamlar... odamlar uni qurshab oldi* (P.Tursun)

4. Hayot voqealarini bildiruvchi nominativ gaplar: *Yoqimli ohang, zavqli qo‘shiqlar. Anorxon yo‘lidan to‘xtab tinglaydi.* (I.Raxim)

Ayrim vaqtida nominative gaplar birdan ortiq –qator kelishi ham mumkin. Masalan, *Mart oyining oxirlari. Kunduz soat to‘rtlar chamasi. O‘quvchilarning qizg‘in munozaralari boshlandi.*

VOKATIV GAPLAR

Vokativ gaplar undash xarakteriga ega (o‘zgalar diqqat-e’tiborini qaratish uchun qo‘llaniladigan) bo‘lib, o‘zida turli ma’no nozikliklarini tashuvchi, ya’ni chaqirish, diqqatni jalb qilish, do‘q, g‘azab, shodlik, ajablanish mazmunlarini ifodalovchi bir sostavli gaplardir. Bunday gaplarda bosh va asosiy bo‘lak nutq qaratilgan shaxs nomidan iboratdir. Agar bu nom alohida intonatsiya bilan talaffuz etilsa, uning markazida turgan shaxs haqida murakkab tasavvur tug‘diradi. Masalan,

-Vasila!

-Siroj aka!-Vasila unga bir intilib to‘xtadi. (S.Zunnunova)

-Yormat aka!-Gulnorning yuragi to‘lqinlashib ketdi. (Oybek)

-Rustam. Oyi! Hoy, oyi! (H.G‘ulom)

Vokativ gaplarning shakllanishida kontekst va sharoit muhim rol o‘ynaydi. Chunki so‘zlovchining shu kontekst va sharoitda tinglovchiga murojaati, xitobi, istagi, quvonchi, zavqi, jahli, g‘azabi, iltimosi, yolvorishi, ginasi, shodligi va boshqa shu kabi ichki kechinmalari o‘z ifodasini topadi: *Kamol!* (g‘azabli) *Haydar!*... (Uyg‘un)

Oqila yalinish -yolvorishga tushdi:

-*Oyijon, oyijon!* (Yu. Shomansur)

-*Oyi-i-i!-deb qichqirib yubordi.* kabilar bir sostavli galarning vokativ turiga yaqqol misol sanaladi.

INFINITIV GAPLAR

Hokim komponenti, ya’ni kesimi harakat nomi bilan ifodalangan gaplar infinitiv gaplar deb ataladi. Bu xil infinitivlar boshqa so‘zlarga tobe bo‘lmaydi. Infinitiv gaplarda asosiy fikr ma’lum bir ish-harakat ustida bo‘ladi: *Ajab!* *O‘z uyini talab ketish!* *Bu aqlsizlik!* *Mardikor olish!* (Oybek)

Infinitiv gaplarning boshqaruvchi bo‘lagi harakat nomi (infinitivning) shakli-(i)sh, ayrim hollarda -uv, -moq affikslari orqali ifodalinib, bu harakat nomiga turli so‘z turkumlari -ravishdosh, ravish, vositali va to‘g‘ri kelishikdagi yoki ko‘makchili ot ma’nosidagi so‘zlar - demak, hokim so‘z hol, to‘ldiruvchilar bilan kengayib, ularni boshqarib keladi. Masalan, *Sevganingdan ajralish!* *Eh biz sho‘rliklar!* (H.H.Niyoziy) *Ketish bo‘lsa, ketishda!* *Qanday mudhish!* *Salom, Qanday uchrashuv!* kabilar. Infinitiv gaplar quyidagi ma’nolarni ifodalaydi:

1. Hayratlanish ma’nosisi: *Ajab, o‘z uyini tashlab ketish.*
2. Norozilik, g‘azablanish ma’nolari: *Voyaga yetmagan qizni erga berish!* *Qanday vahshiylilik!*
3. Xabar ma’nosisi: *Tunlari mijja qoqmay, muttasil kitob ko‘rish...kitoblar orqali asrlar bilan, ming yillar bilan, qadimning faylasuflari, olimlari bilan suhbatlashish.* (Oybek).
4. Shart ma’nosisi: Kim oldin uyga yetib borish! Ushlab olish! Ushlab olish! (Bolalar o‘yini).

Infinity gaplarning bir guruhini rasmiy tilga mansub qurilmalar tashkil etadi. Masalan, *Majlis masalani muhokama etib quyidagi tadbir choralarni amalga oshirishni lozim topadi:*

1. *To‘garak ishlarini jonlantirib yuborish.*
2. *Ijtimoiy ishlarga ko‘proq kishilarni jalg qilish.*
3. *Bajarilgan ishlar yuzasidan muntazam nazorat olib borish.*

BO‘LAKLARGA AJRALMAYDIGAN (SO‘Z-GAP) GAPLAR

Maxsus ohang bilan talaffuz qilinadigan, ammo biror hukm yoki mavjudlik ifodalangan so‘z va so‘z birikmalari bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar deyiladi.

Bunday gaplar tarkibida ishtirok etgan so‘zlarni gap bo‘laklariga ajratib bo‘lmaydi. Ular bir yoki bir turdag'i so‘zdan iborat bo‘lib, turli his-tuyg‘ular ifodalanayotgan fikrga turli munosabatlarni bildiradi. Masalan,

-*Reja bajarildimi? -Ha*

-*Darsdan kech qolganlar bormi? -Yo ‘q.*

Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar tobe yoki hokim bo‘laklarni talab etmaydi, ularda biror bo‘lakning yashiringani ham sezilmaydi. Chunki ular oldin bildirilgan fikrga modal munosabatlarni ifodalaydi. Bu turdag'i gaplar ko‘proq dialog tipidagi gaplarda ishlatiladi. Shu xususiyatlariga ko‘ra ular to‘liqsiz gaplardan ham, bir sostavli gaplardan ham farq qiladi. Chunki bu xil gaplarda, bir sostavli gaplardan farqli o‘laroq grammatik jihatdan ham, logik jihatdan ham ega yoki kesim bo‘lmaydi. Har ikki bo‘lak bir so‘zda mujassamlashadi. Shuningdek, so‘z-gaplarning asosiy xususiyatlaridan biri ularning maxsus ohangga ega bo‘lishi va ma’lum vaziyatni, kontekstni talab etishidir. Agar ushbu shartlar bo‘lmasa, so‘z-gaplar o‘z vazifasini bajara olmaydi. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar turli ko‘rinishlarga ega bo‘lib, ular quyidagicha:

1. Tasdiq bildiruvchi so‘z-gaplar. Bunday gaplar so‘zlovchining aytilayotgan fikrini tasdiqlashi yoki biror fikrga qo‘shilishini ko‘rsatadi. Tasdiq so‘z-gaplar vazifasida: ha, shunday, to‘g‘ri, yaxshi, albatta, xo‘p bo‘ladi, xo‘p, bo‘lmasa-chi kabi so‘zlar ishlatiladi. Bu turdag'i gaplar berilgan savolga javob bo‘lib keladi (-*fikrimni tushindingizmi? -Ha*) yoki ifodalanayotgan fikrni tasdiqlaydi (-*Men sizni juda yaxshi bilaman? -Ha*)

2. Inkor so‘z-gaplar. Bu turdag'i gaplar so‘zlovchining berilgan savolga rad javobini yoki ma’lum bir fikrga qo‘shilmasligini ifodalaydi. Inkor so‘z-gaplar vazifasida: yo‘q, hech, aksincha kabi so‘zlar ishlatiladi. Masalan, -*Siz ham shunday deb o‘ylaysizmi? -Aksincha!* (yoki yo‘q).

3. So‘roq so‘z-gaplar. Bunday gaplar so‘zlovchining savoli, taajjubini anglatadi yoki tinglovchini javob berishga, biror ish-harakatga undaydi. So‘roq so‘z-gaplar vazifasida: shundaymi, yo‘qmi, nahot, rosti bilan-a, bo‘ptimi, yaxshimi kabi so‘zlar va bu turdag'i so‘zlarning yuklama yoki ko‘makchilar bilan birikuvi orqali ifodalanadi. Masalan, -*Jahongir bugun darsga kelmayapti? -Nahot(-ki)?!*

4. His-tuyg‘u so‘z-gaplar. Ayrim bo‘laklarga ajratilmaydigan gaplar ma’lum bir xabar, voqeа-hodisa, shaxsga nisbatan bo‘lgan his-tuyg‘uni bildiradi. Ushbu turdag'i gaplar asosan undov so‘zlar orqali ifodalanadi. Masalan,

-*Uh, bay-bay, o‘zing bilasan bolam!*

-*Ha, ha! -dedi Risolat buvi cho‘zib. -shunaqami hali.*

-*Dod! -La’li birdan baqirib yubordi.*

5. Modal gaplar. His-tuyg‘u gaplari ayrim so‘z bo‘lib qolmay, birikma holida bir necha so‘z bilan ham bayon etiladi. Bu xildagi gaplarda biror voqeа-hodisa va

narsaga bo‘lgan shaxsiy modal munosabatlar anglashiladi. Modal ma’no ifodalovchi bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar salomlashish, xayrashish, tashakkur, kechirim, rag‘batlantirish, mammunlik kabi mazmunlarni ifodalaydi. Masalan,

a) *-Salom, hurmatli mehmonlar! Xush kelibsiz!* b) *Mehmonlar-Qulluq!* -degan holda tartib bilan gulzor tevaragiga o‘tirdilar. Tashakkur. Bu nурдан bo‘ldik bahramand. G‘ayratingiz uchun ofarin. -Ha, barakalla! Muborak bo‘lsin? O balli, balli! -dedi Abdurasul bosh irg‘itib. Rahmat! Samimi yordamingiz uchun rahmat! Balli, barakalla, yasha azamat! Rahmat, do‘stilarim, rahmat! c) Xayr, o‘g‘lim, xayr, ko‘zim qorasi. Xayr sevgilim, xayr qimmatligim. d) Ninni ukam, allayo. -Marhamat qilinglar.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Bir sostavli gaplar yuzasidan ma’lumot bering.
2. Shaxsi aniq gaplarni izohlang.
3. Shaxsi noma’lum gaplar yuzasidan ma’lumot bering.
4. Qanday gaplar shaxsi umumlashgan gaplar deyiladi?
5. Shaxssiz gaplarni izohlab bering.
6. Nominativ gaplar yuzasidan ma’lumot bering.
7. Qanday gaplar vokativ gap hisoblanadi?
8. Infinitiv gaplar qanday ifodalanadi?
9. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar yuzasidan ma’lumot bering va ularni so‘zlardan farqini tushuntiring.
10. Quyidagi gapni sintaktik tahlil qiling: Yomon bilan yo‘ldosh bo‘lma, nodon bilan sirdosh bo‘lma.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Bir sostavli gaplar-struktura asosi bir sostavdan tashkil topgan gap turlari.
2. Shaxsi aniq gaplar-bosh bo‘lagi kesimdan iborat bo‘lgan gap.
3. Shaxsi noma’lum gaplar-ish-harakatni bajaruvchi shaxsi noma’lum bo‘lgan gaplar.
4. Shaxssiz gaplar- ega grammatik jihatdan ifodalanmaydigan gaplar
5. Shaxsi umumlashgan gaplar-mazmuni umumga qaratilgan gap turi.
6. Nominativ gaplar-predmet yoki voqeа-hodisaning nomini atab, uning mavjudligini tasdiqlash yo‘li bilan ifoda qiladigan gap turi.
7. Vokativ gap-undosh xarakteriga ega bo‘lib, o‘zida turli ma’no nozikliklarini (chaqirish, diqqatni jalb qilish, do‘g‘, g‘azab, shodlik, ajablanish) tashuvchi gap turi.
8. Infinitiv gap-kesimi infinitiv bilan ifodalangan gap turi.
9. Bo‘laklarga ajralmaydigan gaplar-so‘z yoki so‘z birikmalari orqali tuzilib, biror hukm yoki mavjudlikni ifodalovchi gap turi.

UYUSHIQ BO‘LAKLI GAPLAR.

REJA

1. Uyushgan bo‘laklar yuzasidan tushuncha.
2. Uyushiq bo‘laklarni o‘zaro bog‘lanishi va ularda bog‘lovchi vositalar.
3. Uyushgan bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlar.
4. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanilishi.

MATN

Gapning uyushgan (uyushiq) bo‘laklari

Gap tarkibida bir turdag'i bo‘laklar birdan ortiq holda qator kelishi mumkin. Masalan, *Abdulla Qahhorning ijodi xalq hayoti bilan birga ko‘tarildi, birga ulg‘aydi*. Bunday birdan ortiq holda qator kelgan bir turdag'i bo‘laklar gapning uyushiq bo‘laklarini tashkil qiladi. Shunday ekan, gapning biror bo‘lagiga nisbatan ayni bir xil sintaktik munosabatda bo‘ladigan birdan ortiq bo‘laklar uyushiq bo‘laklar deyiladi.

Uyushiq bo‘laklar gap tarkibida ayni bir xil vazifani bajaradi va ular bir xil so‘roqlarga javob bo‘ladi. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro teng bog‘lovchilar va intonatsiya (sanash, chog‘ishtirish, birlashtiruvchi, ayiruvchi) orqali bog‘lanadi.

Uyushiq bo‘laklar jins tushunchasiga nisbatan tur tushunchasini ajratib ko‘rsatadi. Masalan, “Bog‘da o‘rik, olma, shaftoli gulladi” gapida bog‘da gullashi mumkin bo‘lgan umuman mevalarning turlari, qismlari sanalgan. Buni yana quyidagicha hollarda ham ko‘rishimiz mumkin: *Qizning qoshi, ko‘zi, og‘zi, yuzi kelishgan edi. Biz fan va texnika, ekonomika va madaniyat barq urib rivojlanayotgan bir davrda yashamoqdamiz.*

Turli tushunchalarni anglatuvchi so‘zlar bilan ifodalangan bo‘laklar bir xil vazifani bajarib, bir xil so‘roqqa javob bo‘lsa-da, uyushiq bo‘lak sanalmaydi: *Katta qizil olmalar chiroyli tovlanib turibdi*. Bunda “katta” so‘zi hajm tushunchasini “qizil” rang tushunchasini anglatmoqda. Takrorlanib kelgan bo‘laklar ham uyushiq bo‘lak sanalmaydi: *Do‘stlik kuyin yangratamiz biz yoshlar, biz yoshlar*.

Uyushiq bo‘laklar yolg‘iz (yig‘iq) holda ham, birikmali (yoyiq) holda ham kelishi mumkin. Masalan, a) Kioskadan ham jurnal, (yig‘iq) ham al’bom sotib oldim. Goh chapda (yig‘iq) goh o‘ngda quloplarni teshuvchi chinqiriqlar eshitila boshladи. b) *Ma‘mura uning yuzidagi har bir chiziqni, har bir kichkina dog‘ni, manglay tuzilishini, qayrilgan kipriklarini, ko‘zidagi quvonch nurini, qush qanotiday qoshlarini, orqaga taralgan sochlarini jur‘atli va quvnoq yuzini-hammagini yoddan biladi* (yoyiq).

Uyushiq bo‘laklarni shakllantiruvchi grammatik vositalar (morfologik formatlar) ba’zan har bir komponentga alohida-alohida qo‘shiladi, ba’zan eng oxirgi komponentga qo‘shilib, oldingilari uchun ham taalluqli bo‘ladi. Masalan, a) *Har kim sukut ichida front yo ‘llaridan, vayron bo ‘lgan qishloqlardan, olingan shaharlardan o ‘z bolasini, akasini, ukasini qidirar edi.* b) *Odamlar g ‘o ‘za chekankasi, qishloq xo ‘jalik mashinalari, kolxoz hammomi, kanopning yangi nav urug ‘i (va hokazolar) to ‘g ‘risida so ‘zlashar edilar.*

Morfologik ko‘rsatgichlar yoki ko‘makchilarning uyushiq bo‘lakning har biriga yoki oxiriga qo‘shilishining o‘z shart-sharoitlari bor.

1. Uyushiq bo‘laklar ifodalagan narsa, predmet va hodisalarga alohida diqqat qilinganda, har bir komponent grammatik formant oladi: *Sergey O‘tapni, Qamchini, G‘ani otani suhbatga olib goldi.*

2. Uyushiq bo‘lak komponentlari o‘ziga oid so‘zlar bilan ortiq darajada kengayib kelsa, (ya’ni uyushiq bo‘laklar distant holatda bo‘lganda) uyushiq bo‘lakning har bir komponenti grammatik ko‘rsatgich olishi mumkin: *Biz, hamqishloqlaring, dushmanni berlingacha quvib borishingni, uni o ‘z uyasida yanchib tashlappingni istaymiz.*

3. Grammatik formantning uyushiq bo‘laklarning har biriga yoki faqat oxirgisiga qo‘shilishi bog‘lovchilarning turiga, ularning qo‘shilish xususiyatiga ham bog‘liq. Agar uyushiq bo‘laklar takrorlanuvchi bog‘lovchilar bilan biriksa, har bir komponent (grammatik formant), agar bilan bog‘lovchisi orqali biriksa, faqat oxirgi komponent grammatik formant oladi. Masalan, *Endi u ust boshiga ham, minib yurgan otiga ham, ichadigan ovqatiga ham hech qaramas edi. Bu voqeа meni yo o ‘ta baxtiyorlika, yoki fojiali bir halokatga olib borar. Ibodulla ayvonga chiqqach, Bo‘ronbek bilan O‘tanning yo ‘lini to ‘sdi* (H.G‘ulom).

4. Uyushiq bo‘laklarning gapdagi hokim bo‘lak bilan munosabatida galma-gallik yoki oldinma-keyinlikni bildirgan so‘zlar ishlatilganda, ularning har bir komponenti grammatik formant oladi: *To ‘xta xola ro ‘molining uchi bilan og ‘zini yopib, bo ‘zargan holda avval o ‘rtoqlariga, keyin raisga qaradi.* Bunda avval va keyin so‘zları uyushiq bo‘laklarning har ikki komponentida jo‘nalish kelishigi formasining qo‘llanilishiga sabab bo‘lgan.


Shunday qilib, grammatik formantning uyushiq bo‘lak komponentlarining faqat bittasiga yoki hammasiga alohida-alohida qo‘shilishi nutqning logik-grammatik va stilistik xususiyatlari bilan belgilanadi. Gapda barcha bo‘laklar uyushib kelishi mumkin. Masalan,

1. Ega uyushadi: *O ‘zbek xalqi orasidan atoqli olimlar, yozuvchilar, vrachlar, o ‘qituvchilar, injenerlar, agronomlar va xalq xo ‘jaligining boshqa mutaxassislari etishib chiqdi.*


2. Kesim uyushadi: *G‘ayrat mening bu ishimdan ranjimadi, balki quvonchini izhor qildi. Uning kabineti keng, yorug‘ va ozoda edi.*

3. Aniqlovchi uyushadi (sifatlovchi aniqlovchilar): Xullas, tabiat go‘zal, yoqimli, issiq kunlardan xabar berar edi. *Mahdum bo‘ychan, olago‘sht, siyrak mo‘y, oqtan, istarasi issiq bir domla edi.* (A.Qodiriy)

Uyushgan sifatlovchilarning sifatlovchi va sifatlanmish bilan munosabatini sxemada quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Qaratqichli aniqlovchi (belgili va belgisiz) uyushib keladi: a) Belgisiz: *Dang‘illama klub va choyxona binolari alohida bezatilgan.* b) Belgili: *Safarning ham, Niyozning ham maqsadi aniq. Ibtidoiy jamiyatda kishilar samoviy jismlarning: oyning, yulduzning, yer aylanishining sirlarini tushunib yetmaganlar.* Qaratqich va qaralmish munosabati:



4. To‘ldiruvchi gap bo‘lagi (vositali va vositali to‘ldiruvchilar) ham belgili va belgisiz holatda uyushadi:

- Belgisiz to‘ldiruvchining uyushib kelishi: *U ham ruchka, ham qalam oldi.*
- Belgili to‘ldiruvchining uyushib kelishi: *Vazirlar kengashi “Jizzax haqiqati” redaksiyasini, uning mualliflar jamoasini va mushtariylarini qizg‘in tabriklaydi.*

Bundan tashqari ko‘makchili to‘ldiruvchilar ham uyushib kelishi mumkin: *Men onam bilan, otam bilan va opam bilan xayrashib yo‘lga tushdim.*

Vositali to‘ldiruvchilar ham uyushib keladi: *U bo‘ridan, echkemardan qo‘rqar edi.*

5. Hollar uyushadi: *Biz qishloqlarga borib ishlash (sabab) uchun, xalqimizni oqartish uchun, xalqimizning baxt saodatini himoya qilish uchun o‘qidik.*

6. O‘zbek tilida izohlovchilar ham uyushib kelishi mumkin: *O‘zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori, professor I.M.Mo‘minov doklad qildi.*

Uyushiq bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘z va uning qo‘llanilishi.

Gapda uyushiq bo‘laklarni jamlab ko‘rsatuvchi umumlashtiruvchi so‘zlar ham ishlataladi. Uyushiq bo‘laklarda ifodalanuvchi tushunchalarni bir guruppaga birlashtiruvchi, bir umum nom bilan atovchi bo‘lak-umumlashtiruvchi so‘z deb ataladi.

Umumlashtiruvchi birliklar yakka so‘z holida ham, so‘z birikmasi holida ham bo‘lib, ular uyushiq bo‘laklardan oldin ham, keyin ham kelishi mumkin. Masalan, *Yozuvchi, muharrir, rassom poligrafist, kutubxona xodimi, ishchi, olim, student, hamma bilim manbai bo‘lgan kitobga murojaat qiladi; Qo‘sishlar saf tortdilar. Turli millat jangchilari: ruslar va o‘zbeklar, ukrainlar va gruzinlar, latishlar va tojiklar yonma-yon turibdi.*

Umumlashtiruvchi birliklar bilan uyushiq bo‘laklar o‘rtasida butun bilan qism (jins bilan tur) munosabati ifodalanadi: *Tabiat hodisalari* (Butun yoki jins) *shamol, qor, yomg‘ir, do‘l,* (qism) *o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi.*

Umumlashtiruvchi so‘zlar takror holda ham keladiki, bunday holatda ma’no kuchaytiriladi: *Bunga kolxozchilar, ishchilar, olimlar, o‘qituvchilar, hamma-hamma bosh qo‘sidi.*

Ayrim holatlarda bitta gap tarkibida ikkita umumlashtiruvchi so‘z qo‘llanilishi mumkin. Bunda umumlashtiruvchi so‘zlardan biri uyushiq bo‘laklardan oldin, ikkinchisi esa uyushiq bo‘laklardan keyin keladi: *Kolxozdagi bu yilgi ishlar* (1) - *g‘o‘za parvarishi, yangi uchastkani o‘zlashtirib, paxta ekish, uy-joy binolar, gidrostansiya qurilishi* (2) - *bularning hammasi o‘tgan yillardagi ishlarga qaraganda uch hissa ortiq mehnat talab qiladi.*

Umumlashtiruvchi so‘zlar ko‘pincha hamma, hamma narsa, hech kim, hech nima, hamma vaqt, hech qachon, hamma joyda, hech qayerda kabi so‘zlar va shuningdek, otlar bilan ifodalanadi: *Na muattar chamanzorlar, na muxtasham ko‘siklar, na kumushlangan hovuzlar, na chiroyli qafasdagি qushlar-hech nima uni qiziqtirmasdi.*

Ba’zi umumlashtiruvchi birliklardan oldin yakunlovchi so‘zlar-xullas, xullas kalom, umuman, qisman kabi so‘zlar qo‘llanadi. Bu so‘zlar ma’noni kuchaytirish uchun xizmat qiladi: *Zavod va fabrikalarda, maktab va institatlarda, umuman, hamma joyda saylovgaga katta tayyorgarlik ko‘rilmoxda.*

Umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan oldin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan so‘ng ikki nuqta, agar umumlashtiruvchi so‘z uyushiq bo‘laklardan keyin kelsa, umumlashtiruvchi so‘zdan oldin defis qo‘yiladi.

NAZORAT SAVOLLARI:

1. Uyushiq bo‘laklar deb nimaga aytildi?
2. Gapdagi qanday bo‘laklar uyushib kelishi mumkin?

3. Uyushiq bo‘laklar o‘zaro qanday yo‘llar bilan bog‘lanadi?
4. Uyushgan bo‘lakli gaplarda umumlashtiruvchi so‘zlarning vazifasi?
5. Uyushiq bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanilishi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR:

1. Uyushiq-bo‘lak gap tarkibida bir turdag'i bo‘laklarning qator kelishi.
2. Uyushiq bo‘lakli gap-tarkibida uyushgan bo‘laklar mavjud bo‘lgan gap turi.
3. Umumlashtiruvchi so‘z-bir turdag'i bo‘laklarni bir umumiyligiga birlashtiruvchi, bir umum nom bilan atovchi bo‘lak.

Ajratilgan bo‘lakli va undalmali gaplar.

REJA

1. Gapda ajratilgan bo‘laklar va ularning grammatik xususiyatlari.
2. Ajratilgan bo‘laklarning turlari.
3. Ajratilgan bosh bo‘laklar: ajratilgan ega, ajratilgan kesim.
4. Ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklar: ajratilgan aniqlovchilar, ajratilgan izohlovchilar, ajratilgan to‘ldiruvchilar, ajratilgan hollar.
5. Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilarining qo‘llanilishi.
6. Gapda undalmalarning o‘rni.
7. Undalmalarning leksik-semantik jihatdan ifodalanishi.
8. Undalma vazifasida qo‘llanuvchi so‘zlar.
9. Undalmalarning tuzilishiga ko‘ra turlari.
10. Undalmalarda tinish belgilari.

MATN GAPNING AJRATILGAN BO‘LAKLARI

Ayrim gaplarda ma’lum maqsadni ko‘zlagan holda gapning biror bo‘lagi ajratilib ko‘rsatiladi va bu bo‘lakka alohida e’tibor qaratilgan bo‘ladi. Bunday bo‘laklar gap tarkibida alohida intonatsiya bilan aytildi, mazmun va grammatik jihatdan nisbiy (shartli ravishda) mustaqil holatga keltiriladi, ya’ni bu bo‘lak gapning boshqa bo‘laklaridan ajratiladi. Intonatsion hamda fikran ajratilib, gapda ma’lum mustaqillika ega bo‘lgan bo‘laklar ajratilgan bo‘laklar deyiladi. Shunga qaramasdan ajratilgan bo‘laklar gapdan anglashilayotgan asosiy fikrga tobe bo‘ladi, uni izohlaydi, to‘ldiradi, aniqlaydi. Masalan, a) *Ulardan biri-sersoqol, rangpar va arriq-o‘z mantiqining kuchini ko‘rsatishga tirishdi.* b) *Karim, ukam,-kolxozda mashhur suvchi.*

Bosh bo‘laklarning ajratilishi izohlash zarurati bilan bog‘liq. Ajratilgan bosh bo‘laklar o‘zidan oldin kelgan ega yoki kesimni izohlab keladi.

A) Ajratilgan egalar: *Hamma, hatto ko'rgan odamlar ham, klubni yana ko'rishga shoshilar edi. Keyinchalik biz, aka-uka ikkovimiz, texnikaga berildik.*

B) Ajratilgan kesim: *Mening tug'ilgan yilim-shu- bir ming to'qqiz yuz o'n yettinchi yil.*

- Gapda asosan ikkinchi darajali bo'laklar ajratiladi. Shunga ko'ra ular: a) ajratilgan izohlovchilar;
b) ajratilgan aniqlovchilar;
c) ajratilgan to'ldiruvchilar;
d) ajratilgan hollarga bo'linadi.

A) Bularning ichida nutqda ajratilgan izohlovchilar ko'proq ishlatiladi. Chunki, izohlovchilar gapning barcha bo'laklariga tegishli bo'lishi mumkin. Chunki, izohlovchi va izohlanmishning joylashish tartibining erkinligi bunga imkon beradi. Shu sababli ham ajratilgan izohlovchilar bir qancha o'ziga xos xususiyatlarga ega:

1. Ajratilgan izohlovchilar izohlanmishdan keyin kelib, uning ma'nosini konkretlashtiradi: a) *Bitiruvchilar o'z o'rinarini kelgan kishilarga-mehmonlarga bo'shatib berdilar.* b) *Bu Xotin, qishloqning faolasi, ko'p yillardan beri jamoat ishida ishlaydi.*

2. Kishilik olmoshiga, ma'nosni umumiy predmetlarga qarashli bo'lgan izohlovchilar ajratiladi: a) *Biz, III kurs studentlari, bugun imtihon topshiramiz.* b) *Men, Oleg Koshevoy, "Yosh gvardiya" a'zolari safiga kira turib... tantanali ravishda qasamyod qilaman.*

3. Ajratilgan izohlovchilar izohlanmish bilan ko'pincha sonda, kelishikda moslashadi: a) *Biz, yoshlar, hukumatimizing barcha ko'rsatmalariga qat'iy amal qilamiz.* b) *Bizga, yoshlarga, hukumatimizning barcha ko'rsatmalari qonun.* c) *Undan, qo'rboshidan, har narsa kutish mumkin.*

4. Izohlovchi ya'ni, shu jumladan, xususan, hatto kabi yordamchilar bilan ham qo'llaniladi. Bu yordamchilar o'zi qarashli bo'lgan so'zning tor tushunchada (izohlovchi) ekanligini ko'rsatadi: *Tushgacha hech kim, hatto Ro'zimat ham, bir og'iz gapirmadi.*

B) Ajratilgan aniqlovchilar o'z xususiyatiga ko'ra ajratilgan sifatlovchilar va ajratilgan qaratqichlarga bo'linadi.

Ajratilgan sifatlovchilar sifatlanmishdan keyin qo'llanadi: *Borlig'imla farzandingman, sodiq, mexribon, Ozarbayjon. Bir yor sevdim, indamas* (sifatlovchi). *Endi odamar* (sifatlanmish)-*otliq*, (ajratilgan sifatlovchilar) *piyoda, yosh, qari-uchray boshladi* (O).

Ajratilgan qaratqichli aniqlovchilar ham o'zidan oldin qo'llanilgan qaratqichli aniqlovchining ma'nosini konkretlashtirish, ta'kidlash uchun xizmat qiladi. Bunda izohlovchi bo'lak qaratqichli kelishik formasida shakllanmagan bo'lishi ham

mumkin: *Keyin u yagona o‘g‘li* (ning)-***ishongan bog‘i*** (ning), ***suyangan tog‘i*** (ning) - ***Razzoqning ayriliq dardini tortdi*** (H.G‘.).

C) Ajratilgan to‘ldiruvchilar o‘zidan oldin kelgan (to‘ldiruvchi) bo‘lakning ma’nosini konkretlashtirish uchun ishlataladi. Bunda to‘ldiruvchining har ikkala turi Vositasiz va vositali to‘ldiruvchilar ajritilishi mumkin.

Ajratilgan vositasiz to‘ldiruvchi: *Karvon boshi bo‘sag‘a ustiga qo‘yilgan qo‘lni-amir qo‘lini-ikki qo‘llab ushlab ko‘ziga surtdi*.

Ajratilgan vositali to‘ldiruvchilar: *Fursating bormi, qaynatangdan, Zunnunxo‘jadan, so‘rab kelganmisan?-dedi* (A.Q.).

Ajratilgan vositali to‘ldiruvchi ham, ajratilgan vositasiz to‘ldiruvchi ham gapda istalgan so‘zlar bilan ifodalanib kelishi mumkin.

D) Ajratilgan hollar o‘zidan oldin kelgan bo‘lak (hol) larning ma’nosini konkretlashtiradi. Ayniqsa o‘rin va payt hollarining ajratilishi nutqda ko‘plab uchraydi. Masalan, *Lekin bu yerda, qishloq joyda* (o‘rin), *bekor o‘tirish kishini-ayniqsa zeriktirar ekan. Bugun, soat- to‘qqizda* (payt), *institutda uchrashamiz. Yillar mana shu xilda, osoyishta* (ravish), *o‘tar edi*.

Ba’zan ajratilgan hollar uyushgan formada ham kelishi mumkin: *Qo‘rada, bog‘da, g‘aramlar orasida va butun dalada -o‘ng tomonda ham, chap tomonda ham -hamma yerda-zambaraklar turadi*.

Ajratilgan bo‘lakli gaplarda tinish belgilarining qo‘llanilishi turlicha amalga oshirilishi mumkin. Bu kabi holatlarga yuqoridagi misollardan ham ko‘rib guvoh bo‘lish mumkin.

UNDALMA

So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni anglatgan so‘z undalma deyiladi. Undalma bosh kelishikdagi ot yoki ot ma’nosidagi so‘zlar orqali ifodalanib, gapning umumiyligi mazmunini to‘ldiradi, gapning kimga yoki nimaga qarashli ekanini ko‘rsatib keladi. Undalmalar quyidagicha ifodalanishi mumkin:

1) shaxsning ismi, familiyasi, unvoni, taxallusi, laqabi, kasbi yoki qarindoshlik munosabatlarini bildiruvchi bosh kelishik formasidagi so‘zlar orqali: *Ol, jiyan, yo‘l yurib kelgansan* (O.) ***O‘rtoq general mayor, menga ham jangga kirishga ruxsat bering. Galya, men seni katta sahnada ko‘rgim keladi***.

2. Undalmalar ekspressiv ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zlar orqali ifodalanadi. Bunda ular sub’ektiv baho ma’nolarini beradi: *Kayfing chog‘ bo‘lgani uchun juda xursandman, azizim. Yo‘qol! Nomus, yurak o‘g‘rilari, ko‘zimdan yo‘qol!* (H.H.) ***Shoshilmang, onajon, shoshilmang. Tinchlan, qo‘zichog‘im, tinchlan, do‘mbog‘im***.

3. Emotsional nutqda undalmalar jonsiz predmetlarga, jonivorlarga, abstrakt tushunchalarga qaratilgan bo‘ladi. Bunday undalmalar ritorik undalma bo‘lib, nutqda dabdabali, emotsional tus berishda ishlataladi. a) *Seni unutolmas yuragim aslo, ey*

O'rta Osiyo, O'rta Osiyo. b) *Iltijo qilurman senga, tabiat, meni pok niyatdan ayirma aslo. c) Ukraina yellari, sarin yellar!* Sochlarimni o'pib ketdingiz (U)

Undalmalar orqali emotsional munosabatlarni ifodalashda undalmalar bilan birga undov so'zlar va yuklamalar ham ishlatiladi: a) **Hoy, o't yigit, haligi so'zlarining oltinga arziydi, ammo har kimga so'zlay berma!** b) **Chiqdi bahor quyoshi, ey Paxtakor, bo'l bardam.**

Undlmalar o'ziga qarashli aniqlovchi va izohlovchilari bilan kengayib kelishi ham mumkin. Bunday undalmalar yoyiq undalmalar deb ataladi. Masalan, *She'r aytgim kelayapti, aziz do'stlarim, she'r aytgim kelayapti, go'zal Farg'ona* (G'.G'). *Zabardast, bardoshlik qund ixlosli, Azamat o'g'illar, otincha qizlar, Aziz ko'ksingizda, yurak ustida, Porlasa yarashur oltin medallar* (G'.G'). *Yalpiziga salom berdik, chevar qizlar, sevar qizlar* (U).

Gapda undalmalar uyushib, takrorlarinb kelishi mumkin. Bu hol kuchli his-hayajon ifodalanganda, undalmaga alohida e'tibor berilganda ro'y beradi. Undalma takrorlanganda aynan qaytarilishi, aniqlovchi bilan birikib kelishi yoki undalma o'rnini mazmunan funksional jihatdan bosuvchi so'z bilan almashtirilishi mumkin.

Takrorlangan undalmalar: **Jamila, Jamila! Bas, tur o'rningdan! O, Raksona, ey sanam, yutding zahar-zaqqumlar.** (U.) **G'ofurjon, sevgilim, xayr! Xayr, o'g'lim, oq yo'l bo'lsin, xayr ko'zim qorasi, balkim jangda bilinadi, mard yigitning sarasi** (H.O.)

Uyushgan undalmalar: **Opajon! G'ofurjon! Unutma meni!** (H.H.) **Muhayo, Surayyo, Ra'no, Muqaddas, ko'zimni yashnatib kiyibsiz atlas.** (X.Saloh) **Hakim, Salim, Qosim, Vali siz bugun navbatchisiz.**

Undalmalar gapning boshida ham, o'rtasida ham, oxirida ham kela oladi. Undalmaning o'rni uning semantik funksiyasiga, stilistik xususiyatiga, tarkibiga asosiy gapning mazmuni va strukturasiga ham bog'liq bo'ladi.

1. Murojaat, chaqirish, tinglovchining diqqatini qaratish uchun ishlatiladigan undalmalar gap boshida keladi: **Do'stim, baxtiyormiz bu xonadonda, birdir maqsadimiz, fikr o'yimiz.**

2. O'z semantik funksiyasidan tashqarii qo'shimcha emotsional, modal munosabatlarni ifodalaganda, undalma gap orasida keladi: **Behuda, o'g'lim, egma bosh!** (H.O.) **So'ldirma, bobojon, gulday tarzingni** (F.Yo'ldosh)

3. Gap oxirida kelgan undalmalar so'zlovchining modal munosabatini yorqin ifodalaydi. Bunday gaplar yig'iq bo'ladi va undalmadan oldin pauza bo'ladi: **Chin so'zim, Gulnor! Kel, qo'zim!-har vaqtdagiday qarshi oldi chol. Usta parashyutchi, mohir uchuvchi bo'lasiz, Bashoratxon.**

Undalmalar gap tarkibida qaysi o'rinda kelmasin, ular vergul bilan boshqa bo'laklardan ajratiladi. Kuchli his-hayajon ifodalagan undalmalardan so'ng esa undov belgisi qo'yiladi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Qanday bo‘lklar ajratilgan bo‘lak hisoblanadi?
2. Gapda qaysi bo‘laklar ajratiladi?
3. Ajratilgan bo‘laklarda tinish belgilarining ishlatilishini tushuntiring.
4. Undalma deb nimaga aytiladi?
5. Qanday so‘zlar undalma vazifasida qo‘llaniladi?
6. Undalmalarning tuzlishiga ko‘ra turlarini aytинг.
7. Undalma gapda qanday tinish belgilari orqali ajratiladi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Ajratilgan bo‘lak-intonatsion hamda fikran ajratilib, gapda ma’lum mustaqillikka ega bo‘lgan bo‘lak.
2. Undalma-so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki predmetni ifoda qiluvchi mustaqil so‘z yoki so‘z birikmasi.

KIRISH VA KIRITMA KONSTRUKSIYALI GAPLAR

REJA:

1. Kirish so‘z, kirish birikma va kirish gaplar.
2. Kirish so‘z, kirish birikma va kirish gaplarning farqi.
3. Kirish qurilmalarning ma’no turlari.
4. Kiritmalar haqida ma’lumot.
5. Kirish va kiritmalarning bir-biridan farqi.

MATN

Kirish va kiritma kategoriyalar

Kirish va kiritmalar gapning ayrim bo‘laklari yoki butun mazmunga bo‘lgan so‘zlovchining sub’ektiv munosabatini, emotsional tuyg‘ularini ifodalaydi. Ya’ni kirish, kiritmalar gapning biror bo‘lagi yoki umumiyl mazmuni bilan izohlash munosabatiga kirishadi.

Kiritmalar xarakteri va gapning qaysi qismi bilan izohlash munosabatiga kirishishga qarab bir necha turga bo‘linadi:

1. Kirish so‘z.
2. Kirish birikma.
3. Kirish gap.
4. Kiritmalar.

Kiritmalar adabiyotlarda turlicha berilgan. Ya’ni ba’zi adabiyotlarda barchasi umumiyl “kiritmalar” deb berilsa (O‘zbek tili grammatikasi, 1976), boshqasida “kirish

so‘z, kirish birikma, kirish gap, kiritma” deb alohida-alohida beriladi. Lekin ularning asosiy mohiyati barcha adabiyotlarda to‘g‘ri aks ettirilgan.

Kiritmalar o‘z mohiyatiga ko‘ra gapning biror bo‘lagi bilan sintaktik munosabatga kirishmaydi. Shuning uchun kiritmalar gapning boshqa bo‘laklaridan nutqda pauza orqali ajralib turadi.

Kirish so‘z va kirish birikmalar

Bayon qilinayotgan fikrga so‘zlovchining sub’ektiv munosabatini ifodalaydigan so‘zlar kirish so‘zlar deyiladi. Shu xildagi funksiyani bajaruvchi birikmalar esa kirish birikmalar deyiladi. Masalan, *To‘g‘ri, yomon odam jazosini tortishi kerak, -dedi Saida.* (A.Q.) *Shu vaqtida, desangiz, birdan daryoning qirg‘og‘i o‘pirilib tushdi.* (Bu "albatta" so‘ziga yaqin bo‘lib uning dastlabki xususiyatlarini yo‘qotgan) *Hujjatlarda ko‘rsatilishicha, paxtadan yildan-yilga yuqori hosil olish uchun barcha imkoniyatlar bor...* (I.R.) *Bu chol, qizning so‘ziga qaraganda, hali juda baquvvat ekan, yer chopas olar ekan.*

Kirish so‘z va kirish birikmalar quyidagi ma’no ottenkalarini ifodalaydi:

1) Gapdan anglashilayotgan fikrga so‘zlovchining qat’iy ishonch, gumon, shubha, tahlil, ikkinlanish munosabatlarini bildiradi va *to‘g‘ri, shubhasiz, yaxshisi, so‘zsiz, albatta, tabiiy, rostdan, haqiqatdan, aslida, ma’lumki, chindan, darvoqe, yanglishmasam, ehtimol, shekilli, chog‘i, aftidan, chamasi, chamanda, shunday, balki, faraz qilaylik, gumonimcha, rostini aystsam, desam, desangiz, taxminan, taxminimcha* (va hokazo) so‘zlari bilan ifodalanadi: *U, aftidan, bugun borar.*

2) Aytيلayotgan fikrga so‘zlovchining emotsiyonal bahosini bildirib, *baxtimga, baxtimizga, baxtga qarshi, afsuski, ajabo, hayronman, koshki, xolos, ana xolos, azbaroyi, xayriyat, essiz, essizgina* va boshqalar bilan ifodalanadi: *Afsus, ming afsuski, dunyoga erta kelganman. -Xayriyat, haligi qiz bor ekan, gapga kavshar bo‘ldi.* (A.Q.) *Essiz, taqdir ekan qaydan bilibmiz. Azizim, dunyoga bevaqt kelibmiz.*

3) So‘zlovchi tomonidan bayon qilinayotgan fikr kimga qarashli ekanligini, fikrning manbaini ko‘rsatadi va *fikrimcha, menimcha, bizningcha, mo‘ljalimcha, o‘ylashimcha, aytishlariga qaraganda, aytishlaricha, rivoyatlarga ko‘ra, bilishimcha, eshitishimcha, xabar berishicha, menga qolsa, uning fikricha* va hokazo so‘zlar bilan ifodalanadi: *Deydilarki, shahrimda bir go‘zal bormish.* (U.) *Kechagi yomg‘irdan keyin ko‘ringan kamalak va bugun kumush quyosh sho‘lasining baland tog‘lar cho‘qqissini yarqiratishi, paxtakorlarning tajribalariga ko‘ra, bu yil bahorning erta kelishi va yozning yaxshi o‘tishidan darak beradi* (I.R.)

4) So‘zlovchining fikrning ifodalanish usuliga bo‘lgan munosabatini ko‘rsatadi va *bir so‘z bilan aytganda, qisqasi, umuman, boshqacha aytganda, gapning ochig‘i, gapning po‘stkallasi, qanday desam ekan, nima desam ekan, qo‘pol qilib aytganda, to‘g‘risini aystsam, qisqacha aytganda, ochiq gap* va boshqalar bilan ifodalanadi: *Qisqasi, qashshoqlikdan ish qidirib uzoq shaharga ketar edi.* (P.Tursun)

5) Fikrning tartibini, xulosasini, oldingi fikr bilan keyingi fikrning xulosasini ko‘rsatadigan kirish so‘z va birikmalar: *masalan, misol uchun, avvalo, demak, umuman, xulosa qilib aytganda, xullas, xullasi kalom, birinchidan, ikkinchidan, nihoyat, shunday qilib, binobarin, ko‘rinadiki, anglashiladiki, so‘ngra, ayniqsa* va boshqalar bilan ifodalanadi. Masalan, *Yo‘q, birinchidan, unga o‘zim yakka boraman deb aytib qo‘yding, ikkinchidan, shu kunlarda men juda charchab qoldim.* (K.Sim) *Nihoyat, Siddiqjon hozir emas, bir-ikki kundan keyin borishga va‘da berdi.* (A.Q.) *Demak, paxtadan normal hosil yetishtirib olishga butun kuch va imkoniyatlar muhayyo.* (G*.G*.)

6) Aytيلayotgan fikrga suhbatdoshning diqqatini jalb qilishga, fikrni suhbatdosh tomonidan ma’qullatishga qaratiladi va ko‘rdingizmi, shunday emasmi, o‘zingizga ma’lum, esingizda bo‘lsa kerak, shuni aytning, shuni aytmaysizmi, desangiz, menga qarang, qulq sol, ishonasangiz, nimasini aytaman, o‘zingizdan qolar gap yo‘q, ko‘rdingki, bildingki, tushunasizmi, o‘ylab ko‘r, qani marhamat qil, eshit, kechir, to‘g‘ri emasmi kabi so‘zlar bilan ifodalanadi: *Siz bilan bizning ishimiz o‘qish, to‘g‘ri emasmi.* (R.F.) Axir, *o‘rtoqlar, o‘zingiz o‘ylang, bundan ikki yarim yilgina hamma narsadan bexabar... yigit bugun meditsina fakul’tetida professorlardan leksiya tinglab o‘tiribdi.*

IZOH: Kiritma vazifasida keladigan so‘zlar turli turkumlarga oiddir.

1) Ma’lum so‘z turkumlaridan ajralib chiqib, faqat kiritma vazifasida ishlataladigan so‘zlar: *birinchidan, masalan, ya’ni madomiki, afsus, shekillik, essiz, demak, baxtimizga* va boshqalar.

2) Ma’lum so‘z turkumidan ajralib chiqmagan kiritma vazifasida ham, gap bo‘lagi vazifasida ham qo‘llanuvchi so‘zlar: *to‘g‘ri, rost, shubhasiz, so‘zsiz, aftidan, haqiqatdan, odatda, qisqasi, shunday qilib, oxirgi* kabi.

Kirish gaplar

Kirishlar predikativlikni aks ettirsa, kirish gap sanaladi. Masalan, *Bu bola, men o‘layman (men o‘laymanki), bizga yolg‘on gapirmaydi.* Kirish gap o‘zining mazmuni, funksiyasi, intonatsion xususiyatlari jihatidan kirish so‘z bilan asosan o‘xshashdir.

Kirish gaplar asosiy gapning biror bo‘lagi yoki umumiylar mazmuniga bo‘lgan so‘zlovchining munosabatini ifodalaydi. Kirish gaplar ham shunga ko‘ra, kirish bo‘lak va kirish birikmalar ifodalagan ma’nolarni ifodalaydi: a) ifodalanayotgan fikrga baho beriladi; b) aytيلayotgan fikrning avvalgi fikrga bo‘lgan munosabati ko‘rsatiladi; c) so‘zlovchining harakat-holatiga emotsiyonal munosabati ifodalanadi; d) aytigan fikrning manbai ko‘rsatiladi; e) fikrni ifodalash usuli izohlanadi; f) aytيلayotgan fikrga so‘zlovchining diqqati jalb etiladi va hokazo

Kirish gaplarning kirish so‘z va kirish birikmalardan farqi, avvalo, ularning strukturasida ko‘rinadi. Kirish gapning o‘z ichida predikativ munosabat bor.

Ikkinchidan, kirish gap ma'lum izohni kengroq, to'laroq, konkretroq ifodalaydi. Uchunchidan, kirish gap, ko'pincha ma'lum gap bo'laklari bilan kengayib keladi.

Kiritma(lar) qurilmalar

Bunday qurilmalar gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumot beradi. Kirtmalar gap tartibida nutq jarayonida kiritilib, gap bilan logik-semantik munosabatga kirishadilar.

Kirtmalar intonatsion jihatdan mustaqillikka ega bo'ladilar. Ular biror so'roqqa javob bo'lmaydilar, semantik vazifa bajarmaydilar, gap bo'lagi bo'lib hisoblanmaydilar.

Kirtma qurilmalar tushinilmaydigan yoki tushinilishi qiyin so'zlar (dialektizm, professionalizm, turli atamalar, jargon va argolar, arxaizm, istorizm va boshqalar) ma'nosini, ayrim so'zlar talaffuzi va tipologiyasini izohlash, xabar manbaini ko'rsatish, qo'shimcha ma'lumotlar berish uchun xizmat qiladi. Masalan, *Otasini bir kecha qonga belangan holda zindon yoqasidan topganda (uni zindondan qochganlar o'ldirib ketishgan edi)* Abdusamad o'n yashar qo'rkoq, lekin pismiq, quv bola edi (kirtma gap); *Bu odad (mehmonlarni yelpib qo'yish)* xonlar, beklar zamonasidan qolgan (G'.G'.). (Kirtma birikma); *Ustozi (Vohidov)* o'z shogirlarining qobiliyatli ekanliklarini maqtar edi. (Kirtma so'z)

Demak, kirishlar gapdan anglashilayotgan fikrga yoki uning biror bo'lagiga so'zlovchining sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'usini ifodalasa, kirtmalar esa gap mazmuniga yoki uning biror bo'lagiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beradi va shu tomoni bilan bir biridan farqlanadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Kirtmalar haqida ma'lumot bering.
2. Kirish so'zlarni izohlang. Kirish birikmani tushintiring.
3. Qanday gaplar kirish gaplar deyiladi?
4. Kirish gap va kirish so'zlarning qanday ma'no turlari mavjud?
5. Kirtmalarni izohlab bering.
6. Kirish va kirtmalarning o'zaro farqini izohlab bering.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

1. Kirishlar-gapning biror bo'lagi bilan sintaktik munosabatga kirishmaydigan, gapning ayrim bo'lagi yoki butun ifodaga so'zlovchining sub'ektiv munosabatini, emotsional tuyg'usini ifodalovchi qurilmalar.
2. Kirtmalar-gap mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari ma'nosiga oid qo'shimcha izoh, ma'lumotlar beruvchi sintaktik birlik.

IT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA MAVZUNI O'RGATISH METODIKASI

Internet (Internet) o‘zaro bog‘liq tarmoqlardan tashkil topgan global infratuzilmadir. Kompyuterlar va boshqa elektron qurilmalar foydalanuvchilari o‘rtasida masofaviy axborot va masofaviy muloqotga kirish imkonini beradi, shuning uchun ba’zi manbalardan “*Internet – axborot-telekommunikatsiya tarmog‘i*” iborasini topish mumkin.

Internet *kibernetika* kabi sohaning bir qismi bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy muhitni shakllantirishda ishtirok etadi, bu esa odamlarning bevosita va bilvosita o‘zaro ta’sirini o‘z ichiga oladi.

Olimlar “*Kibernetika – axborot-texnik infratuzilmaning o‘zaro bog‘liq to‘plamini, shu jumladan ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash, o‘zgartirish va almashish uchun mo‘ljallangan axborot va telekommunikatsiya tarmoqlari va kompyuter tizimlarini o‘z ichiga olgan axborot muhitining global sohasi*”, – deb ta’riflaydi.

XXI-asrda televizor va kompyuter deyarli har bir oilaga ega bo‘lganligi uchun ham, deyarli to‘liq vizualizmga o‘tish mavjud. Shu bilan birga, ekranlardan olingan ma’lumotlar ko‘pincha ko‘ngilochar yo‘nalishga ega va fikrlashni faollashtirishga yordam bermaydi va unga qo‘shilgan tasvirlar idrok va tushunishni osonlashtiradi.

Biroq, vizual tayyor ma’lumotni darhol olish qobiliyati, oddiy matnni o‘rganish odatining yo‘qolishiga olib keladi, buning uchun esa intellektual harakatlarni sarflash kerak.

Ta’limdagи zamonaviy audiovizual texnologiyalar o‘quvchilarga ta’sir qilishning ikkita qarama-qarshi turiga ega ekanligiga ishonchimiz komil. Bir tomondan, o‘quv materiallarining idrokini soddalashtirish orqali ular bilim jarayonini buzishi va natijalarini zaiflashtirishi mumkin. Boshqa tomondan, o‘quvchilarni yangi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lishga, shuningdek, ularning yaxshi tushunishlariga rag‘batlantirishga yordam berishdir.

Fanda belgilangan vazifalarini bajarishda o‘qituvchilarining IT texnologiyalaridan foydalanish metodikasi bo‘yicha bilimi bo‘lmasa ko‘zlangan marraga yeta olmaydi. Chunki, axborot va internet texnologiyalari hozirgi vaqtida ta’lim jarayonining zaruriy sharti hisoblanadi.

Bugungi kun o‘qituvchisi zamon yangiliklarini tez ilg‘ab olishi va uni ta’lim jarayoniga olib kirish bo‘yicha bilim, ko‘nikma, malaka va kasbiy kompetensiyaga ega bo‘lishi kerak.

Keling, Siz bilan “Sodda gap sintaksi” bo‘limini internet texnologiyalari asosida o‘rgatish bo‘yicha amaliy-metodik ta’minlanamiz.

Metodika o‘zi nima, degan savolga javob javob beramiz. Metodika – maqsadga eltuvchi, natijasi ilmiy asoslangan yo‘l.

O‘qituvchi “metodika” va “IT” texnologiyalarini birlashtirib, bugungi kun o‘quvchisining e’htiyoji asosida darsni rejalashtirishi kerak.

Uning uchun turli metod, usul va texnologiyalarga murojaat qilamiz.

QR –kodli topshiriq.

QR – kodli topshiriqlar o‘quvchilarda quloq solish, idrok etish, fikrlash va tinglab tushunish ko‘nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Buning uchun o‘quvchi QR – kodda joylashgan ma’lumotni yuklab olib, u bilan tanishadi.

Masalan, QR – kod audiosida gaplar berilgan. Audioni tinglb tushunib, jadvalni to‘ldiradi.

Audioda quyidagi gaplar berilgan: 1. Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi (Maqol). 2. Har «yomon»ning bir ammosi bo‘lishi kerak, har «yaxshi»ning bir lekini (A.Q.). 3. Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin (Maqol). 4. Qimirlagan qir oshar (Maqol). 5. Tog‘dan oqib tushayotgan tiniq suvlarning shildir - shildiri dillarga orom beradi (O.Yo.). 6. Aslida ikkovlaring ham adashdinglar (O’.H.). 7. Qo‘snilarning urasi olamni tutib ketdi.



Otlashgan ravish shakli:

...

Otlashgan sifat shakli: ...

Otlashgan son shakli: ...

Bog‘lovchi shakli: ...

Otlashgan sifatdosh shakli: ...

Otlashgan taqlid so‘z shakli: ...

Otlashgan undov so‘z shakli: ...

To‘g‘ri javob namunasi:

Otlashgan ravish shakli: *Ko‘p so‘zning ozi yaxshi, oz so‘zning o‘zi yaxshi (Maqol).*

Bog‘lovchi shakli: *Har «yomon»ning bir ammosi bo‘lishi kerak, har «yaxshi»ning bir lekini (A.Q.).*

Otlashgan sifat shakli: *Yaxshilar ko‘paysin, yomon qolmasin (Maqol);*


Otlashgan sifatdosh shakli: *Qimirlagan qir oshar (Maqol);*

Otlashgan son shakli: *Aslida ikkovlaring ham adashdinglar (O‘.H.);*


Otlashgan taqlid so‘z shakli: *Tog‘dan oqib tushayotgan tiniq suvlarning shildir-shildiri dillarga orom beradi (O.Yo.);*

Otlashgan undov so‘z shakli: *Qo‘snilarning urasi olamni tutib ketdi.*

“Tavsiflash” usuli



“Klaster” usuli



Topshiriq: Gapning maqsadga ko‘ra turlarini qiyoslang va qarama-qarshi tomonlarini toping.

Namuna:


Darak gap borliq xodisalarni tasdiq yoki inkor bilan xabar qilsa, so‘roq gap biror voqeа-hodisa, harakat-hodisa belgi haqida so‘raydi ...

TOIFALASH JADVALI”

| Darak gap | So‘roq gap | Buyruq gap | Darak undov gap | Buyruq-undov gap |
|---------------------------------|--------------------------------|---------------------------------------|--|---------------------------------------|
| <i>Ko‘kda tanho oy kezmoqda</i> | <i>Qachon safarga boramiz?</i> | <i>Topshiriqni o‘z vaqtida bajar!</i> | <i>Hammamiz imtixonlarni muvaffaqiyatli topshiriq!</i> | <i>O‘g‘il-qizlaringizni o‘qiting!</i> |
| ? | ? | ? | ? | ? |
| ? | ? | ? | ? | ? |

Foydalanish uchun gaplar: Hammamiz imtixonlarni muvaffaqiyatli topshiriq! Mashg‘ulot boshlandimi? Topshiriqni o‘z vaqtida bajar! Nahotki, institutda ta’lim olayotgan kishi intizomsizlik qilsa? O‘g‘il-qizlaringizni o‘qiting! Kechki gullar ochilib turibdi. Qachon safarga boramiz? Ku xavosi iliq edi. Ko‘kda tanho oy kezmoqda.

“G‘ildirak” usuli
Topshiriq: Strelkalar bo‘ylab
topshiriqlarni bajaring.





Mavzuni tushuntirishda “Sinkveyn” metodi qulay

Ot

Kuz

Sifat

Oltin, salqin

Fe'l


Keldi, boshlandi

Gap

Oltin kuz fasli keldi



- Darak gap: Har bir bola vaqtdan unumli foydalanadi.
- So'roq gap: Har bir bola vaqtdan unumli foydalanadimi?
- Buyruq gap: Har bir bola vaqtdan unumli foydalansin!
- Istak gap: Qani, har bir bola vaqtdan unumli foydalansa.
- Har bir gap o'quvchilar bilan birga sharhlanadi. Darak gap xabar, **darak** ma'nolarini ifodalaydi, so'roq gap so'rash ma'nosini, buyruq gap buyruq ma'nosini, istak gap esa istak, xohish va orzuni ifodalaydi.



Oltin kuz

Sevaman, yerlarda rangdor yaproqlar
 Yumshoq va rang-barang gilam to'shasa
 Gul terganday terib barg qizaloqlar
 Qushlarday gurpanglab yayrab o'ynasa
 Dalada paxtalar kumushi porlab
 Momiq yuzlarini quyoshga tutsa
 Terimchi chechanlar etaklab, qoplab
 Tog'day xirmonlarga keltirib to'ksa,
 Men behad sevaman! Yengim shimarib,
 Qizlar orqasidan yuraman men ham
 Keng vodiy qo'ynida ko'ksim qabarib,
 Yayrayman, na'shaga to'laman bu dam

ZULFIYA




“QR kodli topshiriq”

QR kodda joylashgan
ma'lumotni
tushuning va qayta
so'zlab bering.

“Sintaksis bilimdoni” o‘yini

O‘yin shartlari: Sintaksis mavzusi doirasida turli savollar tuziladi va u IT “PowerPoint” dasturi asosida prgrammalashtiriladi.

O‘yin ishtirokchilari savolar berishadi va savolga berilgan javobga qarab koptok harakatlanadi.



QR – kodda quyidagi kompyuter o‘yini joylashgan.

1 -
ishtirokchi

Taajjub ma’nosimi anglatgan gapni toping.

Savranov
kelib, uyiga
kirdi shekilli

U keldi, ota!

Tavba, bunday
ustamomni
ko ‘rgan
emasman

Ularningbari
yolg ‘onchi, bari
yurtimizni
zaharlaydi, bari
iflos!

keyingi

2

Sifatdosh bilan ifodalangan egani topping.

2
ishtirokchi

*O'n beshga
kasrsizbo'linadi*

*So'zni bilgan
zargabo'lmaydi
muxtoj.*

*Qarsikki
qo'lidan chiqadi.*

*Xotinsiz o'tish -
xato, bolasiz
o'tish-jaflo.*



3

ishtirokchi

Shart-istik mayli shaklida ifodalangan kesimibor
shaxsi aniq gapni topping.

*Aylanay,
qizim, shirin
qizim,
yig'lama!
(Yashin).*

*Kirsak maylimi?
(S.Zunnunova).*

*- Bajaraman,
o'rtoq general
(Yashin).*

*- O'shga
sayohat
qildilarmi,
mulla aka?
(A.S.).*



MUSTAHKAMLASH DARSI

Mavzu: Gapning maqsadga ko‘ra turlari

Darsning maqsadi:

- a) **ta’limiy:** gap turlari yuzasidan o‘zlashtirilgan tushunchalarni umumlashtirish;
- b) **tarbiyavyiy:** do‘stlik, hamkorlik tuyg‘ularini singdirish;
- d) **rivojlantiruvchi:** matn yaratish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

Dars turi: takrorlash va mustahkamlash.

Dars usuli: kichik guruhlarda ishslash.

Dars jahozi: darslik, “Savollar daraxti”, jarima va rag‘bat kartochkalari

Darsning borishi: 1. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashilib, davomat aniqlanadi. So‘ng bugungi dars musobaqa usulida olib borilishi e’lon qilinib, o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi: 1-guruh - “**Iste’dod**”, 2-guruh – “**Istiqbol**” 3-guruh - “**Iqtidor**”

“Darsning oltin qoidalari” bilan o‘quvchilar tanishtiriladi:

- salomlashish;
- o‘ng qo‘l qoidasi;
- o‘zgalar fikrini hurmat qilish;
- adabiy tilda gapirish;
- chiroyli husnixat;
- vaqtdan unumli foydalanish;

Keyin o‘qituvchi o‘quvchilarni dars shiori bilan tanishtiradi:

“Aytsang-unutaman, ko‘rsatsang-eslab qolaman, o‘zim bajarib- anglab yetaman”

II.O‘tilgan mavzuni mustahkamlash

“Savollar daraxti” dagi mevalardagi savollardan har guruhdan 3 ta o‘quvchi chiqqib oladilar va javob beradilar.

1. Gap nimaligini ta’riflab bering.
 2. “Gapning grammatik asosi” deganda nimani tushunasiz?
- 3. Ifoda-maqsadiga ko‘ra gapning qanday turlari bor?**

4. His-hayajonning ishtirokiga ko‘ra gaplar necha xil bo‘ladi?
5. Qanday gaplar undov gaplar deyiladi?
6. Gaplar tuzilishiga ko‘ra necha turga bo‘linadi?
7. Sodda gap bilan qo‘shma gapning asosiy farqi nimada ?
8. So‘roq gaplar nimalar orqali hosil qilinadi?
9. Gap uchun eng muhim belgi bu?

III.Yangi mavzu bayoni:

1 - topshiriq. 1-guruh “Iste’dod” darak, 2-guruh “Istiqlol” so‘roq, 3-guruh “Iqtidor” buyruq gaplarning har biriga 3 tadan misol yozadilar.

2-topshiriq. Har bir guruh undov gapga 5 tadan misol topadilar va guruhlar 3-5 ball bilan baholanadilar. Darsning oltin qoidalarini buzgan guruh jarimakartochkasini oladi.

3-topshiriq. Rasmni kuzating. Undan foydalanib har bir guruh ”Kech kuzda tabiat” mavzusida matn tuzadilar. Har bir guruhdan bir o‘quvchi chiqib tuzgan matnini o‘qib beradi va undagi soda va qo‘shma gaplarni aniqlab aytadi.

IV.Mustahkamlash.

Darslikdagi 108-mashqda berilgan matnga sarlavha topib 1-guruh buyruq, 2-guruh undov, 3-guruh so‘roq gaplarni topib yozadilar. Matnga “Qishloqda” deb sarlavha qo‘yish mumkin.

V.Baholash va rag‘batlantirish.

Dars davomida to‘plangan rag‘bat kartochlari hisoblanib,g‘olib guruhlar aniqlanadi. Darsda faol ishtirok etgan guruh va o‘quvchilar rag‘batlantiriladi. Ishtirokiga ko‘ra barcha o‘quvchilar baholanadi. Baholar kundalikka qayd etiladi.

Dars o‘qituvchining quyidagi fikrlari bilan yakunlanadi:

Ilmdan bir shu’la dilga tushgan on,

Shunda bilursankim, ilm bepoyon.

VI.Uyga vazifa. 109-mashq “Ona tili” darsligingizdan foydalanib,”Gapning so‘z birikmasidan farqi ”mavzusida kichik ilmiy matn tuzing.

ASOSIY ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisdagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016. -56 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahliliy, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. -102 b.
3. G‘ulomov A., Asqarova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T., “O‘qituvchi”, 1987 .
4. Abdurahmonov G‘., Sulaymonov A., Xoliyorov X., Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Sintaksis. T., 1978 .
5. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O‘zbek tili. T., 1978.
6. O‘zbek tili grammatikasi. 2-tom. Sintaksis, T., 1976.
7. O‘rinboyev B. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Samarqand, 2001.
8. Abdurahmonov G‘. O‘zbek tili grammatikasi.T.,1996.

Qo‘sishimcha adabiyotlar:

1. Asqarova M., Muhammedova D. O‘zbek tili praktikumi. III qism. T., 2006.
2. Ahmedov A. O‘zbek tilida gapning kommunikativ turlari. T.,1979.
3. Mahmudov N., Nurmonov A. O‘zbek tilining nazariy grammatikasi. T.,1995.
4. Nurmonov A., Mahmudov N.va boshqalar. O‘zbek tilining mazmuniy sintaksiси. T.,1992.
5. Mahmudov N. O‘zbek tilidagi sodda gaplarda semantik-sintaktik assimetriya. T.,1984.
6. Omilxonova M. Maktabda ona tili sintaksisini o‘rgatish.-T.: O‘qituvchi, 1991.
7. Omonturdiyev J. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida gap bo‘laklari tipologiyasi. T.,1988.
8. Mamajonov A. Tekst lingvistikasi. T.,1989.
9. Rasulov I. Hozirgi o‘zbek tilida bir sostavli gaplar. T.,1979.
10. Toshaliyev I. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar. T.,1976.
11. Ubayeva F. Hozirgi o‘zbek tilida hol kategoriyasi. T.,1979.
12. Shodmonov E., Nafasov T. Hozirgi o‘zbek tilidan labarotoriya mashg‘ulotlari. T.,1986.
13. Nazarov K. O‘zbek tili punktuatsiyasi. T.,1976.
14. Rasulov I. Sodda gap sintaksisi. T., 1980.

MUNDARIJA

| |
|--|
| So‘z boshi..... |
| Sintaksisning predmeti..... |
| Sintaksis haqida umumiy tushuncha..... |
| So‘zlarning o‘zaro sintaktik aloqaga kirishish yo‘llari... |
| So‘z birikmasi haqida ma’lumot..... |
| Gap sintaksisining tekshirish predmeti..... |
| Gapning tuzilishiga ko‘ra turlari..... |
| Gapning ifoda mazmuniga ko‘ra turlari..... |
| Gaplarning emotsionallikka ko‘ra turlari..... |
| Gaplarning tarkibidagi bo‘laklarning qo‘llanish darajasiga ko‘ra turlari..... |
| Ikki sostavli gaplar..... |
| Bosh bo‘laklar |
| Ikkinchi darajali bo‘laklar..... |
| Gapda so‘zlar tartibi..... |
| Bir sostavli gap va uning turlari..... |
| Bo‘laklarga ajralmaydigan (so‘z-gap) gaplar..... |
| Uyushiq bo‘lakli gaplar..... |
| Ajratilgan bo‘lakli va undalmali gaplar..... |
| Kirish va kiritma konstruksiyali gaplar..... |
| Metodika |
| Adabiyotlar..... |

**Sh.Haydarov,
B.Supiyeva**

HOZIRGI O'ZBEK ADABIY TILI

(Sodda gap sintaksisi bo'limini internet texnologiyalari asosida o'rgatish
bo'yicha tayyorlangan o'quv qo'llanma)